

O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi

Zahiriddin Muhammad Bobur nomidagi

Andijon davlat universiteti

Filologiya fakulteti

Tilshunoslik kafedrası

Qo'lyozma huquqida  
UDK 811.512.133

Sevara Abdusalimova

**TIL O'RGANISHNING FALSAFIY ASOSLARI**

10.02.01. – o'zbek tili

magistr akademik darajasini olish uchun yo'zilgan dissertatsiya

Ilmiy rahbar: f.f.d., prof. Sh. H. Shahobiddinova

ANDIJON - 2012

TIL O'RGANISHNING FALSAFIY ASOSLARI  
Mundarija

Ishning umumiy tavsifi.....	2
Kirish.....	3
I bob. O'zbek tilini o'rganishning umumiy falsafiy masalalari.....	8
1-§. Xususiylik va umumiylik haqida.....	8
2-§. Umumiylik-xususiylik dialektikasining tildagi tajallisi.....	16
3-§. Xususiylik va umumiyliklarning tadqiq usullari.....	28
II bob. Til hodisalarini falsafiy asoslarda o'rganish.....	40
1-§. Umumiy va xususiy ma'no.....	40
2-§. Umumiy va xususiy grammatik shakl.....	50
3-§. Grammatik kategoriya va grammatik shakl.....	55
4-§. O'zbek tili grammatik kategoriya va shakllarining tasnifi.....	64
5-§. Grammatik-morfologik kategoriyalar tahlili .Egalik kategoriyasi.....	74
Xulosa.....	85
Foydalanilgan adabiyotlar.....	88

## ISHNING UMUMIY TAVSIFI

### **Mavzuning dolzarbligi**

Shu kunga qadar o'zbek tilshunosligida morfologik sath birliklarini o'rganishda ulkan yutuqlar qo'lga kiritildi. O'zbek tili morfologiyasiga bag'ishlangan bunday asarlarning yaratilishi 1970 yillardan o'zbek tilshunosligida shakllana boshlagan sistemaviy-struktur tilshunoslikning rivoji uchun poydevor bo'lib xizmat qildi. Shu bilan birgalikda til o'rganishning falsafiy asoslari to'liq ishlab chiqildi deyish qiyin. Bu borada professorlar A.Nurmonov, Sh.Shahobiddinova, D.Nabieva va boshqalarning yirik tadqiqotlari mavjud. Ammo konkret tadqiqotlar hamon yetarlicha falsafiy asoslanmayapti. Bu esa mavzuning dolzarbligini ko'rsatadi.

**Tadqiqotning maqsad va vazifalari.** Ushbu tadqiqotning asosiy maqsadi o'zbek tilini o'rganishning falsafiy asoslarini kuzatishdir. Bu maqsadni amalga oshirish quyidagi vazifalarni bajarishni nazarda tutadi:

tilda falsafiy kategoriyalar amalini kuzatish.

o'zbek tili konkret faktlari misolida falsafiy asoslar tatbiqini kuzatish, o'ziga xos jihatlarini belgilash va mohiyatini ko'rsatib berish.

**Tadqiqotning metodologik asoslari va metodlari.** Tadqiqotning metodologik asosi dialektik falsafadir. Tadqiqotni amalga oshirish jarayonida analiz qilish, sintez qilish, qiyoslash, uzviy tahlil, distribustiya, zidlovga qo'yish kabi metodlardan foydalanilgan.

**Tadqiqotning o'rganish ob'ekti** morfologik kategoriya, morfologik ko'rsatkichlar, grammatik ma'no, grammatik shakl va hokazolardir.

**Tadqiqotning ilmiy yangiligi.** Falsafiy kategoriyalarga asoslanib kategoriyani tashkil etuvchilar va kategoriya orasida yuzaga keluvchi xilma-xil munosabatlar tahlil etildi; morfologiya tarkibida ko'rib kelinayotgan nomorfologik ob'ektlar ajratildi; tadqiq etilgan morfologik tizimning o'ziga xosligini ta'minlovchi xususiyatlar aniqlandi.

## KIRISH

Inson hozirgi dolg`ali zamonda munosib hayot yo`lini yashab o`tish uchun qanday qat`iyatlarga amal qilmog`i lozim? “U ushbu olam tomonidan unga nisbatan qo`yilayotgan shartlarni qabul qilmog`i, ularning qarshiliklariaro o`zi xohlagan narsani kurashib, qo`lga kiritmog`i lozim. Ammo inson, odatda, faqat muhtojlik uni bu olamga moslashishga majbur qiladi, deb o`ylaydi. Aslida esa olam bilan bu birlik majburiy munosabat emas, balki ongli munosabat sifatida qabul qilinishi lozim... olam ilohiy ongning amaliyotidir: ongsiz hodisotlar o`yini faqat uning yuzaki qismida”.<sup>1</sup>

Demak, munosib hayot yo`lini orzu qilgan inson ana shu hodisalar (xususiyliklar) ortida mavhum, ammo barkamol va abadiy hayot asosini (umumiylikni) ko`ra bilishi lozim. Uning borligiga ishonch kundalik ijtimoiy va maishiy hayotda ikir-chikirlardan, aldamchi hoyu havaslardan, xavfli siyosiy, diniy, ma`naviy yolg`onlardan saqlaydi.

“O`zgarishlarni ongli qabul qilish, sodda qilib aytganda, dasturxon to`kinligini ham, kamchiligini ham ongli idrok etish – bu hayotning qadriga etish demak. Ongli qarash, avvalambor, hayotni mantiqiy, ya`ni aql tarozusida idrok etish”.<sup>2</sup> Ilmu fanda esa bu xil qarashning o`rni beqiyosdir.

Qadimdayoq ta`limda xususiyliklar doirasida uzoq o`ralashib qolish yaxshi natija bermasligini bilishgan. Gegel bu xil ta`lim bolani hamma narsaga pisandsizlik bilan qarashga o`rgatadi<sup>3</sup> deb yozgan edi. Shuning uchun ta`limni bola ruhi qabul qilishiga qodir mavhumotlarga asoslash to`g`ri bo`ladi. Bola ongiga eng yaqin mavhumot esa tildir. “Til uni bilish bola ruhini xususiyliklar va yakkaliklardan umumiylikka tomon, ongga tomon ko`tarib boradigan o`sha havo yangliq hissiy-nohissiy hilqatdir”.<sup>4</sup>

Til xususiyliklari kundalik nutq faoliyatida doim bizga kerakli hamroh. Ular ortida turgan umumiylikni tekshirish, topish uchun bizga na maxsus qurol, asbob-uskuna, na alohida sharoit zarur. Shu bilan birga biz qo`lga kiritgan natijalar qurilishi olam qurilishi, inson hayoti asosini tashkil etuvchi boshqa umumiyliklar tahlilida qo`l kelaveradi. Chunki dunyo o`xshash tarxlar, umumiy tektologik qonuniyatlar asosiga qurilgan:

Sonie`kim chekti chun sun`i qalam,  
Ofarinish tarxini qildi raqam.<sup>5</sup>

<sup>1</sup> Гегель. Философия духа // Гегель. Сочинения. т. III. -М., 1956. -С. 95.

<sup>2</sup> Февраль вокалари. -Тошкент, 1999. -Б. 26.

<sup>3</sup> Гегель. Философия духа // Гегель. Сочинения. т. III. -М., 1956. -С. 93.

<sup>4</sup> Гегель. Философия духа // Гегель. Сочинения. т. III.-М., 1956. -С. 93.

<sup>5</sup> Навоий Алишер. Лисон ут-тайр. Тошкент, 1991. -Б.18.

Ushbu tadqiqot maqsadi o'zbek tili morfologik sistemasini umumiylik-xususiylik dialektikasiga asoslanib tekshirishdir. Bu yo'lda biz dialektikaning ob'ektivlik, substansiallik kabi qat'iatlariga amal qilishga, asosiy qonunlarining morfologik sathdagi reallashuvida o'ziga xosliklarni aniqlashga harakat qilamiz.

Ushbu tadqiqot o'zbek tili morfologiyasini o'rganishda zamonaviy – sistem bosqich tarkibida bo'lib, ushbu bosqich to'lig'icha o'zbek tilshunosligidagi avvalgi rivojlanish bosqichlaridan kuch oladi. Abdurauf Fitrat, Munavvar Qori, Qayum Ramazon, Shorasul Zunnun kabi tabarruk nomlar bilan bog'lanuvchi jahon tilshunosligi an'alarini o'zbek tiliga tadbiiq qilish orqali zamonaviy Fan yaratishga ilk poydevor qo'yilgan bosqich keyingi nazariy – sistem tilshunoslik uchun asos, material to'plash, asosiy tushuncha va atamalarni shakllantirish bosqichi bilan uzviy bog'lanadi. Bu bosqich ibtidosida S.Usmonov, U.Tursunov, F.Kamol, M.Mirzaev, J. Muxtorov kabi olimlar turgan bo'lsa, o'zbek morfologiyasining eng zabardast tadqiqotchilari ham shu davrda etishib chiqdilar. A. G'ulomov, A.Hojiev, Sh.Rahmatullaev, Sh.Shoabdurahmonov, M. Asqarova kabilar shular jumlasidandir. O'zbek morfologiyasi hozirgi zamonaviy nazariy – sistem bosqichining asosini tashkil etuvchi tamoyillar, tushuncha va atamalarning shakllanishi A. Abduazizov, Sh.Rahmatullaev, R.Yunusov, I.Qo'chqorto'ev; rivojlanishi H.G'.Ne'matov, A.Nurmonov, N.Mahmudov, G'.Zikrillaev, R.Rasulov, R. Sayfullaeva, A.Berdialiev, O.Bozorov nomlari bilan bog'lanadi.<sup>1</sup>

Biror ob'ektni, xususan, morfologik birlikni o'rganishda birlamchi nuqta sifatida uning mavjudligi faktini olish lozim. U inson irodasi va ixtiyoridan tashqarida o'zining barcha xususiyatlarini jamlagan holda o'z-o'zicha mavjuddir: "...narsa haqiqiy narsadir, u o'z-o'zicha mavjud, unda nimaiki mavjud bo'lsa, uning o'z mohiyatiga ko'ra, mutlaq boshqa narsalar ta'sirida emas, mavjuddir".<sup>2</sup> Ana shu jihatni nazarda tutish ob'ektivlik demak. Ob'ektivlik qat'iyatiga rioya qilish tadqiqotchini oldindan mo'ljallangan baholardan saqlaydi, narsaning chigal va xilma-xil munosabatlari tizimida narsaning o'zini ko'rishga yordam beradi. Til birligiga ob'ektiv baho berishning asosiy sharti uni substansial tushunishdir. Til birligi substansial tushunilganda, o'zining munosabatlarda ochiluvchi, lekin bu munosabatlargacha ham mavjud bo'lgan xususiyatlariga ega materiya sifatida talqin etiladi. Til birligi munosabatlararo yashaydi, ammo u shu munosabatlarning o'zigina emas.

Morfologiyani o'rganishda dialektikaning asosiy – qarama-qarshiliklar birligi va kurashi qonuni katta ahamiyatga ega. Har qanday morfologik birlik muayyan qarama-

---

<sup>1</sup> Ushbu ish sanab yutilgan olimlar va ularning safdoshlari asarlaridan kuch olib, ularning mehnati bilan bosqichma-bosqich rivojlanib borayotgan y'zbek morfologiyasi tadqiqotiga kichik bir ulush b'ulishi nиятида юзага келди.

<sup>2</sup> Гегель. Система наук. ч. I. Феноменология духа // Соч. т. I. -М: Изд. социально-экологической литературы, 1959. -С.65.

qarshiliklar (ziddiyatlar, oppozistiyalar) tizimida hayot kechiradi. Uning hayotini ichki ziddiyatlar ta'minlaydi: "... ziddiyatga qarama-qarshi o'laroq ayniyat faqat oddiy bevositaning, o'lik borliqning ta'rifidir; ziddiyat esa har qanday harakatning va hayotiylikning negizidir. Bir nimaning o'zida ziddiyat bor bo'lgani uchungina u harakatlanadi, impuls va faoliyatiga ega bo'ladi".<sup>1</sup>

Dialektik ziddiyat morfologik hodisalarning nutqiy va lisoniy ko'rinishlarida birday mavjud bo'ladi. Mohiyatan morfologik birliklar ziddiyatli ikkilangan bo'lib, ularning bu tabiati turlicha namoyon bo'ladi:

birinchidan, har qanday til birligining ikki qator ziddiyatli munosabatlarga kirisha olishida;

ikkinchidan, ularning ham semantik, ham sintaktik xususiyatlarga egaligida, ya'ni til birligi mohiyatining ziddiyatli ikkilanganligida...<sup>2</sup>

Demak, til birligi, morfologik birlik mohiyatini anglab etish uchun uning xususiy ko'rinishlaridan umumiy tomonini aniqlash (sintezlash), bu umumiylikning ziddiyatli tabiatini yoritish (komponent tahlil yo'li bilan analiz qilish), va uning ziddiyatli munosabatlar tizimini tiklash (oppozistiyaga qo'yish) lozim.

Tadqiqot davomida ana shu qat'iyatlarga izchil asoslanib borishga harakat qilinadi. Tadqiq qilinayotgan kategoriyalar va ular shakllarining xususiy ko'rinishlari tilshunosligimizda etarlicha o'rganilgani bois tahlilda doim ham ularga ortiq o'rin ajratmadik. Shu bilan birga zarur o'rinlarda bu xil qo'llanishlarga ham e'tibor berilgan

---

<sup>1</sup> Гегель. Наука логики // Соч. т. М., 1937. - С. 520.

<sup>2</sup> Иванов С.Н. Курс турецкой грамматики. ч. I. -Л: ЛГУ, 1975. -С. 77-91. Нигматов Х.Г. Морфология тюркского глагола по материалам Махмуда Кашгарского. Автореф. дис... кандидата филол. наук. -Л., 1970. -С.4.

# I BOB. O'ZBEK TILINI O'RGANISHNING UMUMIY FALSAFIY MASALALARI

## 1-§. XUSUSIYLIK VA UMUMIYLIK HAQIDA

Faylasuflar dunyoni tushunishda uni muntazam rivojlanish va o'zgarishda ko'rishning o'zni beqiyos ekanligini mudom ta'kidlab kelganlar. Dialektika aynan ana shunday taraqqiyotni aks ettiruvchi fikrlash yo'sinidir.

Tabiat va jamiyat tinimsiz o'zgarishda. Ammo shu o'zgarishlarga qaramay har qanday ob'ektiv borliq o'z butunligini saqlab turadi. Qanday qonuniyatlar amali ana shu xil ikki qarama-qarshilik, o'zgarishlar va butunlik birligini ta'minlaydi?

Dialektikada umumiy va xususiy<sup>1</sup>, tasavvufda kull va juz' o'ta muhim kategoriya va tushunchalar bo'lib, ularni chuqur va atroflicha o'zlashtirmay turib, falsafa va tasavvuf mohiyatini bilish nazariyasi (gnoseologiya)ni, narsa-hodisalarning tahlil mohiyatlarini tushunish mumkin emas. Shuning uchun falsafada umumiylik va xususiylik munosabatlariga katta e'tibor berilgan.

Xususiy nima?

Biz ko'ra oladigan, seza oladigan, o'lchay oladigan, kuzata oladigan har bir narsa, voqea-hodisa, belgi va xususiyat xususiylikdir.<sup>2</sup> Xususiylikning uch asosiy belgisini ajratish mumkin:

I. Xususiylikning moddiylik va bevosita kuzatish: fahmda berilganligi.

II. Xususiylikning alohidaligi va takrorlanmasligi.

III. Xususiyliklarning cheklanmaganligi va behisobligi.

Tushunarli bo'lishi uchun xususiylikning bu belgilarini daraxt misolida ko'rib chiqamiz. Xususiy daraxt (XD) – bu ko'z oldimizda ma'lum bir joyda, ma'lum bir vaqtda, ma'lum bir shaklda va ko'rinishda, ma'lum bir taraqqiyot bosqichida turgan alohida bir narsa, o'simlik. Biz bu daraxtni ko'ra olamiz, paypaslay olamiz, kerak bo'lsa uzunligini, yo'g'onligini, tana va

---

<sup>1</sup> Гегель. Философская пропедевтика // Гегель. Работы разных лет. В 2-х т. Т. 2. М.: Мысль, 1971. -С.100-180. Гегель. Наука логики. В 3-х т. Т.2. -М.: Мысль, 1971.- С.12-25. Гулиан К.И. Метод и система Гегеля. Т.1. -М.: Изд. иностранной литературы, 1962. -С.154-159. Сулова Л.А. Философия И. Канта. -М.: "Высшая школа", 1988. -С.101-109. Горский О.П. О критериях истины//Вопросы философии. -1988. N 2. Дialeктика единичного, особенного и всеобщего в науке о языке. М.: Изд. МГУ, 1980. Суфизм в контексте мусульманской культуры. М.: Наука, 1989. Никитченко В. Моҳият ва ҳодиса. Тошкент: Ўзбекистон, 1966. Семанюк Э.Т. Общенаучные категории и подходы к познанию. -Львов: Виша школа, 1978. Умаров Х. Алоҳидалиқ, махсуслик ва умумийлик категорияси. Тошкент: Ўзбекистон, 1966.

<sup>2</sup> Туленов Ж, Фафуров З. Фалсафа. -Тошкент: Ўқитувчи, 1997. Философский энциклопедический словарь. - М.: Советская энциклопедия, 1989. -С.190. Умаров Х. Алоҳидалиқ, махсуслик ва умумийлик категорияси. -Тошкент, Ўзбекистон, 1966 ва бошқ.

shoxlari miqdorini, hatto undagi barg va mevalar sonini hisoblay olamiz. Bu daraxt moddiy shaklga ega, ya'ni muayyan moddalardan – ildizni, tanani, po'stlarni, shox-shabballarni hosil qiluvchi organik va noorganik birikmalardan iboratdir. Daraxtning moddiyligi ham mana shu moddalardan tuzilganligidadir. Shu moddiyliklar bo'lmasa, XD ham bo'lmaydi, yo'qoladi. XD uyimiz hovlisida, ko'chada o'sib turibdi, uni kuzatishimiz uchun hech qanday to'sqinlik yo'q.

Har bir XD takrorlanmas va alohidadir. Hovlimizda ikkita olma daraxti o'sadi, deylik. Bu daraxtlar bir yilda ekilgan bo'lsa, ularni bir xil deb bo'ladimi? Yo'q! Chunki ular ikkita daraxt, ikkita alohidalikdir. Axir bir daraxtni kessak, ikkinchisi kesilmaydi-ku. Har bir xususiylik o'z holida, yakkaligida mavjud bo'la olishi, yashay olishi har bir xususiylikning alohidalik belgisini tashkil qiladi. Hovlimizdagi ikkita daraxt nafaqat ikkita alohidalik, balki takrorlanmasdir ham. Bu ikki daraxtga razm solib qarasak, yoshi, mevasi, tanasi deyarli bir xil bo'lsa-da, shoxlari turlicha joylashganligi, shoxlar va barglar miqdori har xil ekanligini va makonda – joylashishda boshqa-boshqa ekanligini bilish qiyin emas. Bu ikki daraxt bir-birini takrorlamaydi, shuning uchun ham ular ikkita daraxtdir. Bu XDning alohidalik va takrorlanmaslik belgisidir.

XDlar chegeralanmagan va behisobdir. Er yuzida nechta daraxt bo'lsa, shuncha XD bor. Er yuzi, suv osti, cho'l va tog'lardagi XDlarni sanash hech kimning xayoliga ham kelmaydi va, faraz qilaylik-ki, insoniyat ma'lum bir kunda er sharidagi daraxtlarning miqdorini sanamoqchi bo'ldi va sanadi ham. Xo'sh, nimaga erishadi? Hech narsaga! Chunki bu XDlar miqdoriga kechagina yongan yoki qulatilgan daraxt ham, shu bugun erni yorib chiqayotgan bo'lajak daraxt ham, bundan ming-ming yil avval mavjud bo'lgan XDlar ham va bundan ming-ming yillar keyin paydo bo'ladigan XDlar ham kirmagan. Bu mavjud bo'lgan va bo'ladigan daraxtlar miqdoriga nisbatan insoniyat ma'lum bir kunda sanagan daraxtlar miqdorini er yuzidagi suv miqdori va bir tomchi suv bilan qiyoslash mumkin. Bundan minglab yillar oldin bo'lgan daraxtlar ham XDlar bo'lgan va bundan keyin bo'ladiganlari ham XD bo'ladi. Shuning uchun xususiyliklar behisobdir.

Moddiy ko'rinishga ega bo'lgan har bir narsa, har bir qalam, har bir olma, har bir choynak, har bir daftar, har bir qovun haqida XD to'g'risida aytilgan xulosalarni aytish mumkin. Lekin xususiylikning moddiyligi ham bir xil bo'lavermaydi. Masalan, qizil rang xususiyligini olaylik. Uning moddiyligi shundaki, u ko'zga tashlanib turadi va boshqa ranglardan ajralib turadi. Bo'zdagi, shoxidagi, mevadagi, gulbargdagi... qizil rang xususiylik sifatida o'zi xos bo'lgan xususiylik bilan birga yashaydi, shu xususiyliklardan tashqarida mavjud bo'lolmaydi. Ammo, shunga qaramay, har bir biz ko'radigan rang, sezadigan hid va maza ham xususiylikdir. Chunki ular moddiy takrorlanmas va alohida xususiyliklar tarkibidagina bo'ladi, ulardan ajralgan holda mavjud bo'lolmaydi.

Xususiylikning yana bir ko'rinishi turli xil hatti-harakatlar, voqea-hodisalardir. Bir ashulani san'atkor ikki marta aytar ekan, bu bir emas, ikki xususiylikdir. Yoki bir matnni bir kotib ikki marta ko'chirar ekan, bu jarayon ikki xususiy harakatdir, chunki turli zamonlarda sodir bo'ladi.

“*Men kitob o'qiyapman*” gapini men ikki marta takrorlasam, ikki xususiylik voqelangan bo'ladi. Bu gaplar birin-ketin takrorlangan bo'lsa ham, ularning biri ikkinchisidan, hech bo'lmaganda, zamonda farq qiladi.

Demak, xususiylik – bu biz sezgi uzvlarimiz bilan seziladigan borliq – narsa, belgi, voqea-hodisalardir. Bizning sezgi uzvlarimizning imkoniyatlari cheklangan, shuning uchun biz sezgi organlarimizni asbob-uskunalar bilan kuchaytiramiz. Masalan, oddiy, qurollanmagan ko'z bilan biz osmonda olti mingga yaqin yulduzni ko'ra olsak, kuchli billurli teleskopda bir necha yuz ming, radioteleskopda esa bir necha milliard yulduzni ko'ra olamiz. Teleskoplar yoki mikroskoplar sezgi uzvlarini kuchaytiruvchi vositalardir. Insoniyat ko'rish, sezish, ta'm bilish a'zolari imkoniyatlarini minglab uskunalar asosida minglab marta kuchaytirgan. Biroq eng kuchli asbob ham xususiylikdan boshqa narsani ko'rsatolmaydi. Xususiyliklar nihoyatda cheksiz katta yoki o'ta kichik bo'lishi mumkin. Er sharining o'zi quyosh sistemasida bir xususiylikdir. Shuningdek, galaktikamizning o'zi ham nihoyatda ulkan xususiylikdan boshqa narsa emas. Suvning har bir molekulasida mavjud bo'lgan kislorod atomi ham alohida xususiylik. Xususiyliklarning har biri alohidalik bo'lganligi uchun rang-barangdir. Ularning miqdori va turi aqlga sig'maydi.

Umumiylik nima?

Bog'imizda yuz tup daraxt bor. Bu daraxtlarning har biri alohida va nisbatan mustaqil, takrorlanmas XD ekanligini bilamiz. Lekin biz hech qiyinchiliksiz: “*Bog'imizdagi daraxtlar bu yil yaxshi hosil berdi*”, – deb yuz tup XDni daraxtlar so'zida mujassamlashtiramiz, umumlashtiramiz. Uch-to'rt yashar bolaga istagan turdagi, tanasidan shoxlanib, barg va hosil beradigan katta o'simlikni ko'rsatib, “Bu nima?”, – desangiz, adashmay: “Daraxt”, – deb javob beradi. U olmami, akastiyami, chinormi, baribir, daraxt. Notanish yurtga borib, tanasidan shoxlanib, barg va meva beradigan notanish o'simlikni ko'riboq, siz daraxt ekanligini bilasiz. Albatta, Siz uning yoshini, gullash davrini, taxminiy yashash yilini va boshqalarni bilmasligingiz mumkin, lekin daraxt ekanligiga shubha qilmaysiz. Chunki u Siz biladigan daraxtlarga o'xshash, monanddir. Qaysi asosda Siz bog'ingizdagi alohida XDni, yoki notanish o'lkadagi o'zingiz tanimagan o'simlikni “*daraxt*” so'zi bilan umumlashtira oldingiz? Bunga javob berish qiyin emas: Siz ko'rgan va tanigan minglab XDlardagi umumiyliklar, o'xshashlik va xususiyatlar asosida.

Sizga tanish bo'lgan barcha XD larning umumiy xususiyatlari shundan iboratki, ular

o'simlik, ya'ni erga ildiz qo'yib o'sadigan narsa bo'lib, mustahkam tanaga egadir. Bu tanadan shoxlar, shoxlardan butoqlar o'sib chiqadi va shox-butoqlar barg, gul va mevalarni o'zida saqlaydi. Shunday umumiy xususiyatga ega bo'lgan har bir predmet – daraxt. Lekin bevosita kuzatishda berilgan XD emas, balki ongda, miyada, xayolda mavjud bo'lgan umumiy daraxt UDning tarxi, ramzi, timsoli, obrazidir. UD bevosita kuzatishda berilmagan. U bizning ongimizda yashaydi. UD nihoyatda sodda: tanasidan shoxlanadigan yirik o'simlik. UDni ta'riflash uchun shuning o'zi etarli. UD bizning ongimizda mana shu belgisi bilan yashaydi va shu belgi-xususiyatga ega bo'lgan behisob XDLarni bitta UDga umumlashtirishga imkon beradi. Shuning uchun umumiylik nima deganda, biz ayta olamizki, umumiylik bevosita kuzatishda berilgan alohida xususiyliklardagi yorqin va o'zaro bog'langan o'xshash belgi-xususiyatlarning ongimizdagi, tafakkurimizdagi yaxlit tarxi (rejasi), ramzidir. Barcha XDLardagi yaqin, o'xshash belgilar ularning barchasining o'simliklar dunyosiga mansubligi, mustahkam tanaga, tanadan o'sib chiquvchi shoxlarga ega ekanligidir. Umumiylikdagi belgilar, xususiyatlar, albatta, o'zaro bog'liq bo'lishi va bir butunlikni tashkil etishi kerak.<sup>1</sup>

Biz buni – umumiylikda belgilarning o'zaro bog'lanib, yaxlitlikni hosil qilishini bolalar bilan turli tajriba o'tkazib aniqlay olamiz. Uch-to'rt yashar boladan daraxt rasmini chizishni iltimos qilsak, u tana, shox, barg va hosilni chizadi, xolos. Undan: “Sen chizgan daraxt mana shu daraxtmi?” – deb so'rasangiz: “Yo'q!” – deydi. Bola o'zi chizgan rasm daraxtning umumiy ramzi ekanligini aytolmaydi, shu bilan birga uni alohida bir daraxt bilan tenglashtirmaydi. Umumiyliklar xususiyliklardagi juz'iy, mayda-chuyda belgilarni o'z ichiga olmaydi. U yorqin xususiyatlarnigina qamrab oladi, shuning uchun umumiyliklarni ilg'ay olish qobiliyati insonda juda erta, fikrni bayon eta olish ko'nikmasidan avvalroq shakllana boshlaydi va mana shu umumiyliklarning ongda shakllana boshlashi so'z ehtiyojini tug'diradi. Umumiylik juz'iyliklardan holi bo'lganligi, ongimizda, miyamizda, tafakkurimizda ramz sifatida mavjudligi uchun umumiyliklarda aks ettirilgan xususiyatlarga ega bo'lgan cheksiz miqdordagi xususiyliklarni birlashtiradi, umumlashtira oladi. Xususiylikka moddiylik, alohidalik va behisoblik xos bo'lsa, umumiylikka xos sifatlar quyidagilardir:

I. Ongda tarx, ramz sifatida mavjudligi va bevosita kuzatishda berilmaganligi.

II. Cheklanmagan miqdorda xususiyliklarda takrorlanib turishi, makon va zamondan nisbatan holi bo'lishi.

III. Umumiyliklarning nisbatan chegaralanganligi.

Umumiylikning bu xususiyatlarini sharhlaymiz. Umumiylik moddiylikdan holi. Uni ko'rish, sezish, o'lchash, tasvirlash imkoni yo'q. U faqat tafakkur va taxayyul etiladi.

---

<sup>1</sup> Ильенков Э.В. Проблема всеобщего в диалектике // Диалектическая логика. -М.: Изд.политической литературы, 1984. -С.273-274.

Umumiylik moddiylikka ega bo'lmasa-da, moddiylik haqida tasavvur uning tarkibida mavjuddir. Chunonchi, umumiy daraxtda yog'och, po'stloq, shox, barg moddalari, turlari, ko'rinishlari, ko'lamlari mavjud emas, lekin unda UDning tarkibiy qismi bo'lgan tana, shox, barg va hosillarning muayyan moddalardan iborat bo'lishi haqida tasavvur mujassamlangandir.

Chunonchi, “*qalam*” desak, bu umumiyatda yog'och qoplamaga ega bo'lgan, 8-25 sm. uzunlikdagi, o'rtasiga grafit (qoratosh) o'rnatilgan yozuv quroli nazarda tutiladi. Boshqacha qilib aytganda, “*qalam*” umumiyliigi – bu yo'nib, ichidagi qoratoshini chiqarib yozish, chizishga mo'ljallangan qurol. Bu umumiylikda na qalamning rangi, na yog'ochining, na toshining qattiq-yumshoqligi aks etgan, lekin qalam umumiyligida shu moddiyliklar mavjudligining shartligi yashiringandir. Shuning uchun umumiylikni moddiylikdan tamoman soqit etilgan deb bo'lmaydi. Ya'ni, u – mohiyat go'yo uzoqdek, mavhumdek tuyulsa-da, aslida bo'yin tomiridan ham yaqinroqdir.

Moddiylik haqida tasavvur umumiylikning zamirida va uning bir butunligini ta'minlovchi omildir.

Umumiylikning ikkinchi xususiyati shundaki, umumiylik ong hamda tafakkurdagi ruhiy bir hodisa bo'lganligi sababli u xususiyliklarda voqelanadi. Xususiyliklar behisob bo'lganligi sababli umumiylik zarrasi har bir xususiylikda takrorlanib turadi. Bir qarashda umumiylik xususiylikdan yo'qolgandek tuyuladi. Zohiran bu shunday. Chunonchi, umumiy daraxt ta'rifi bilan xususiy bir daraxt tavsifini qiyoslaylik:

*Daraxt – tanasidan shoxlanuvchi yirik o'simlik.*

*Bog'imizdagi olti yoshli shu sermeva gilosning mana shu shoxiga olchani payvand qildik.*

Bu ikki misoldagi birinchi ta'rif mukammal va to'liqdir. UDga tanasidan shoxlanuvchi yirik o'simlikdan boshqa ta'rif berolmaymiz va istagan qo'shimcha aniqlovchilar ta'rifni buzadi.

Lekin “*Bog'imizdagi olti yoshli shu sermeva gilos*” xususiyliigi tavsifida UD ta'rifi yo'q va bo'lishi ham mumkin emas. Umumiylik-xususiylik dialektikasining hammani hayratga soluvchi xususiyati ham xuddi ana shunda.

Butun tasavvuf falsafasi, jumladan, “Lisonut tayr” munozaralari mana shu umumiylik va xususiylik, juz' va kull atrofida bahs yuritadi.<sup>1</sup> Shuning uchun qushlar (xususiyliklar) shohdan (Simurg` – umumiylikdan) tamoman uzilgandek ko'rinadilar. Lekin orif – Hudhud ularga tushuntirib aytadi:

Siz tushub ul shohdin behad baid,

---

<sup>1</sup> Масалан, қаранг: Сўфи Оллоёр. Сабот ул-ојизин. -Тошкент: Мехнат, 1991. -Б. 81. Навоий Алишер. Лисонут тайр. - Тошкент, 1991. Суфизм в контексте мусульманской культуры. -М.: Наука, 1989.

Ul yoqinroq sizga min hablul varid.<sup>1</sup>

Xuddi shunga o'xshash "Bog'imizdagi olti yoshli shu sermeva gilos" tavsifida "tanasidan shoxlanuvchi o'simlik" ta'rifi (ya'ni xususiylik tavsifida umumiylik ta'rifi) yo'q. Lekin bu zohiran shunday, mohiyatan esa UD ta'rifi gilosning o'z ichidadir. Gilos bo'lishi uchun, avvalo, daraxt – tanasidan shoxlanuvchi yirik o'simlik bo'lishi kerak. Lekin bu umumiylik xususiylikning mohiyatini belgilab turib, unda singib ketadi. Chunki umumiylik xususiyliklarda voqelanar ekan, xususiyliklar umumiylikning muayyan bir turi, muayyan bir xili, muayyan bir navining muayyan bir zamon va makonda, muayyan bir moddiy shaklda voqelangan ko'rinishlari bo'lganligi sababli ularda bunday muayyanliklar shunchalik ko'pki, ular o'ta muayyanni – mohiyatni, umumiylikni to'sib qo'yadi. Shuning uchun umumiylik muayyan shakllarda, muayyan ko'rinishlarda, behisob xususiyliklarda behisob ko'p marta takrorlanib turganligiga qaramay, hech qachon to'liq, tugal voqelanishi mumkin emas.

Xususiyliklarning xil va turlari ko'paya borgan sari umumiyliklarning voqelanishi kengayib boradi. Shuning uchun xususiylik qancha betakror bo'lsa, umumiylik shuncha takrorlanuvchidir.

Umumiyliklarning uchinchi xususiyati shundaki, ular nisbatan miqdoran chegaralangandir. Chunonchi, er yuzidagi o'simliklarning xususiy ko'rinishlarini sanab sanog'iga etolmaymiz. Sanashning foydasi ham yo'q. Chunki bugun yulingan maysa o'rnidan ertaga yangisi unib chiqadi. Lekin o'simlik dunyosining umumiyliklari o'ta chegaralangan. O'simlik dunyosi asosan uch umumiylikda birlashadi: daraxt, buta, o't.

Bu uch umumiylikning doirasi shunday kengki, nafaqat er yuzi, balki suv olamini ham o'z ichiga oladi.

Yana, masalan, inson umumiyligi ham shu darajada keng ko'lamligi, maxluqotning bir turi, sohibi nutqlarning barchasini qamrab oladi va uni quyi umumiyliklarga ajratish ahamiyatsizdir. Umumiylikning xususiyliklarda voqelanishida, yuqorida ko'rib o'tganimizdek, cheksiz miqdorda oraliq umumiylikchalar bo'lishi mumkin. Masalan, UD – XD oralig'ida mevali daraxtlar – mevasiz daraxtlar, yassi bargli – nina bargli, danak mevali – urug' mevali va hokazo oraliq umumiyliklar bo'lishi mumkin. Lekin bu umumiyliklar ahamiyatli emas.

Xuddi shuningdek, inson – yakka shaxs oralig'ida jinsiga, irqiga, diniga, yoshiga, ijtimoiy ahvoliga ko'ra minglab tabaqalanish, oraliq umumiyliklar borki, ular umumiylik-xususiylik munosabatlarini o'rganishda ahamiyatsizdir va alohida shaxsning tavsifiga aloqador, mohiyatiga emas.

---

<sup>1</sup> Навоий Алишер. Лисонут тайр. -Тошкент, 1991. -Б.35.

Umumiylik-xususiylk munosabatlarini yakunlar ekanmiz, aytish joizki, umumiylik va xususiylk bir-biriga zid narsalar emas. Ularning bir-birini inkor qilishi dialektik nisbiydir: xususiylkdan moddiy, shakliy, davriy, makoniy muayyanlik chetlashtirilsa, u umumiylikka aylanadi va aksincha, umumiylikning moddiy, shakliy, davriy, makoniy voqelanishi xususiylkdir.

INSONning haqqa etishi bilan aloqador bo'lgan tasavvuf falsafasining butun mohiyati mana shu. Inson nafsdan ozod qilinsa, haqqa etadi. Haqning nafs qobig`ida voqelangan zarrasi insondir. Shuning uchun o'zni bilish, o'zni tanish tasavvufda haqni tanish demakdir. Tasavvufning bu asosiy omili "man 'arafa nafsani xuva 'arafa rabbihu" – "kim o'zini tanisa, egasini ham taniydi" hadisi sharifiga tayanadi.<sup>1</sup> O'zni bilish o'zdagi, o'zlikdagi nafsni – xususiylk qobig`ini va haqni – mohiyatni, umumiylikni ajrata olish demakdir.

## 2-§. UMUMIYLIK-XUSUSIYLIK DIALEKTIKASINING TILDAGI TAJALLISI

Har qanday fan tatbiq qilingan mantiqdir.

Gegel (Mantiq fani)

Umumiylik-xususiylk dialektikasi butun dialektikaning, ya'ni butun borlik – tabiat va jamiyatning asosiy munosabat qonunlaridan biri bo'lganligi sababli jamiyatning tarkibiy qismlaridan biri bo'lgan va insonning asosiy sifatlaridan bo'lmish tilda ham tajallilanadi, ya'ni voqelanadi, yuzaga chiqadi.

Jonli mushohadada, bevosita kuzatishda faqat xususiylklar berilgan. Xususiylklar esa, ko'rib o'tganimizdek, umumiylikni to'sib qo'yadi. Tilshunoslikda lisoniy umumiylik va xususiylklarni farq qilishga intilish shu fan paydo bo'lgan kundan boshlab mavjud, zero istagan fanning asosiy vazifasi xususiylklardagi umumiyliklarni topishdir. Tilshunoslik fanini dialektik nuqtai nazardan tasnif etish tarixida birinchi bosqich tildagi umumiylik va xususiylkni bir-biridan farqlamay tavsif etish bosqichidir.

Bu bosqichni "nutq-lison" tahlili bosqichi deb atasak bo'ladi.

Tilshunoslikda tildagi umumiyliklarni alohida bir sistema, bir tizim sifatida va bu umumiyliklarning voqelanishini alohida bir tizim sifatida ongli ravishda o'rganish Shveystariyalik tilshunos

F. de Sossyur, uning ta'limoti bilan aloqador bo'lgan tilshunoslik oqimlari bilan bog`liq.

---

<sup>1</sup> Навоий Алишер. Лисонут тайр. -Тошкент, 1991. -Б.237 (427). Ильенков Э.В. Проблема всеобщего в диалектике // Диалектическая логика. - М.: Изд. политической литературы, 1984. -С.273-274.

Sistemaviy yoki struktur tilshunoslik nomi ostida birlashadigan bunday o'nlab maktab va oqimlardagi umumiylik shundaki, ular, Sossyur iborasi bilan aytganda, langue va parole ni farqlaydi. Rus tilshunosligida ularning birinchisi "язык" so'zi bilan tarjima etilgani uchun o'zbek tilshunosligida ham bu tushuncha "til" atamasi bilan berib kelingan.<sup>1</sup>

"Til" atamasi behad ko'p ma'noli bo'lganligi qator noqulayliklar tug'diradi. Shuning uchun ayrim tilshunoslar bu o'rinda "lison" atamasidan foydalanishni taklif etadilar. Bu ancha qulay atama bo'lib, keyingi paytda tilshunoslar bundan keng foydalanmoqdalar va biz ham shu yo'ldan boramiz. Shuning uchun lisonni biz tildagi umumiyliklar tizimi deb tushunamiz. Bu umumiyliklar tizimining tajallisi, voqelanishi esa nutqdir. Shunday qilib, til lison va nutqni birlashtiruvchi umumiy atama bo'ladi.

Lison tilning umumiyliklar, nutq esa xususiyliliklar tizimi ekan, "Umumiylik va xususiylilik dialektikasining tildagi tajallisi nima?" degan savolga ixcham va lo'nda qilib: "Tilda lisonni va nutqni farqlash", – deb javob berish mumkin.

Shuning uchun tilshunoslik tarixining mazkur nuqtai nazardan tasnifida ikkinchi bosqichni "til = lison + nutq" yoki "nutq – lison" bosqichi deb atash mumkin. "Nutq – lison" bosqichida "Tilda umumiyliklar nima va xususiyliliklar nima, nimalardan iborat", degan savol tug'ilishi tabiiy. Mana shu savol muhokamasiga o'tamiz.

Xususiyliklarning belgisi ularning zohiriyiligi, ya'ni bevosita kuzatishda berilganligidir. Til hodisalaridan biz bevosita ko'ra oladigan, eshita oladiganlari xususiyliklardir. Masalan, "Men Arslonbobda dam oldim" gapini olsak. Bu gapda bevosita kuzatishda berilgan narsalar nimalar? Bu savolga javob berish uchun, avvalo, farqlash lozimki, biz bu gapni talaffuz etib eshityapmizmi, yoki yozilgan gapni o'qiyapmizmi?

Talaffuz qilib eshitayotgan bo'lsak, bu gap og'zaki nutq birligi bo'ladi, yozgan bo'lib o'qiyotgan bo'lsak, yozma nutq birligi bo'ladi. Bundan biz birinchi xulosa chiqara olamiz: tilda xususiyliklarni farqlash uchun, eng avvalo, ularning yozma nutqmi, og'zaki nutqmi ekanligini farqlash lozim.

Yozma va og'zaki nutq birliklari tilda bevosita kuzatishda berilgan narsalardir – xususiyliklardir. Bundan biz xulosa qila olamizki, nutqda bevosita kuzatishda nimaiki berilgan bo'lsa, bu tilshunos uchun xususiyligidir.

Mazkur gapda bevosita kuzatishda nima berilgan? Quyidagi birinchi jadvalga e'tibor bering:

---

<sup>1</sup> Неъматов Х., Бозоров О. Тил ва нутқ. -Тошкент: Ўқитувчи, 1993.

№	Og`zaki nutq	Yozma nutq
1.	Tovushlar va ularning aytilishi	Harflar va ularning yozilishi
2.	Men, Arslonbob, dam olmoq	Men, Arslonbob, dam olmoq
3.	-da, -dim	-da, -dim
4.	Arslonbobda dam oldim	Arslonbobda dam oldim
5.	Men dam oldim	Men dam oldim
6.	Tugallangan darak ohangi	Nuqta

Lekin “*Men Arslonbobda dam oldim*” gapidagi xususiyliklar birinchi jadvaldagilar bilan cheklanmaydi. Jadvalda aks ettirilgan soʻz, qoʻshimcha, soʻz birikmalari va gapning zohiriy shakllaridan tashqari har bir soʻz, qoʻshimcha va gapning shu gap tarkibida voqelanuvchi va ongimiz tomonidan qabul qilinuvchi maʼnoviy tomonlari ham borki, ular mana shu nutqiy birliklarning ichki tomonini tashkil qiladi. Buni quyidagi jadvalda koʻrish mumkin:

№	Shakllar	Maʼnosi
1.	Men	muayyan soʻzlovchi, muallifga ishora
2.	Arslonbob	muayyan bir qishloq nomi
3.	dam olmoq	har xil ish va unumli faoliyatlardan holi boʻlgan holda kelgusi faoliyat uchun kuch yigʻmoq
4.	-da	Arslonbob soʻziga birikib, dam olmoq harakatining sodir boʻlish oʻrnini koʻrsatadi
5.	-dim	dam olmoq harakatining tasdiq maʼnosi bilan oʻtgan zamonda sodir boʻlganligi va uning soʻzlovchi-muallifga mansubligi
6.	Arslonbobda dam oldim	maʼlum harakatning muayyan joyda sodir boʻlayotganligi
7.	Men dam oldim	soʻzlovchi (muallif)ning muayyan harakat-holati haqida hukm

Mana shu birinchi va ikkinchi jadvalda koʻrsatilgan narsalar til va tilshunos uchun xususiyliklar, yaʼni nutq birliklaridir, chunki ularning barchasi bevosita kuzatishda berilgan. Lekin bunday xususiyliklar umuman xususiyliklar kabi takrorlanmas, moddiy va behisobdir. Chunki men qoʻllagan “*Men Arslonbobda dam oldim*” gapi bilan boshqa birov qoʻllagan “*Men Arslonbobda dam oldim*” gapining nutqiy qiymati tamoman oʻzgachadir. “*Men*” soʻzining har xil gaplarda har xil shaxslarga ishora qilishi buning yorqin misolidir. Shunga oʻxshash har bir soʻz ham har bir qoʻllanishida oʻz xususiy maʼnosiga ega, hatto atoqli otlar ham. Masalan, Arslonbob qishloq nomi ham, shu qishloqda joylashgan dam olish uyi nomi ham... boʻlishi

mumkin;

-da qo'shimchasi esa turli xil gaplarda turli muayyan ma'nolar kasb etishi mumkin: *Men mashina \_da . keldim. Kitob javon \_da .. Xat qalam \_da yozilgan edi* kabi uch xususiy gapda -da qo'shimchasi uch muayyan ma'noda qo'llangan: birinchisida vosita ma'nosi, ikkinchisida o'rin ma'nosi, uchinchisida qurol ma'nosi yuzaga chiqqan.

Shu tufayli nutqiy xususiylklarning shakl va ma'nolarini sanashga intilish, birinchi paragrafda ko'rganimizdek, er yuzidagi daraxtlarni sanash kabi befoйда va bajarib bo'lmaydigan mashg'ulotdir. Barcha xususiylklar kabi til xususiylklari – nutq birliklari ham behisob va son-sanoqsizdir, mana shu xususiylklar tilda nutq birliklari tizimini tashkil etadi. Bularni nutq tizimi deyishimizga sabab shuki, nutq birliklari o'zaro birikib alohida muayyan butunliklarni tashkil etadi va ularning tarkibiy qismlari bir-biri bilan uzviy bog'langan bo'ladi. Hozirgi zamon lingvistikasida tekstshunoslik degan maxsus soha shakllanmoqdaki, unda aynan mana shu nutqiy birliklarning o'zaro bog'lanishlari o'rganiladi.<sup>1</sup>

Lekin son-sanoqsiz xususiylklar orqasida va bu xususiy liklarning zamirida nihoyatda chegaralangan, millionlab xususiylklarda takrorlanib, ularning mag`zini, mohiyatini tashkil etib, ularga singib ketgan umumiyliklar turadi. Tilda bu umumiyliklar nimalardan iborat?

Masalan, biz qarg`a, g`arg`ara kabi so'zlarda o'ta qattiq (orqa qator), lablanmagan va keng "a" tovushini talaffuz etamiz. Albatta, qarg`a va g`arg`ara so'zlarida talaffuz etilgan beshta "a" ning har biri bir alohidalik, bir xususiylkdir. Chunonchi, bu tovushlarning cho'ziq-qisqaligi bir xil emas. qarg`a so'zidagi ikkinchi "a" birinchi "a" dan sal cho'ziq va kengroq. "g`arg`ara" so'zidagi "a" larning cho'ziqlik va kenglik darajasi ham har xil, miqdoriy ko'rsatkichlar bilan belgilasak –  $a < a < a$ .

Lekin bunday juz'iy farqlarga qaramay, bu tovushlar lablanmaganlik, kenglik va qattqlik jihatlaridan o'xshashdir.

Taxt, baxt, taxta, yaxna, **taxsin** kabi so'zlarda "a" tovushida qattqlik ancha kamaygan. Lablanmaganlik va kenglik saqlangan. Mart, mast, past, parta kabi so'zlarda "a" tovushi lablanmaganlik va kenglik belgilarini saqlaydi, lekin bu so'zlardagi tovushlar qattiq-yumshoqlik jihatidan mo'tadil.

Katak, yaktak, yakka, kam, sal-pal, chala, kalla kabi so'zlarda qo'llangan "a" ancha yumshoq, ingichka ("e" ga moyil) talaffuz etiladi. Cho'ziq-qisqaligi har xil. Lekin bu so'zlardagi "a" larda ham kenglik, lablanmaganlik belgilari saqlanadi. O'z-o'zidan savol tug'iladi: "Yuqorida qayd qilingan o'ttizta tovushda umumiylik nimadan iborat?" Buni aytish qiyin emas: "Lablanmaganlik, kenglik". Mana shu [lablanmaganlik + kenglik] umumiylik shu

---

<sup>1</sup> Тухсанов М. Микротекст и система средств его когерентности в современной узбекской художественной речи: Автореф. дис... канд. филол. наук. -Тошкент, 1987.

o'ttizta "a" ning umumiyligidir.<sup>1</sup>

Tovush umumiyliklari maxsus atama – fonema atamasi bilan yuritiladi. Fonemalar tildagi umumiyliklarning bir turidir.

Morfemalar – bu nutqdagi rang-barang ko'rinish va ma'nolarda qo'llanilgan, ma'no va vazifa jihatdan bir-biriga juda yaqin bo'lgan, umumiylikka ega bo'lgan so'z yasovchi va so'z o'zgartuvchi qo'shimchalarning emik shaklidir – tarxidir.

Chunonchi, keldi, ketdi, oldi kabi cheksiz miqdordagi fe'llarda *-di* qo'shimchasi uchrab, turli xil-turli xil fonetik ko'rinishlar va ma'no xususiyatlariga ega bo'ladi. Lekin bu ko'rinishlarni va ma'nolarni ham solishtirsak, ularning o'zaro yaqinligini va ma'lum bir umumiylik hosil bo'lganini ko'ramiz. Bu umumiylik moddiy va ma'no tomonlarining tasavvuriy birikishidan iborat bo'ladi. Ayni umumiylikda moddiy tasavvur – til-tish portlovchisidan keyin tor unlining kelishi va ma'noviy tasavvur – harakat-holatning o'tgan zamonga mansubligini ifodalashdan iborat. Biz buni shartli ravishda [*-di*] morfemasida umumlashtiramiz. Bu umumiylik (*-do'*), (*-di*), (*-du*), (*-to'*), (*-ti*), (*-tu*), (*-d'*), (*-t'*), (*-t*), (*-d*) ... fonetik ko'rinishlarida va xilma-xil ma'nolarda voqelanadi. Morfemalarning moddiy ko'rinishlari bir-biridan keskin farq qilishi va umuman o'xshamasligi mumkin. Bunday hollarda morfem umumiylikni belgilashda morfemaning ma'nosi, vazifasi muhim ahamiyat kasb etadi. Masalan, orttirma nisbat morfemasining ma'no va vazifasi quyidagilardan iborat:

1. O'timli fe'llarga qo'shilib, harakat foilining mavqeini pasaytirib, yoki cheklab gapning egasi mavqeiga sababchi – kauzatorni qo'yish: *Men ukamga kir yuvdirdim – Men ukamni kir yuvishga majbur qildim* (undadim, qo'zg`adim...).

2. O'timsiz fe'llarga qo'shilib ularni o'timliga aylantirish: *kel – keltir, yur – yurgiz...*

Mana shu ma'no va vazifalar o'zbek nutqida yigirmadan ortiq qo'shimchalarni yuzdan ortiq fonetik variantlari bilan birlashtiradi. (*-t*), (*-it*), (*-tir*), (*-dir*), (*-sat*), (*-ir*), (*-iz*), (*-giz*), (*-g`az*), (*-kaz*), (*-q*), (*-iq*) ... kabi qo'shimchalar shular jumlasidandir. Qo'shimchalarning moddiy shakllari qanchalik rang-barang bo'lmasin, ularning barchasi o'zbek lisonidagi bitta morfema – orttirma nisbat morfemasining nutqiy ko'rinishidir.

Shuning uchun morfemaning lisoniy mohiyatini belgilashda morfemaning moddiy ko'rinishi haqidagi tasavvurdan ko'ra uning ma'no va vazifaviy mohiyati ko'proq ahamiyatlidir. Shuning uchun ma'no va vazifa jihatdan bir xil bo'lgan morfemaning nutqiy-moddiy shakllari mutloq o'xshash bo'lmasligi mumkin. Masalan, (*-t*) va (*-kaz*). Aksincha, shaklan bir xil morfemalar ma'no va vazifa jihatidan tubdan farq qilsa, turli morfemalar sanaladi:

#### I. ter + im

---

<sup>1</sup> Bundan keyin [ ] – til birliklari uchun, ( ) – nutq birliklari uchun qo'llaniladi.

bil + im  
qirq + im  
II. kitob + im  
uy + im  
baxt + im

I qatorda (-im) soʻz yasovchi boʻlsa, II qatorda (-im) shakl yasovchidir. Morfemalarning nutqiy-moddiy koʻrinishlari oʻxshash boʻlsa-da, maʼno va vazifa jihatdan bu morfemalar tamoman oʻzgachadir. Shuning uchun ular oʻzga-oʻzga morfemalar voqelanishi, omonimlar sifatida qaralishi lozim.

Morfemalar soni tilda sanoqli va ularni sanash imkoni mavjud. Masalan, oʻzbek tilida nisbat morfemalari atigi beshta: orttirma, oʻzlik, majhullik, birgalik, aniqlik nisbat morfemalari.


Nutqda esa nisbat koʻrsatkichlarining moddiy koʻrinishlari deyarli cheklanmagan. Oʻzbek tilidagi morfemalarning soni yuztaga ham bormaydi.

Morfemalar umumlashgan (kategorial) maʼnolarni va vazifalarni ifodalashga ixtisoslashgan lisoniy birliklardir. Ularning yakka oʻzi nutqda voqelana olmaydi. Morfemalar, albatta, boshqa sath birligi – leksemalar bilan birikib keladi. Shuning uchun morfemalar bir tomondan, fonemalar bilan aloqador (moddiy tomoni fonemalar haqidagi tasavvurdan iborat), ikkinchi tomondan ular navbatdagi sath birligi – leksemalar bilan aloqadordir, ular bilan birikib keladi.

Tildagi umumiyliklarning boshqa bir turi leksemalardir.

Leksema – bu obʼektiv borliqda narsa, buyum, voqea-hodisa, belgi, xususiyat, miqdor-munosabat va harakat kabi muayyan yoki mavhum bevosita referenti (denotati, atalmishi)ga ega boʻlgan moddiy va maʼnoviy butunlikdir.

Leksemaning shakli fonemalar tizimi haqidagi tasavvurdan iborat boʻlsa, uning maʼnoviy tomoni maʼlum bir qiymatga, mazmunga ega boʻlishidir. Leksemaning mazmun tomoni bevosita borliqdagi haqiqiy yoki xayoliy mavjudliklar haqidagi tushunchalar bilan bogʻliqdir. Shuning uchun leksema mohiyatini quyidagi toʻrtburchak orqali berish mumkin<sup>1</sup>:



To'rtburchakdagi o'qlarning yo'nalish tartibi behad muhimdir. Chunki ko'pgina holatlarda, ayniqsa, lug'atchilikda so'z ma'nosini izohlash o'rnida ko'pincha denotat (atalmish)ni sharhlaydilar. Atalmish va tushuncha ekstralingvistik hodisalardir.

Masalan, haqiqatdan ham o'zbek tilida "gul" leksemi bog'larda ... o'sadigan nozik, go'zal bir o'simlikni atashga xizmat qiladi. Lekin "gul" so'zining ma'nosi bilan bu o'simlikni tenglashtirish mumkin emas. Chunki "gul" so'zida o'simlikning ma'lum bir tarkibiy qismi ma'nosidan tashqari go'zallik, noziklik, saralanganlik, tozalik kabi nozik ma'nolar mavjudki, bular atalmishga bevosita aloqador emas.

Shuning uchun "gul" so'zining ma'nosi atalmishning o'zi hamda atalmish haqidagi tushunchadan tubdan farq qiladi.

Leksema har qanday umumiylik kabi biz uchun tayyor va yasalmagandir. Shuning uchun "o'qituvchi", "ishchi", "meniki", "otamdek", "do'ppili" kabi birliklar leksema bo'la olmaydi. Chunki bular hosilalardir. Masalan, *do'ppili – do'ppi+liq – do'ppisi bor, do'ppiga ega.*

Agar hosila ma'no yo'qolib, hosila yaxlitlansa (*Do'ppili cho'qqisi*), hosila leksemaga aylanadi.

Nutqiy yasama so'zlarning lisoniy leksemalarga aylanishi til lug'at boyligi ortib borishining eng asosiy yo'llaridan biridir. Leksema nutqda so'z, so'zshakl sifatida voqelanadi.

Biz yuqorida yasama so'zlar haqida gapirdik, ular biz uchun tayyor va umumiy emas. Masalan, *do'ppili (odam)*. Bu nutqiy hosilalar xususiylik sifatida qanday umumiylikning voqelanishi?

Shaharga, sevaman, kitoblar, o'qidim, keling kabi so'zshakllari, do'ppili, o'qituvchi, ishchi, jonlan kabi yasama so'zlar, tosh ko'prik, yog'och qoshiq, tez yur kabi so'z birikmalari va shunga o'xshash boshqa nutqiy birliklar lisoniy qoliplarning hosilalaridir.

Lisoniy qolip – bu mohiyatan tenglama bo'lib, uning chap tomoni qo'shiluvchi qismlardan, o'ng tomoni esa shu qo'shiluvchilarning yig'indisi (shartli + ravish)dan iboratdir: [fe'l + *-uvchi* = fe'l anglatgan ish-harakatni bajaruvchi]. Bu qolipning chap qismi ikki qo'shiluvchidan (fe'l, *-uvchi*) iborat. Birinchi qo'shuvchi atov leksema, ya'ni fe'l o'zak, qo'shiluvchi esa harakatni bajaruvchi shaxs ma'nosini mujassamlashtirgan *-uvchi* morfemasidir. Tenglama qolipning ikkala qismidagi umumiy harakat ma'nosi asosida yaxlitlanib bir hosilani beradi. Masalan, yuqoridagi qolipda

qo'shuvchi – fe'lda “ma'lum bir harakat” ma'nosi mavjud.<sup>1</sup>

Qo'shuvchi va qo'shiluvchidagi umumiy “harakat” ma'nosi asosida qolipning chap tomoni bir-biriga yopishadi va qolipning o'ng qismi hosil bo'ladi – “ma'lum bir harakatni bajaruvchi”.

*Do'ppili, do'ppisiz, go'zallik, qizillik* kabi so'zlar ham xuddi shu usul bilan hosil qilingan. Masalan, do'ppili hosilasi o'zbek lisonidagi [ot + -li + ot anglatgan predmetga egalik belgisi] qolipining hosilasidir. Bu qolipning qo'shuvchisida “narsa, buyum, voqea-hodisa nomi” ma'nosi, qo'shiluvchida esa “narsa, buyum, voqea-hodisaga egalik belgisi” ma'nolari mavjud. Qo'shuvchi va qo'shiluvchidagi umumiy “narsa, buyum...” ma'nosi asosida “do'ppi” va “-li” o'zaro qo'shilib, “*do'ppili*” hosilasini beradi.

Lisoniy qoliplar bamisoli tarozidir. Ikki pallasidan birortasida salgina o'zgarish sodir bo'lsa, muvozanat buziladi. Masalan, *uchuvchi* so'zini olib ko'raylik. (*Uchuvchi*) so'zining hosila sifatidagi ma'nosi “uchish harakatini bajaruvchi” va bu ma'no quyidagi misolda voqelangan: *Baland uchuvchi qushlarning ko'zi o'tkir bo'ladi. Moskvaga uchuvchilar bilet oling.* Bu gaplardagi (*uchuvchi*) so'zini quyidagi gaplardagi (*uchuvchi*) so'zi bilan qiyoslang: *Uchuvchi samolyotga o'tirdi. Mening akam – uchuvchi.* Bu gaplarda (*uchuvchi*) so'zi “uchish uskunasi boshqaruvchi shaxs, ma'lum bir kasb sohibi” ma'nosiga ega. (*Uchuvchi*) so'zining bu gaplardagi ma'nosini qolipdagi “uchish harakatini bajaruvchi” ma'nosi bilan solishtirsak, katta farqni ko'rish qiyin emas. Demak, bu gaplardagi (*uchuvchi*) so'zining ma'nosi [fe'l + -uvchi + fe'l anglatgan harakatni bajaruvchi] qolipidan kelib chiqmaydi, tarozi pallalarida muvozanat buzilgan. Haqiqatan, (*uchuvchi – lyotchik*) so'zi yuqorida ko'rsatilgan qolipdan kelib chiqqan emas, balki “uchish harakatini bajaruvchi” hosila ma'nosining keyingi rivojlanishi, ixtisoslashishi, unda “shaxs” tushunchasining barqarorlashuvi natijasida, shaxsni kasb-kor jihatdan tavsiflovchi, ya'ni shaxsning muvaqqat emas, balki muntazam, barqaror belgisini ifodalovchi so'zlar guruhiga o'tganligi natijasidir.<sup>2</sup>

Hosilada ma'no muvozanati buzilib ixtisoslashsa, hosila tilning mustaqil leksemasiga aylanadi. Bu hukm nafaqat so'z yasash qoliplariga, balki so'z birikmalariga ham aloqadordir. Masalan: *Soyning ikki qirg'og'i tosh ko'prik bilan tutashtirilgan, shuning uchun bu qishloq Toshko'prik deb ataladi.*

Birinchi gapdagi (*tosh ko'prik*) so'z birikmasi [modda nomi + ma'lum moddalardan yasaladigan, quriladigan narsa nomi + sun'iy narsaning yasalish moddasi jihatidan belgisini ifodalovchi aniqlovchili birikma] qolipining hosilasidir. Ikkinchi gapdagi (*Toshko'prik*) shu birikma zaminida ixtisoslashish natijasida rivojlangan alohida lisoniy birlik – leksemaning

<sup>1</sup> Салоев Р. Ўзбек тилида исми фоиллар: филол. фанлари номзоди ... дис. - Самарқанд, 1994

<sup>2</sup> Салоев Р. Ўзбек тилида исми фоиллар: филол. фанлари номзоди ... дис. - Самарқанд, 1994.

nutqiy ko'rinishidir.

So'zshakllar ham ma'lum bir qolip asosida shakllanadi. Chunonchi, [ism (ot va otlashgan so'zlar) + jo'nalish kelishigi morfemasi + nomning jo'nalish kelishigi shakli]. O'zbek tilshunosligida lisoniy qoliplarni o'rganishga endigina kirishildi va bu sohada juda ko'p muammolar mavjud. Shuni bashorat qilish mumkinki, qolip tushunchasini olib kirish, lisoniy qoliplarni tahlil qilish, o'zbek tilida so'z yasash, so'z birikmalari hosil qilish, gaplar tuzish, ularning qurilishini tahlil etishning (ya'ni biz hozir ko'rib turgan, o'rganayotgan so'z yasalishi va sintaksisning) manzaralarini tamoman o'zgartiradi.

Shunday qilib, fikrimizni yakunlar ekanmiz, ayta olamizki, borliqdagi, tabiat, jamiyatdagi umumiylik-xususiylilik dialektikasi umumiy ko'rinishda tilda lison va nutqni, lisoniy va nutqiy birliklarni farqlashda namoyon bo'ladi. Lisoniy birliklar –fonemalar, morfemalar, leksemalar, qoliplar tabiatan umumiylik bo'lib, ular nutqiy hosilalar – tovushlar, harf, bo'g'in, qo'shimcha, so'z, so'z birikmasi, gap, matn xususiylıklarida voqelanadi va buni quyidagi jadvalda umumlashtirish mumkin:

B O R L I Q	
T I L	
L I S O N	----- N U T Q
F O N E M A	----- T O V U S h, H A R F, B O ' G ` I N
M O R F E M A	----- Q O ' S h I M C h A
L E K S E M A	----- S O ' Z
Q O L I P	----- Y a S A M A S O ' Z, S O ' Z B I R I K M A L A R I, G A P, M A T N

### 3-§. XUSUSIYLIK VA UMUMIYLIK LARNING TADQIQ USULLARI

Goho cheksizning chekliga qanday  
o'tishi masalasini falsafaning  
mohiyati deb hisoblaydilar ...  
Aslida esa bu masala ularning  
aloqadorligini aniqlashdan  
iborat bo'lib qoladi.

Xususiylik va umumiyliklarni tadqiq etish, o'rganish masalasi va usullari har bir fanning – falsafaning ham, fizikaning ham, tilshunoslikning ham eng muhim metodologik masalalaridandir. Chunki bu masala tadqiqotchining qanday tabiatdagi narsani, qay yo'sin bilan tadqiq qilish muammosini hal etishini, o'z tadqiq manbaini qanday tushunishi va unga qanday yondashishini uzil-kesil echishni talab qiladi. Shuning uchun tadqiq usuli yoki metodologiya olimning ko'zi va qurolidir. Qurolsiz askar qanchalik ojiz bo'lsa, aniq metodologiyaga ega bo'lmagan olim ham xuddi shunday qurolsiz askarga o'xshaydi. Uning qo'lidan eng og'ir, eng mashaqqattalab ishdan boshqa hech narsa kelmaydi. Falsafa xususiyliklarni alohida usul bilan, umumiyliklarni alohida yo'l va usul bilan o'rganish zaruriyatini ko'rsatadi. Xususiyliklarni o'rganish usuli haqida to'xtalamiz.

Dialektik falsafada xususiyliklarni mushohada, kuzatish, empiriya asosida, tasavvufda esa fahm (sezish, ko'rish, o'lchash...) asosida o'rganiladi, deb ko'rsatiladi. Xususiyliklar bevosita kuzatishda berilgan alohidaliklar bo'lgani uchun ular bizning sezgi uzvlarimizga ko'rish, sezish, o'lchash uchun bevosita berilgandir. Xususiyliklarni o'rganish tavsiflash deb ataladi va uning mohiyati xususiylikning alohida belgi-xususiyatlarini aniqlash, tasvirlashda namoyon bo'ladi. Xususiylikni biz parchalashimiz, kesishimiz, butun alohidalik sifatida, yaxlit, turli xil o'lchovlar bilan o'lchashimiz, tarkibini turli xil kimyoviy usullar bilan tekshirishimiz mumkin. Bunda biz sezgi organlarimizni kuchaytirish maqsadida oddiy billurdan boshlab, milliard-milliard marta kattalashtiruvchi teleskop va elektron tezlatkichlardan, rentgen va lazer nurlaridan ... foydalanishimiz mumkin. Natijalar qanchalik murakkab asboblarda yordamida qo'lga kiritilmasin, ularning hammasi xususiyliklarga aloqador mushohadaviy, fahmiy, empirik tavsiflar bo'ladi.

Xususiyliklarni tavsiflash fanda benihoya katta ahamiyatga ega. Xususiyliklar tavsifisiz birona fan rivojlana olmaydi. Boshqa fanlar qatori tilshunoslikda ham xususiyliklarning tavsifi zaruriydir. Aytib o'tganimizdek, tilda xususiyliklar, nutqiy hosilalar – tovushlar, harflar, bo'g'in, qo'shimcha, so'z, so'z birikmasi, gaplar turli jihatlardan tavsif etilishi mumkin.

Tovushlar tavsifini beruvchi fan fonetika deb ataladi. U butun mohiyati bilan fizikaning akustika, tovushlar haqidagi ta'limot bo'limining bir qismidir. Nutqiy tovushlar hosil bo'lish o'rni, usuli, tovushning tembri, cho'ziq-qisqaligi, yo'g'on-ingichkaligi kabi o'nlab jihatlari bilan fonetikada tavsiflanadi. Olimlar o'z sezgi organlari bilan (ko'z, quloq ...) kifoyalanmay, nutq tovushlarining tavsifi uchun aniq ma'lumotlarni beruvchi rentgenograflar, osstillograflar va boshqa uskunalardan foydalanadilar. O'zbek empirik fahmiy bilimlari shu tarz chuqurlashib boradi. Tovushlar xususiylik va alohidalik sifatida bir-biri bilan yonma-yon

yashaydi, bir-biriga ta'sir ko'rsatadi.

Bu ta'sirlar ham sezgi organlari yoki uskunalari vositasida o'rganiladi va tavsiflanadi, umumlashtiriladi. Bularning barchasi nutq tovushlari – xususiyliklar haqidagi mushohadaviy, fahmiy, empirik bilimlardir.

Leksema va morfemalar nutqda so'z shakllari sifatida voqelanadi. Har bir so'z matnda xususiy ma'noga ega. So'zlarning nutqdagi rang-barang ma'nolarini tilshunoslar gaplarni, matnlarni, so'zlovchi va tinglovchining maqsadini, nutq sharoitini atroflicha o'rganish asosida tavsiflaydilar. So'zlarning turlicha matndagi ma'nolarini sharhlash ham mushohadaviy, empirik bilimlar sirasiga kiradi. So'zning turli matndagi ma'nolari bir-biridan shunchalik farq qiladiki, A.A.Potebnya nutqda so'z necha xil ma'noda ishlatilsa, shuncha so'z bor deb aytgan edi.<sup>1</sup>

Darhaqiqat "*kitobim*" so'zini yuz kishi ishlatib gap hosil qilsa, shu so'z yuzta ma'no kashf etadi va yuzta kitobni atab keladi. Zero, xususiyliklar takrorlanmas va cheksizdir.

Tilshunoslar mashaqqatli mehnat samarasi sifatida minglab so'zlarning minglab matnlarda qo'llanishini tasvirlab, izohlab kelganlar, mufassal tavsiflar yaratganlar. Bular so'zlar kabi xususiyliklarning ayrim-ayrim xususiyatlari tavsifini bizga beradi.

Morfemalar nutqda so'zlarga tirkalgan qo'shimchalar sifatida voqelanadi va yuzlab matnlarda har bir qo'shimcha yuzlab ma'noviy bo'yoqlarga ega.

Har bir qo'shimcha tilshunoslar tomonidan nutqiy ma'nolar jihatidan qunt bilan tavsiflangan. Nutqiy qo'shimchalarning bunday ma'no tavsiflari ham empirik-fahmiy tavsifni tashkil etadi. O'zbek tilida so'z birikmalari va gap turlarining ham shunday mushohadaviy, fahmiy tavsiflari berilgan. Fahmiy- empirik tavsif falsafada formal logika ( mantiq) metodologiyasi asosida amalga oshiriladi. Bu xil mantiqning eng asosiy qonuni –uchinchi mustasno (zakon neprotivorechiya, zakon isklyuchennogo tretego) qonuni. Bu qonunning mohiyati shundan iboratki, ma'lum bir narsa haqida, ma'lum narsa va uning makoniy-zamoniy belgilari haqida aytilgan bir-birini inkor qiluvchi ikki zid fikrdan (*a* shunday yoki *a* shunday emas  $a + b$ ,  $a + b$ ) faqat bittasi to'g'ri bo'lishi mumkin. Darhaqiqat, (*qarg`a*) so'zida (*a*) qattiq, demak, yumshoq bo'lishi mumkin emas. (*Muqimiy*) so'zida (*i*) cho'ziq, ya'ni qisqa emas, (*bir*) so'zida esa (*i*) qisqa, cho'ziq emas. Bu mantiq mushohadaga tayanganligi sababli xususiyliklarning alohida-alohida belgi-xususiyatlarini bir-biridan ajratgan holda tavsifini beradi. Shuning uchun bu tadqiq usuli xususiyliklarning yaxlitlikda emas, alohida xususiyatlarini tavsiflash usulidir. Bu xil tadqiq usullari asosida qo'lga kiritilgan natijalar xususiyliklarning fahmiy, mushohadaviy, empirik tavsifidir.

Ularning fanda katta ahamiyati borligini aytib o'tdik. Fanda uchinchisi istisno

---

<sup>1</sup> Потебня А.А. Из записок по русской грамматике. т. I-II. М.: Учпедгиз, 1958. - С.34.

qoidasining zaruriy o'rnini Gegel ham ta'kidlab o'tadi: "Bu zaruriy qoidadir, zaruriyligi shundaki, o'xshashliklar turlichaliliklarga, turlichaliliklar qarama-qarshiliklarga o'tadi".<sup>1</sup>

Xususiyliklar qancha batafsil tavsif etilsa, xususiyliklar zahirida yotgan umumiyliklarni, mohiyatni ochish uchun shuncha mustahkam zamin yaratiladi. Xususiyliklar tavsifisiz birorta fan yashay olmaydi. Chunki bilish jarayonining navbatdagi bosqichi umumiyliklarni ochish va tushuntirish (ta'riflash) xususiyliklar tavsiflariga tayanadi. Xususiyliklar mushohada, jonli kuzatish, asbob-uskunalar vositasida o'rganilib tavsiflansa, umumiyliklar qay yo'sinda va qaysi usul bilan tadqiq etiladi? Dialektik falsafa hamda tasavvuf bunga yakdillik bilan aqliy tahlil, idrok usuli bilan, deb javob beradi. Umumiyliklarni inson ongi, aqlidan boshqa birorta asbob-uskuna bilan ochib bo'lmaydi. Buyuk Insonning cheksiz aqliy qudrati – idrokigina cheksiz xususiyliklarning cheksiz xususiyatlari tavsifi asosida bu xususiyliklar zahirida yotgan umumiyliklarni ochishi va ta'riflashi mumkin. Endi umumiyliklar qay yo'sinda tadqiq etilishi xususida to'xtalamiz.

Bu usulning mohiyatini bilish uchun oddiy mantiqning yuqorida qayd etilgan tavsif usulining asosiy kamchiligini tushunib olishimiz kerak. Oddiy mantiq tahlil usullariga tayanuvchi fahmiy tahlil xususiyliklarning alohida-alohida xislatlarini tavsiflashga imkon berishini aytib o'tgan edik.

Xususiyliklarning alohida belgi-xususiyatlarini tavsiflash xususiylikning ayrim tomonlari haqida aniq ma'lumotlar berish bilan birga bizga xususiylikdagi butunlikni ilg'ab olishga mone'lik qiladi, to'siq bo'ladi. "Lisonut tayr" dagi ma'rifat vodiysi tasviridan keyin berilgan ko'rlar va fil haqidagi hikoyat xuddi shu hodisaning juda go'zal badiiy-timsoliy tasviridir: Hindistondan qaytgan ko'rlardan fil haqida gapirib berishni so'radilar. Ulardan biri filni ustun (chunki oyoqlarini ushlab ko'rgan edi), biri ajdarho (chunki xartumini ushlab ko'rgan edi), yana biri suyak (chunki tishlarini ushlab ko'rgan edi)... kabi ta'rifladilar. Ular yolg'on gapirmadilar, lekin filning haqiqiy ta'rifini ham bera olmadilar. Chunki xususiy belgilar ortidagi bir butunlikni ko'rib bilmadilar.

Bir-birining so'ziga aylab xilof,  
Gar jadal qildilar erdilar maof.

Har biri o'z bilganidan dedi so'z,  
Solmog'on erdi biri pil uzra ko'z.

Lek ja'm o'lg'onda bu barcha sifat,

---

<sup>1</sup> Гегель. Наука логики в 3-х т. т.2. - М.: Мысль, 1971 - с.63.

Pilga hosildur ul dam ma'rifat.

Komili biynoga chun erdi yaqin,  
Betakalluf dedi bori so'zni chin.<sup>1</sup>

Bu tahsilomuz hikoyaning mohiyati shundaki, xususiylikning alohida qismlarning yig'indisi mohiyatini butunlikka teng emas.

Shuning uchun butunlik oddiy mushohada usuli bilan o'rganilishi mumkin emas, chunki butunlik tarkibidagi munosabatlar bevosita kuzatishda berilmagan. Xususiylikning alohida qismlari xususiyatlari fahm (jonli mushohada, sezgi uzvlari) asosida tadqiq etilsa, butunlik va uning mohiyatini tashkil etuvchi tarkibiy qismlari orasidagi barqaror, doimiy munosabatlar aqliy tahlil (idrok) asosida aqliy yo'l bilan tadqiq etilishi mumkin. Har qanday umumiylik esa butunlikdir. Mushohada (fahm)ning xususiylikning bevosita kuzatishda berilgan son-sanoqsiz belgi-xususiyatlari bilan o'ralashib qolishi umumiylikni butun sifatida idrok etish uchun to'sqinlik qiladi, mana shuning uchun Alisher Navoiy "Qosir etti fahmdin idrokni", deb yozgan edi.<sup>2</sup>

Umumiylik jonli mushohadada berilgan xususiyliklarning juz'iy xususiyatlaridan holi etiladi va ongda tarkibiy qismlarining barqaror munosabatlaridan tashkil topgan butunlik tarxi (ramzi, timsoli, obrazi) sifatida mavjud bo'ladi va uni na fahm, na biror turdagi asbob-uskuna qamrab **ola oladi**. Umumiylikni, butunlikni, aytib o'tganimizdek, faqat inson ongigina ilg'ay oladi. Shuning uchun falsafada bilimlar ikki turga:

- 1.) Fahmiy (mushohadaviy, empirik);
- 2.) Idrokiiy (aqliy, nazariy) bilimlarga ajratiladi.<sup>3</sup>

Birinchi turdagi bilimlar xususiyliklarni kuzatish, ikkinchi turdagi bilimlar fahmiy bilimlarning aqliy tahlili va umumlashtirmasi, umumiyliklarning butunliklar sifatida o'zaro munosabatlarining aqliy tahlili asosida qo'lga kiritiladi.

Umumiylik hamisha butunlikdir. Shuning uchun umumiylikni o'rganishdagi ilk bosqich uning tarkibiy qismlari orasidagi munosabatlarni (bog'lanish va aloqadorliklarni, o'xshashlik va farqlarni) o'rganish, aqliy tadqiq etishdir. Bunday tahlil butunlik qismlarining juz'iy va miqdoriy xususiyatlari asosida emas, balki **moyaviy**, butunlik yaxlitligini ta'minlovchi muhim xususiyatlar asosida amalga oshiriladi. Chunonchi, UD (umumiy daraxt) tarkibiy qismlari

---

<sup>1</sup> Navoiy Alisher. Lisonut tayr. -Toshkent, 1991. -B.201-202.

<sup>2</sup> Navoiy Alisher. Lisonut tayr. -Toshkent, 1991. - B.18.

<sup>3</sup> Туленов Ж., Фафуров З. Фалсафа. -Тошкент: Ўқитувчи, 1991. Введение в философию. В 2-х ч. ч.2. -М., 1989. -С.322-335. Философский энциклопедический словарь. -М.: Советская энциклопедия, 1989. -С.89.

orasidagi bog`lanishlar misolida buni sharhlamoqchi bo`lsak, aytish mumkinki, bunda ahamiyatli narsalar quyidagilar: ildizning erning ostida bo`lishi, yakka tanasining shox va butoqlardan baquvvatligi, yo`g`onligi, po`stloq bilan himoyalanganligi, shoxlarning tanadan o`sib chiqishi va butoqlanishi, barglarning shox va butoqlardan o`sib chiqishi. UDning bunday tarkibiy qismlari orasida funkstional (vazifaviy) bog`lanishlar ham mavjudki, bunday bog`lanishlarsiz UD yaxlitligini yo`qotadi ildiz suv va oziq yig`adi, tananing muvozanatini saqlaydi; tana shoxlarni tutib turadi va ildizdan oziqlarni boshqa uzvlarga etkazadi va hokazo. Lisoniy birliklarga ko`chadigan bo`lsak, [a] fonemasining kenglik va lablanmaganlik belgilari, leksema va morfemalar tarkibida istagan o`rinda kela olib, ularni bir-biridan farqlay olishi shunday muhim xususiyatlardir. Leksema va morfemalar esa ma`lum bir shakl va ma`no bog`lanishidan hosil bo`ladigan butunliklardir. Chunonchi, [-lar] morfemasi shakli tarkibida uchta – [l], [a], [r] fonemalarining ma`lum tartibda joylashishi, ma`no tarkibida esa noaniq miqdoriy ko`plik va sifatiy bo`linuvchanlikning mavjudligi mana shunday tarkibiy qismlar va ular orasidagi bog`lanishlarni tashkil etadi. Leksema va lisoniy qoliplarda ham shunday tarkibiy qismlar va ular orasidagi bog`lanishlarni ochish mumkin. Lekin umumiylikning butunlik sifatida tarkibiy qismlari orasidagi munosabatlarni ochish hali umumiylikning o`zini ochish degani emas. Umumiylikning mohiyati o`ziga o`xshash va undan farq qiladigan umumiyliklar bilan munosabatlari (bog`lanishi, aloqadorligi, o`xshashligi, farqi, ziddiyati) tadqiqi asosidagina ochilishi mumkin. Bu falsafa va umumiylik bilan ish ko`ruvchi barcha fanlarning asosiy metodologik omilidir. Agar xususiyliklarning xususiyatlari ularning o`zida mujassamlangan va ularning o`zidan ochiladigan bo`lsa, umumiylikning mohiyati uning o`zida mujassamlanganligiga qaramay, faqat munosabatlarda ochiladi, namoyon bo`ladi.<sup>1</sup>

Chunonchi, UD mohiyatini ochmoqchi bo`lsak, UDning o`simliklar olamining boshqa vakillari – umumiy buta, umumiy o`t bilan munosabatlarini aniqlashimiz zarur. Faqat shu munosabatlarga UD ning “tanasidan shoxlanuvchanlik” belgisini ochib bera oladi.

Chunki boshqa xususiyatlar (barglilik-bargsizlik, mevalilik-mevasizlik, yiriklik-maydalik va hokazo.) UD uchun muhim emas.

Lisoniy birliklarda ham xuddi shunday. Lisoniy birliklar guruhlar va qatorlar sifatida ongimizda mavjud. Bunday guruhlar kategoriyalar yoki paradigmatlar deb nomlanadi. Guruh yoki qatoridagi har bir lisoniy umumiylik (fonema, leksema, morfema, qolip)ning mohiyati o`z qatoridagi umumiyliklar bilan shaklan va mazmunan munosabatlari asosida ochiladi. Chunonchi, [a] fonemasi

---

<sup>1</sup> Насафи Азиз Ад-дин. Зубдат ал-хакайик // Суфизм в контексте мусульманской культуры. - М.: Наука, 1989. -С.57-65. Гегель. Наука логики. В 3-х т. т.1. -М.: Мысль, 1970. -С.219. Нигматов Х.Г. Функциональная морфология тюркоязычных памятников XI-XII вв. -Ташкент: Фан, 1989. -С.7-9.

[a] : [e] : [i]

: : :

[o] : [u] : [oʻ]

fonemalar qatorida (paradigmasida) turadi va uning eng yaqin munosabatdoshlari [e] va [o] fonemalaridir. Bu qatorda [a] kengligi bilan oʻrta keng [e] va lablanmaganligi bilan yarim lablangan [o] fonemalariga qarama-qarshi qoʻyilgandir. Mana shu belgilar (lablanmaganlik va kenglik) [a] fonemasining umumiylik sifatidagi mohiyatini tashkil etadi.

Boshqa bir misol: [-ning] morfemasi

[-ning] : [-ni]

:

[bosh kelishik]

:

[-dan] : [-ga]

:

[-da]

paradigmatik qatorida turadi. Bu qatorda uning mohiyati “ismni ism bilan tobe aloqaga kiritish” dir. Bu belgisi bilan [-ning] mohiyati “ismni feʼl bilan tobe aloqaga kiritish” boʻlgan [-ni] tushum kelishigi morfemasiga munosabatdoshdir.

Leksemalar ham xuddi shunday paradigmalarda yashaydilar. Chunonchi, [ota] leksemasi paradigmatik qatorida yashaydi.

[buvi] : [bobo]

:

[ona] : [ota]

:

[bola]

:

[nevara]

Bu qatorda ota leksemasining umumiy maʼnosi – “birinchi avlod, bevosita qon-qarindosh, katta, erkak”. Shu umumiy maʼnosi bilan [ota] [ona] leksemasidan “erkak” belgisi asosida, [bola] leksemasidan “katta” belgisi asosida, [amaki], [tog`a] leksemalaridan “bevosita” belgisi asosida, [qaynata] leksemasidan “qon-qarindoshlik” belgisi asosida farq qiladi – munosabatga kirishadi va shu munosabatdoshlari orasidagi aloqalar uning mohiyatini ochib beradi. Lisoniy umumiyliklarning mohiyati taxminan mana shu usulda ochib beriladi. Xususiyliklar makon va zamon muayyanligiga ega boʻlsa, umumiyliklar bunday muayyanlikka

ega emas, chunki ular takrorlanuvchidir. Takrorlanish esa bir zamon, bir makonda sodir bo'lishi mumkin emas. Zamon va makon belgilari esa hamisha o'zgarish, rivojlanish, taraqqiyotda. Umumiyliklarda o'zgarish ular mohiyatining o'zida mujassamlangandir. Masalan, daraxtni biz "tanasidan shoxlanadigan o'simlik", deb ta'riflar ekanmiz, unda yosh, katta-kichiklik, meva turi, shox va barg miqdori kabi o'zgarishlarni mohiyatning ichida mujassamlashtirdik. Bunday xususiyatlar, umumiylikda miqdoriy o'zgarishlar sifat o'zgarishlarga o'tguncha, ya'ni bir umumiylikdan boshqa bir umumiylik rivojlanguncha, sodir bo'lishi mumkin. Chunonchi, [a] : [e] : [i] qatorida keng [a] juda keng, me'yoriy keng, me'yoriy kengdan sal torroq bo'lib, o'rta keng darajasigacha nutqda o'zgarishi mumkin. Lekin o'rta kengga o'ta olmaydi.

Xuddi shuningdek, [a] ma'lum holatlarda sal lablanishi mumkin va bu lablanish yarim lablanishga o'tgunga qadar befarqdir.

Unlilar paradigmasida [a] da na qattiq, na yumshoqlik, na yo'g'on-ingichkalik, na cho'ziq-qisqalik belgilari ajratilgan. Shuning uchun nutq sharoitiga ko'ra umumiy [a] qattiq, yumshoq, o'rta, cho'ziq, qisqa, yuqori tembrli, quyi tembrli ko'rinishlarda bemalol voqelana oladi va bunday o'zgarishlar umumiylik mohiyati uchun ahamiyatsizdir.

Xuddi shuningdek, [ota] leksemasida xotini bormi, yo'qmi, tirikmi, o'likmi, yoshmi, qarimi kabi ma'nolar mujassamlanmagan va shunday befarq ma'nolar doirasida u nutqda o'zgaraveradi. Bunday o'zgarishlar darajasi lisoniy birliklarda juda ko'p va bu haqida biz quyida fikr yuritamiz. Umumiylikda aqliy tahlil asosida ochilgan mohiyat xususiylikning rang-barang belgi-xususiyatlari uchun imkoniyat, sabab va tushunchadir. Masalan, (*qarg`a*) so'zida (a) tovushining qattiqligi va (kalla) so'zida uning yumshoqligi imkoniyati va sababi yuqorida berilgan paradigmada [a] fonemasida qattqlik yoki yumshoqlik belgisining yo'qligidadir. Shuningdek, yigirma besh yashar erkakni ham, etmish yashar erkakni ham bemalol "ota" deb atayverishimizning sababi [ota] leksemasida yosh ma'nosining aniqlanmaganligidir. Shuning uchun xususiylikning tadqiqi tasvir deb atalsa, umumiylik mohiyatini ochish ta'rif yoki tushuntirish deb ataladi, zero ki u xususiyliklarni tushuntiradi, sabablarini ochib beradi.

Xususiyliklarni tavsiflash va bu tavsiflarni umumlashtirish usuli oddiy mantiq, jumladan, uning uchinchisi mustasno qonuniga tayansa, umumiylik mohiyatini ta'riflash va ularni umumlashtirish dialektik mantiqning tahlil usullariga tayanadi. Dialektika aqliy tahlil bilan xususiyliklar tavsifi asosida ulardagi umumiyliklarni ochish yo'llarini o'rgatuvchi metodologik ta'limotdir. Dialektik mantiq umumiylik va munosabatlar bilan ish tutgani uchun u umumiyliklarni hamma vaqt taraqqiyotda, o'zgarishda tahlil qiladi. Shuning uchun u dialektikaning umumiylik-xususiylik, zot (substanstiya) va sifat (atribut), mohiyat va hodisa,

sabab-oqibat, shakl va mazmun kategoriyalari, qarama-qarshiliklar birligi va kurashi, miqdor o'zgarishlarining sifat o'zgarishlariga o'tishi, inkorni – inkor qonunlari bilan ish tutadi. Keyingi uch qonun dialektik mantiqning xususiy qonuni “uchinchi shart” yoki “oraliq uchinchi” qonunida mujassamlashadi.

Haqiqatda  $a+b$ ,  $a+b$  qarama-qarshiligiga befarq bo'lgan uchinchi, ya'ni  $a$  ning o'zi mavjudligini Gegel ta'kidlaydi: “Bu  $A+A$  ham,  $-A$  ham emas, ammo  $+A$  ga ham,  $-A$  ga ham tengdir”.<sup>1</sup>

Masalan, [a] nutqda qattiq ham, yumshoq ham bo'ldimi, mo''tadil ham bo'la oladi; [o] keng, [u] tor, zanjirning o'rtasida o'rta keng [o'] turadi. [-di] morfemasi nutq paytidan oldin, [-gay] keyin sodir bo'ladigan voqealarni ifodalasa, bu ikki zidlikni [-a], [-y] nutq paytida bo'ladigan voqealarni bildirib biriktiradi.

Xususiyliklarni fahmiy tavsiflash fanda idrokiy yo'l bilan umumiyliklar mohiyatini ochish uchun zamin ahamiyatini o'tasa, umumiyliklar mohiyatini ochish qanday nazariy va amaliy qimmatga ega?

Umumiyliklar mohiyatini dialektik mantiq usullari bilan ochish, xususiyliklar xususiyatlarini tushuntirish umumiylik qonuniyatlari asosida amaliyotga yangicha yondashish imkoniyatlarini beradi, ya'ni amaliyotga ilmiy yondashiladi.

Bizning tilshunosligimizda bu, albatta, yangi taraqqiyot bosqichidir. Bu bosqich “**lison nutq**” bosqichi ~~deh atash mumkin~~. Agar “nutq - lison” bosqichi tilshunoslik fani uchun xususiyliklarni tasvirlab, ilmiy, aqliy, idrokiy tahlil uchun zamin tayyorlagan bo'lsa, nutq **lison**” bosqichi mazkur tasvir asosida umumiyliklar tizimini /lisonni/ ochish imkoniyatini, qonuniyatlar sistemasini ishlab chiqishi haqida yuqorida aytib o'tgan edik. Bu tizim esa tilshunoslik fani va amaliyotida yangi turdagi - hozirgidan ko'ra samaradorroq, ko'proq amaliy qiymatga ega bo'lgan ishlarni yo'lga qo'yadi. Umumiylik va butunliklar ochilgach, amaliyot xususiyliklar tavsifi bilan emas, balki qonuniyatlar asosida xususiyliklarni boshqarish, ularni inson talablari, maqsadlari yo'lida ishlatish uchun yo'l ochib beradi.

“Lison – nutq” bosqichi tilshunoslik fani oldiga yangi vazifalar qo'yadi. Fan oldida lisoniy umumiyliklarning voqelashuvi (aktuallashuvi) masalalarini o'rganish vazifasi turadi. Bu har bir lisoniy umumiylik, xususan, qoliplar va qurilmalar qay sharoitda, qanday shaklda voqelashishi kabi masalalarga alohida e'tibor berishni talab qiladi. Bu esa voqelashish, aktuallashish, aktual bo'linish, tagma'no (presuppozistiya), uslubiy xoslik va maqsadlar masalasiga tamoman yangicha yondashish imkoniyatlarini beradi va ular oldiga nutqni ixtisoslash va maqsadli tuzish nuqtai nazaridan yangi vazifalar qo'yadi.

<sup>1</sup> Гегель. Наука логики. В 3-х т. т.2. -М.: Мысль, 1971 -С.64.

## I I BOB.TIL HODISALARINI FALSAFIY ASOSLARDA O'RGANISH

### 1-§. UMUMIY VA XUSUSIY MA'NO

Istalgan butunlik (xoh xususiy, xoh umumiy ko'rinishda bo'lsin) shakl va ma'no tomonlaridan iborat ekanligini aytib o'tdik. Xususiylik va umumiyliklarda shakl masalasiga quyida to'xtalib o'tamiz. Hozir umumiylikning ikkinchi tarkibiy qismi, uning mazmuni haqida fikr yuritamiz. Mazmun butunlikning ichki tomonidir. Tilshunoslar uchun bu maktab ona tili fani sistemasidan ma'lum. Har bir so'zning, har bir qo'shimchanning shakl va ma'no tomoni borligi ayon. Falsafiy mazmuni doim ham oddiygina tushunish mumkin emas. Yuqorida ishlatgan misolimiz o'sha daraxtga qaytamiz. Xususiy daraxtning shakli namoyondir. Biroz o'ylasak, uning mazmuni ham ayon bo'ladi. Daraxt nima uchun kerak? Maktab biologiya fanidan olgan ma'lumotlarimizning o'ziyiq buni tushunish uchun etarli. Daraxt:

- 1) soya soladi;
- 2) meva beradi;
- 3) yer tuprog`ini saralaydi;
- 4) barglar karbonad angidridni yutib, kislorod ishlab chiqaradi;
- 5) yog`och beradi ...

Bunday olib qarasak, soya ham, meva ham, kislorod ham, yog`och ham ... jamiyatda yana yuzlab vazifalarni bajarishga xizmat qiladi. Mana shu nimaga xizmat qilishi butunlikning mazmunidir. Butunlik shakl va mazmun uyg`unligidan iborat bo'ladi. Shaklda mazmun bo'lmasa, u butunlik sifatida yashay olmaydi. Chunki qiladigan xizmati yo'q. Aksincha, mazmun shakllantirilmasa, butunligini yo'qotib xayolday yoyilib ketadi. Masalan, kursini bo'laklasak, bitta yassi taxta va to'rtta uzun tayoqcha paydo bo'ladi. Biz kursining shaklini o'zgartirdik. Natijada uning mazmuni ham buzildi. Bu taxta-yu tayoqchalar endi kursi emas.

Xususiyliklarning ham, umumiyliklarning ham o'ziga xos mazmuni bo'ladi. Oddiy bir chinni piyolani olib ko'raylik. Xususiy bir piyolani biz ham suyuqlik ichish quroli, ham o'lchov andozasi, hali aylana chizish uchun vosita, hali biror narsaga zarba etkazish uchun qurol, hali sovg`a sifatida rang-barang mazmunlarda ishlata olamiz. Xususiyliklarning mazmuni xususiyliklarning o'zi kabi muayyan va aniq bo'ladi. Do'stga sovg`a qilish uchun piyola qimmatbaho va go'zal bo'lishi kerak, birovga zarba berish uchun qattiq bo'lishi kerak, suyuqlik ichish uchun tubi, aylana chizish uchun chetlari butun bo'lishi kerak. Xususiylikning har bir qo'llanishdagi mazmuni xususiy va takrorlanmasdir. Lekin piyolaning umumiy mazmuni ham bor. Umumiy piyolaning mazmunini o'zbek milliy kichik hajmli ro'zg`or buyumlaridan biriligi va qo'lda suyuqlik ichish uchun moslashganligi tashkil etadi. Xususiyliklarning ma'nosi har bir qo'llanilish sharoitiga ko'ra xususiy va muayyan bo'lsa, umumiylik mazmuni

umumiylik uchun barqaror, zamon-makon tushunchalaridan holidir. Xususiylilik ma'nosi zamon-makonda bog`langandir. Shuning uchun umumiylik va xususiyliliklarning mazmuni deganda nafaqat ularning nimani atab kelishi, balki nimaga xizmat qilishi ham mazmun tarkibiga kirishi lozim. Bu masalani biz takror-takror qaytarishimizdan maqsad shuki, vazifa (funkstiya) tushunchasi tilda behad katta ahamiyatga ega. Nutqda qo'llanilgan har bir nutqiy hosilaning o'zining xususiylilik sifatida muayyan va aniq ma'nosi (vazifasi) va har bir lisoniy umumiyliklarning o'ziga xos umumiy ma'nosi (vazifasi) mavjud.

Chunonchi, "Bu daraxtlar serhosil" gapida bir nutq parchasi berilgan. Buni tovushlarga, bo'g`inlarga, so'zshakl, so'z birikmalari va gapga ajratish mumkin. Har bir ajratilgan bo'lakning biz ko'rib (eshitib) turgan shakllaridan tashqari vazifasi ham bordir. (*b*) va (*u*) tovushlari (*bu*) so'zining (ko'rsatish olmoshining) shaklini hosil qilmoqda. Tovushlarning vazifasi ham aslida shu shaklni hosil qilishdan iborat. Xuddi shunday tarzda qolgan tovushlar boshqa hosilalar shaklini hosil qilyapti. Har bir so'z va qo'shimcha bu gap tarkibida muayyan vazifa bajarmoqda. (*Bu*) ko'rsatish olmoshi aniqlash, muayyanlashtirish, (daraxt) so'zi borliqdagi muayyan mavjudotni atab kelish, (*-lar*) esa bu mavjudotning bir necha ekanligini ko'rsatish vazifasini bajaryapti. Xuddi shuningdek, boshqa so'z va qo'shimchalar ham shu gap tarkibida o'ziga xos ma'noga ega.

Boshqa bir matnda mazkur gapdagi nutqiy hosilalar tamom boshqacha ma'no kasb etishi mumkin. Chunonchi, "*Buni oling*" gapida (*bu*) aniqlash, muayyanlashtirish emas, biror narsani ko'rsatish, ishora qilish ma'nosida kelmoqda. Shu qabilda har bir xususiylilik o'z matnida xususiy ma'noga ega bo'ladi. Nutqda nutqiy hosilalarni ma'nosiz, vazifasiz qo'llash mumkin emas.

Nutqiy hosilalar ma'nosini xususiy dedik, buni (*kitobim*) so'zini yuz kishi ishlatgandagi ma'nosi bilan isbotlash mumkin. Yuz kishi (*kitobim*) so'zi bilan yuzta kitobni atab keladi va bu so'z yuz xil ma'noga ega bo'ladi.

Xususiyliliklar alohidalik, tanholik va takrorlanmaslik xususiyatiga ega bo'lish bilan birga tamoman boshqa-boshqa narsalar emas, balki ma'lum bir umumiylikning turlicha voqelanish usuli ekanligi haqida gapirib o'tgan edik. Nutqiy hosilalarning mazmuni ham turli nutqiy sharoitlarda ular qanchalik xilma-xil, rang-barang bo'lmasin, ma'lum bir lisoniy umumiylik ma'nosining aksi, tajallisi, voqelanishidir. Bunday umumiy ma'nolar lisoniy umumiy ma'nolar, umumiy grammatik ma'no atamalari bilan nomlanadi va zamonaviy tilshunoslikning eng chigal muammolaridan birini tashkil etadi.<sup>1</sup>

---

<sup>1</sup> Шаҳобиддинова Ш. Грамматик маъно талқини хусусида. Филол. фанлари номзоди ... дис. -Самарқанд, 1993.

Lisoniy umumiy ma'no nima?

Falsafiy nuqtai nazardan bunga ta'rif berish qiyin emas. Chunki falsafa butunlikning mazmuni deyilganda uni ma'lum bir shaklga hamroh va qandaydir ma'no ifodalash yoki vazifa bajarish qobiliyati deb tushunadi.<sup>1</sup>

Shu jihatdan lisoniy ma'noga butunlik sifatida olingan lisoniy umumiylikning shakliga hamroh ichki ideal tomon va vazifa deb ta'rif berish mumkin. Lekin baribir bu ta'rif lisoniy umumiyliklarning ma'no tomonini, tabiatini ochib berolmaydi. Shuning uchun lisoniy umumiyliklarning har birining umumiy ma'nolari tabiatini alohida-alohida olib ko'ramiz. Aytib o'tganimizdek, lisoniy umumiyliklar fonemalar, morfemalar, leksemalar va qoliplardir. Fonemalarning umumiy ma'nosi sifatida lisoniy birliklarning shakliga tartib berish va lisoniy birliklar shaklini bir-biridan farqlash sanalishi mumkin.

Har bir alohida olingan fonemaning umumiy ma'nosi sifatida nutqda ma'lum bir tipdagi tovushlarning ma'lum o'zgarishlar darajasida hosil qilinishi tushunilishi mumkin. Fonemalar lisoniy birliklarni bir-biridan farqlar ekan, "fonemalar ma'no farqlashga xizmat qiladi" deb bir tomonlama ta'rif berish xato. Fonemalar lisoniy birliklarni farqlar ekan, bu lisoniy birliklar bir-biridan ham ma'no, ham shakli bilan farqlanishini yodda tutishimiz lozim. Shuning uchun fonemalar lisoniy birliklarning faqat ma'nosini yoki faqat shaklini farqlaydi deb aytish bir yoqlamalikdir.

Morfemalarning umumiy ma'nosi tilshunoslikning o'ta munozarali masalasidir. Munozara asosan ikkita nuqta atrofida olib boriladi:

1. Morfemalarning umumiy ma'nosi bormi yoki yo'qmi?
2. Umumiy ma'no yaxlitmi yoki yaxlit emasmi?

Dialektik falsafani yaxshi bilgan tilshunos masalaning har ikki qo'yilishi ham noto'g'ri ekanligini darhol tushunadi. Chunki dialektika nuqtai nazaridan yondashuvchi tilshunos biladiki, nutqda qo'shimchalar singari xususiyliklar bor ekanmi, ularning umumiyliigi bo'lishi shart. Shu bilan birga tilshunosning metodologiyasi, tahlil usuli aytib beradiki, nutqda qo'shimchanning xususiy ma'nosi bor ekanmi, lisonda uning umumiy ma'nosi bo'lishi shart va zarur. Demak, dialektik falsafa nuqtai nazaridan "Morfemalarning umumiy ma'nosi bormi, yo'qmi?" degan savol noto'g'ri. Nutqdagi xususiy ma'nolar lisondagi umumiy ma'nolarning tajallisi bo'la oladi xolos.

Ikkinchi savolga o'tamiz. Umumiy ma'noning tabiati qanday? Dialektika bunga ham e'tirozga o'rin qoldirmaydigan javob beradi: umumiy ma'no dialektik butunlik tabiatiga ega. Dialektik butunlik esa umumiylikni, xilma-xillikni, qarama-qarshilikni va taraqqiyotni o'z ichiga

---

<sup>1</sup> Философский энциклопедический словарь. -М.: Советская энциклопедия, 1989. -С.595-596.

olgan bir butunlikdir.

Bu asosda morfemalarning umumiy ma'nosi ham dialektik tabiatga ega bo'lgan bir butunlik sifatida ta'riflanishi mumkin.

Demak, morfemalarning umumiy ma'nosi morfemaning qo'shimcha sifatida nutqda voqelantira oladigan xususiy ma'nolarining oddiy arifmetik yig'indisi ham emas, ularning birortasi (tipik, uzual)ga ham teng emas, ularning hammasiga bo'linadigan turg'un yaxlitlik ham emas. Morfemaning umumiy ma'nosi shunday tabiatga egaki, u ma'lum sharoit ta'siri ostida barcha lug'aviy xususiylklarga qo'shilgan qo'shimchalarning ma'nolarini tushuntira oladi. Shu ma'nolarga nisbatan sabab vazifasini o'taydi. U yaxlit ham bo'la olmaydi (chunki xususiylklarning voqelanishi behad xilma-xildir), turg'un, o'zgarimas va barqaror ham bo'la olmaydi (chunki xususiylklar hamisha o'sish, rivojlanish, o'zgarishdadir).

Dialektik butunlikning nisbiy turg'un va barqarorligi o'zgaruvchanlik va taraqqiyotni o'z ichiga olganligi sababli, morfemalarning umumiy ma'nosi ham taraqqiyot va o'zgaruvchanlikni o'z ichiga olishi kerak.

Chunonchi, oddiy bir misolni olib ko'ramiz. Biz [fe'l + -uvchi = fe'l anglatgan harakatni bajaruvchi] qolipida [-uvchi] ma'nosini topmoqchi bo'lamiz. Qolip matematik tenglama tabiatiga ega bo'lganligi uchun oddiy tenglama echish usulidan foydalanamiz: [-uvchi = fe'l anglatgan harakatni bajaruvchi - fe'l = harakatni bajaruvchi]. Demak, [-uvchi] ning qolipdagi ma'nosi (qolip umumiylik tabiatiga ega bo'lganligi uchun bu ma'no ham umumiylik tabiatiga ega bo'ladi) "harakatni bajaruvchi" ga teng. Harakatni bajaruvchi esa o'zbek ongida darrov "shaxs" tushunchasi bilan bog'lanadi, lekin "shaxs" tushunchasi bilan cheklanmaydi, chunki qolipda shaxs tushunchasi yo'q. Shuning uchun (uchuvchi) hosilasi, tug'ilgan zahotiy oq, rivojlanish, o'zgarish, xilma-xillikni o'z ichiga oladi:

sh a x s

u ch u v ch i

sh a x s e m a s

Bu qarama-qarshilik va o'zgarish imkoniyati [-uvchi] ning umumiy ma'nosida turibdi va nutqda voqelanadi:

*Uchuvchi samolyotga o'tirdi.*

*Osmonda uchuvchi mezonlar xayolimni olib qochdi.*

Har qanday morfemaning umumiy ma'nosi mana shunday dialektik tabiatga ega bo'lishi lozim.

Morfemaning umumiy grammatik ma'nosi (UGM) qaerda va qanday ochiladi? UGMni ajratish – tekshirishda mavhumlashtirishga asoslanish natijasi. Mavhumlashtirishning borliqni tekshirishning boshqa usullaridan afzal tomoni – o'rganilayotgan narsa xususiylklarining bir

qismigagina asoslanib xulosa chiqarish imkoni – tilshunosni barcha nutqiy ko'rinishlarni jamlashdek qora mehnatdan ozod qiladi. Erishilgan natija – UGM – bir qarashda nihoyatda noaniq va xiradek tuyuladi. Ammo sohibqiyos (dialektik) uchun aynan u aniq va yaqindir. Alisher Navoiy mohiyat (Simurg<sup>1</sup>) ta'rifida aytganidek:

Siz tushub u shohdin behad baid,

Ul yoqinroq sizga min hablul varid.<sup>1</sup>

Ya'ni, umumiy Sizga (mohiyatni izlovchiga) behad uzoqdek ko'rinadi, ammo u Sizga bo'yin tomiringizdan ham yaqinroqdir.

Ma'lum bir til birligining UGMsini topish mavhumlashtirishning eng oddiy ko'rinishidir. Bosqichma-bosqich mavhumlashtirishlar tobora kengroq qamrov kasb etib boradi. Hozirgi umumiy keyingi bosqichda xususiyya aylanadi. Cheksiz davom etuvchi umumlashtirishlar va mavhumlashtirishlar natijasi o'laroq, ko'z oldimizda til deb atalmish barhaq mavhumotning manzarasi asta-sekin ochila boradi...

Buni bir misol yordamida ko'rib o'tishga intilamiz.

Ko'plik qo'shimchasi [-lar] ning turli nutqiy sharoitlarda yuzaga chiquvchi XGMlarini ikki katta guruhga jamlash mumkin:

bo'linuvchan ko'plik ifodalash va bo'linmas ko'plik ifodalash.

Bo'linuvchanlik/bo'linmaslik narsaning sifatiy belgisi bo'lib, [-lar] har ikki belgini ham ifodalay oladi. Ifodalanayotgan narsalarning miqdori esa sifat bo'linuvchanmi, bo'linmasmi, qat'iy nazar, doimo noaniqdir. [-lar] li so'zdan anglashilgan miqdor haqida faqat bir narsa – uning birdan ortiqligi ma'lum bo'ladi, xolos. Demak, [-lar] ning har qanday ko'rinishi orqasida turuvchi mazmuni – UGMsi sifatida “miqdoriy noaniq narsalarning bo'linuvchan /bo'linmas sifatini ifodalash” ni ko'rsatish mumkin.

Bu UGMlar xususiyy grammatik ma'no (XGM)larga nisbatan yuqori daraja mavhumotdir. Biroq u mavhumlashtirishda so'nggi bosqich emas. Undan yuqoriroq bo'lgan keyingi mavhumot miqdoriy va sifatiy belgilarni morfologik ifodalash uchun xoslangan kategoriya (son kategoriyasi) ma'nosiga nisbatan bu umumiy xususiyya aylanadi. Zero, [-lar] narsalarning bo'linuvchan/bo'linmas sifati va miqdoriy noaniqligini ifodalashga xoslangan bitta xususiyy ko'rinish, sifatiy va miqdoriy belgilarning turli jihatlarini ifodalovchi boshqa morfologik shakllarning UGMlari bilan birgalikda morfologik son kategoriyasining UGMsi yuzaga chiqishini ta'minlovchi imkoniyatlardan bittasidir. Demak, keyingi bosqich mavhumlashtirish [-lar] ning o'xshash vazifa bajaruvchi boshqa morfologik shakllar bilan munosabatlar sistemasini tiklash orqali amalga oshiriladi. Bunday shakl nol ko'rsatkichli shakl

---

<sup>1</sup> Навоий Алишер. Лисонут тайр. -Тошкент, 1991. -Б.35.

[O]dir. [O] shaklning xilma-xil nutqiy ko'rinishlari avvalo ikki asosiy guruhga birlashadi: bo'linmas ko'plik ifodalash, birlik ifodalash.

Bo'linmas ko'plik ifodalash xususiyati unga jamlik ifodalanganda (*Gadoning dushmani gado bo'ladi ...*(A.Oripov)), aniq /a/ va noaniq /b/ ko'plik ifodalanganda, ro'yobga chiqish imkonini beradi: a) *olti oykim she'r yozmayman...* b) *juda qadim zamonlarda, ming yilcha burun...* (A.Oripov). ("ming", "juda ko'p" demakdir). Birlik ifodalash faqat shu shaklga xos xususiyat: *faqat bitta tuyg'u uxlamas biroq...* (A.Oripov).

[O] shakl voqelashuvining yuqoridagi ayrim ko'rinishlarini kuzatishning o'ziyiq uning UGMsi haqida xulosa chiqarish imkonini beradi: [O] shakl doimo bo'linmas sifat va aniq/noaniq miqdor ifodalar ekan. [-lar] va [O] ning UGMsini qiyoslash keyingi bosqich UGM – bu ikki shakl birlashuvchi morfologik son kategoriyasi UGM sini topishga yo'l ochadi: morfologik son kategoriyasi narsalarning bo'linuvchan/bo'linmas sifati va aniq/noaniq miqdorini ifodalash uchun xoslangandir.

Mavhumlashtirish shu tarzda bosqichma-bosqich amalga oshirila boradi. Keyingi bosqichlarni taxminan quyidagicha ko'rsatish mumkin:

1. Morfologik son kategoriyasi, lug'aviy, sintaktik, fonetik son kategoriyalari bilan birgalikda keyingi, yuqori bosqich, son kategoriyasining xususiy ko'rinishidir.

2. Bu son kategoriyasi ham o'z navbatida belgi ifodalovchi yuqoriroq kategoriyaning bir xususiy ko'rinishi sifatida yuzaga chiqadi. Son kategoriyasi narsaning sifatii/miqdoriy belgilarinigina ifodalasa, keyingi bosqich kategoriya narsaning umuman har qanday belgilarini ifodalashning turli shakllarini o'z ichiga oladi va son kategoriyasi bilan umumiy-xususiy munosabatga kirishadi...

Umumiylikning tobora mavhumroq bosqichlariga shu tarzda ko'tarila borish asta-sekin til haqidagi tasavvurlarimiz va shu bilan bog'liq tarzda tilshunoslikning qurilishini ham o'zgartira boradi. Til tasavvurimizda sathlardan tuzilgan qandaydir noaniq qurilmadan chambarchas bog'liq uzvlardan tuzilgan – tajassum topgan zanjirga aylanadi. Tilshunoslik esa xususiyliklarni qayd etuvchi fan darajasidan asta-sekin mohiyatga – umumiyga yaqinlasha boruvchi ilm darajasiga ko'tariladi.

Leksemalarda ham umumiy ma'no shu leksemaning o'zi munosabtdosh bo'lgan leksemalar qatoridagi o'rnidan ochiladi. Biz "ota" leksemasining ongimizda quyidagi leksik paradigmada yashashini aytib o'tgan edik /3-§/:

[bobo] : [buvi]

:

[ona] : [ota]

:

[bola]

:

[nevara]

Bu paradigmadan [ota] leksemasining ma'nosini "birinchi avlod, bevosita qon-qarindosh, katta, erkak" sifatida belgilagan edik. Mana shu ma'no [ota] leksemasining umumiy ma'nosidir.

Leksemaning umumiy ma'nosi tilshunoslikda, jumladan, o'zbek tilshunosligida, juda keng muhokama etilgan, bu hodisa alohida biratama – semema – bilan yuritiladi. Semema leksemaning so'zlar sifatida nutqda rang-barang ma'nolarda voqelanishi uchun ham imkoniyat, ham bunday qo'llanishlarni tushuntiruvchi sabab vazifasini o'taydi. Shu jihatdan so'zda to'g'ri va ko'chma ma'no farqlanadi. So'zning ma'nosi uning lisoniy ma'nosiga yaqin bo'lsa va lisoniy ma'no ham, nutqiy ma'no ham bir xil atalmishlarni atab, nomlab kelishga xizmat qilsa, bunday ma'no to'g'ri ma'no sanaladi.

Chunonchi,

Sen tufayli ko'p xonadonda,

Ota nomli buyuk shodlik kam. /Zulfiya/

Lisoniy umumiy ma'no bilan anglatiluvchi atalmish va nutqiy ma'no atab kelayotgan atalmish bir-biridan farqlansa, bunday qo'llanish ko'chma(metaforik) qo'llanish deyiladi. Masalan,

Mahmud Qoshg'ariy – turkiyshunoslik otasi.

Xulosa qilib aytish mumkinki, morfemalar singari leksemalarning ham umumiy ma'nosi leksem paradigmalardan ochiladi.

Qoliplar murakkab lisoniy birliklardir, shuning uchun ularning umumiy ma'nosi ham murakkab bo'ladi va qisman qolipning o'zida beriladi. Qiyoslang: [fe'l + -uvchi = fe'ldan anglashilgan harakatni bajaruvchi], [ot + -ga = otning jo'nalish kelishigi shakli].

Lekin bundan tashqari qolip butunligicha olinganda ham, har bir qolip ma'lum turdagi nutqiy hosilalarni (so'zshakllarini, so'z birikmalarini, gaplarni) tuzishga va nutqda voqelantirishga xizmat qiladi. Shuning uchun eng katta lisoniy birliklarning mohiyati, ya'ni qoliplarning mohiyati eng kichik lisoniy birliklarning, ya'ni fonemalarning mohiyati bilan qisman o'xshash bo'ladi.

Shunday qilib, til birliklarida xususiy va umumiy ma'nolarning munosabati haqidagi fikrlarimizni yakunlab ayta olamizki, nutqiy xususiy ma'nolar va lisoniy umumiy ma'nolar o'zaro dialektik umumiylik-xususiylik munosabatlarida turadi, aniqrog'i, xususiy(nutqiy) va umumiy(lisoniy) ma'nolarining o'zaro munosabati dialektik xususiylik-umumiylik munosabatlarining tilning mazmun sathida tajallisi, in'ikosidir.

## 2-§. UMUMIY VA XUSUSIY GRAMMATIK SHAKL

Nutqiy – xususiy grammatik ma’no (XGM)lar va lisoniy – umumiy grammatik ma’no (UGM)larning farqlanishi ularning shakllanuvida ham xuddi shunday farqlov masalasini ko’ndalang qilib qo’yadi.

XGMning shakllanuvi masalasini ham, UGM shakllanuviga nisbatan biroz aniqroq bo’lsa-da, u qadar ravshan deb bo’lmaydi. Chunonchi, XGMning ifodalovchisi hisoblangan shakl maqomini belgilash bir necha jihatdan munozaralidir:

bu shakl yana boshqa xil XGMlarni ham ifodalay oladi;

shu XGM boshqa xil shakllarda ham ro’yobga chiqa oladi;

XGMni ifodalashda muayyan shaklning o’zigina ishtirok etmaydi (ya’ni butun so’zshakl XGM ning ifodalovchisidir) ...

Shuning uchun ham A.V. Bondarkoning “Grammatik shaklning xususiy ma’nosi” atamasi ma’lum darajada shartlidir: bu bilan biz grammatik shaklga faqat u bilangina ifodalanmaydigan narsani xos qilib qo’ygan bo’lamiz”<sup>1</sup> degan fikrini davom ettirib aytish mumkinki, “XGMning shakli”, ya’ni “xususiy grammatik shakl” (XGSh) atamasi ham shartlidir. Chunki XGMning beqaror tabiati uni muayyan – yakka biror sharoit yoki shu sharoitning muayyan ishtirokchisi bilan bog`lab qo’yish imkonini bermaydi.

Masalan, (*Gullar chaman-chaman ochildi*) gapidagi (*gullar*) so’zshaklida yuzaga chiqayotgan ko’plik ma’nosini, odatda bo’lganidek, faqat (*-lar*) qo’shimchasi bilan bog`lab qo’yish mumkin emas. An’anaga ko’ra bu erda yuzaga chiqayotgan ko’plik ma’nosi (*-lar*) qo’shimchasining XGM i deb atalsa-da, uning faqat shu qo’shimchadan kelib chiqmasligi yaqqol ko’rinib turadi.

XGMning yuzaga chiqishida qurshovchi matn va sharoitning tilshunoslikda doim ham yuqori qo’yiluvchi mavqei haqida fikrimizni professor A.G`ulomovning quyidagi xulosasi bilan isbotlashimiz mumkin: “Ko’plik formasiga kirgan ot (keng ma’noda) bilan ifodalanadigan ma’nolar turlichadir. Bu turlichalilik, asosan, ko’plikni qabul etuvchi so’zning leksik ma’nosiga qarab bo’ladi, ba’zi o’rinlarda uni kontekstgina aniqlaydi”.<sup>2</sup> Ya’ni (*-lar*) u qatnashayotgan so’zshaklda yuzaga chiquvchi ma’nolarning yagona,yolg`iz va mustaqil ifodalovchisi – shakli bo’la olmaydi. Chunonchi, qiyoslang:

*O’qituvchilarning uyi – O’qituvchilar gazetasi*

“O’qituvchilarning uyi” birikmasida ko’plik, “O’qituvchilar gazetasi” da jamlik ma’nosi

---

<sup>1</sup> Бондарко А.В. Грамматическая категория и контекст. -Л.: Наука, 1971. -С.105.

<sup>2</sup> Фуломов А. Ўзбек тилида кўплик категорияси. -Т.: Ўздавнашр, 1944. -Б.47

yuzaga chiqmoqda, birinchi birikmada (-lar) ko'plik ma'nosi ifodalashini bir necha omil ta'minlayapti. Xususan, birikmaning erkinligi, aniqlashtiruvchilik vazifasi xos bo'lgan (-ning) qo'shimchasining qo'llanishi kabilarni ko'rsatish mumkin. Ikkinchi birikmada esa jamlik ma'nosining yuzaga chiqishini birikmaning turg'unligi, bosh kelishikning qo'llanishi (bosh kelishik noaniqlikni ifodalaydi) kabilar ta'minlamoqda.

Demak, bu ma'nolarni yolg'iz (-lar)gagina xos deb atash munozaralidir. Biroq shuni ham ta'kidlash lozimki, (-lar)ning mavjudligi muayyan ma'nolarning yuzaga chiqishi uchun signal vazifasini o'taydi, fikr almashuv jarayonini tiniqlashtiradi.

Shunday nutqiy sharoitlar ham bo'ladiki, muayyan xususiy ma'noning yuzaga chiqishi uchun muayyan shakl ayni sharoitda (-lar)ning bo'lishi zaruriydir. Masalan, qiyoslang:

*Gullar chaman-chaman ochildi – Gul chaman-chaman ochildi*

*O'qituvchilarning uyi – O'qituvchining uyi*

Ana shu xususiyatni hisobga olgan holda, shartli ravishda bu ma'nolar (-lar)ning xususiy ma'nolari deb ataladi. XGShning biroz munozarali bo'lsa-da, hozirgi zamon tilshunosligi uchun ma'qul ta'rifini quyidagicha berish mumkin: XGSh – XGMning ifodalovchisi. Ya'ni ko'plik XGMning ifodalovchisi – (-lar).

Biroq UGMning shakli masalasi ancha murakkabdir. Bu masalani hal qilishda biz ikki muammoni echishimiz lozim bo'ladi. UGM haqida so'z borganda uning ideal tabiatga ega ekanligi yoritiladi.<sup>1</sup>

UGM muayyan til birligining barcha qo'llanishlari uchun asos bo'lgan lisoniy mohiyatdir. XGMLardan farqli o'laroq uni kuzatish imkoni yo'q. Shunday ekan, uning shakli haqida gapirish mumkinmikan? Umuman, mavhum va ideal mohiyatning shakli bo'lishi mumkinmi?

Muaamo falsafiy tabiatga egadir.

Masalaga falsafiy-dialektik nuqtai nazardan yondashish bu UGM (mohiyat) uchun shakl mavjudmi yoki mavjud emasmi degan muammoni kun tartibidan olib tashlaydi. Narsa yashashi, mavjud bo'lishi uchun butun bo'lishi kerak. Chunki mustaqillik va mavjudlikni butunlik ta'minlaydi.<sup>2</sup> Butunlikning o'zi esa shakl bilan ta'minlanadi.

Xususiylıklarda shakl ularning bevosita kuzatishda (sezishda) berilgan tomonini tashkil qiladi va munozarali muammo tug'dirmaydi.

Ammo mohiyat mavjuddir va uning mavjudligi xususiylıklar mavjudligining asosidir. Demak, u ham butunlikdir va shakllangandir.<sup>3</sup> Bundan kelib chiqadiki, umumiy grammatik shakl (UGSh) ham mavjud ekanligi shubhasiz ekan.

<sup>1</sup> Шахобиддинова Ш. Грамматик маъно талқини хусусида // Ўзбек тили ва адабиёти, 1991. N 5.

<sup>2</sup> Гегель. Наука логики. В 3-х т. т.2 -М.: Мысль, 1971. -С.153-163.

<sup>3</sup> Гегель. Наука логики. В 3-х т. т.2. -М.: Мысль, 1971. -С.77.

Masalaning bunday hal etilishi oldimizga ikkinchi muammoni ko'ndalang qilib qo'yadi: modomiki, UGSh mavjud ekan, uning tabiati qanday? Bu savolga javob berish umuman mohiyatning shakllanuvi borasida fikr yuritishni talab qiladi.

Falsafada biz muammo deb atayotgan bu jihat ham o'z echimini topgan bo'lsa-da, tilshunoslik uchun bu muammoni hal qilish avvalgisini hal qilishdan oson kechmaydi. Mohiyat (umumiylik, zot) ning shakli har bir fan ob'ektiga tadbiquan turlicha hal etiladi.

XGM ning shakli – XGSh muayyan nutqiy grammatik ma'noning yuzaga chiqishidan darak beruvchi nutqiy birlik ekanligini aytib o'tdik. Ya'ni qandaydir xususiy ma'no va qandaydir xususiy shakl mavjud.

Ammo UGMning shakli UGSh haqida bunday xulosaga kelish qiyin. Chunki UGMni hech qanday moddiy shakl to'la yuzaga chiqara olmaydi. Masalan, son kategoriyasining UGMsi “atalmishlarning miqdoriy-sifatiy belgisini ifodalash” ning voqelashuvi shartli ravishda shu kategoriya shakllari – [O] va [-lar] bilan bog'lansa-da, ular hech qachon bu UGMni to'la yuzaga chiqara olmaydilar. UGMning yuzaga chiqayotgan qismi ham boshqa UGM qismlari bilan sinkretlashadi.

Demak, UGM shakli – UGSh sifatida muayyan morfologik (sintaktik, lug'aviy, fonetik...) ko'rsatkichni yoki faqat uni taqdim etish mumkin emas ekan.

Xo'sh, unda UGShning tabiati qanday?

Nemis faylasufi Gegel “Mantiq fani” asarida mohiyat va shakl munosabati haqida fikr yuritib, yozadi: “Shakl mohiyatga qay tarzda bog'lanadi deb so'rab bo'lmaydi, axir u mohiyatning o'z sifati, unga xos bo'lgan xususiy sifatdir”.<sup>1</sup>

Mohiyat o'z-o'zicha harakatsiz, noaniq, o'lik asosdir. Unga shakl hayot, harakat va ta'rif bag'ishlaydi. Demak, harakat va amalda bo'lgan mohiyat shaklsiz bo'lolmaydi. Shu harakat va amali uning *sh a k l i d i r*. Biz mohiyatning o'zi va uning amalini ajrata olmaymiz.

Albatta, mohiyat va shakl orasida farq ham bor. Ammo ularni farqlash imkoni yo'q. Chunki shakldan holi mohiyat, mohiyatdan holi shakl mavjud bo'lolmaydi. Ularni bir-biridan ajratish ikkalasini ham yo'qlikka mahkum etish demakdir: “...haqiqat faqat ularning birligidadir”.<sup>2</sup>

Yana o'sha daraxt misolida ko'rib o'taylik: daraxt (umuman daraxt)ga qisqacha shunday ta'rif berdik: tanasidan shoxlanadigan yirik o'simlik. Daraxt ham o'simlik va qolgan barcha o'simliklar (buta, o't) dan uni farqlab turuvchi belgilarini yuqoridagi ta'rif qamrab olgan, qolgan jihatlar (meva berish, kislorod ishlab chiqarish...) bu o'rinda ahamiyatli emas.

<sup>1</sup> Гегель. Наука логики. В 3-х т. т.2. -М.:Мысль, 1971. -С.77.

<sup>2</sup> Гегель.Наука логики. В 3-х т. т.2. -М.:Мысль, 1971. -С.82.

Ana shu ta'rifda, qisqa qilib aytganda, umuman daraxtning mohiyati haqida gap bormoqda. E'tibor bering, mohiyati dedik, lekin bu uning umumiy shakli ham-ku. Bu ta'rifda mohiyat va shaklni ajratish imkoni yo'q.

Shakl tushunchasi qamrovi nazariy tekshirishlar natijasida yanada murakkablashib boradi. Tekshirilayotgan ob'ektning murakkablasha borishi uning shaklini aniqlash va chegaralashni qiyinlashtiradi va e'tibor qiling, shakl va mohiyat jipsligini yanada oshiradi: "...shaklning faoliyati sifatida yuzaga chiquvchi narsa aslida materiya (mohiyat – Sh.Sh.) ning o'z harakatidir”<sup>1</sup>

Ya'ni mohiyat o'zida, o'z ichida shaklga egadir. Uning shakllanishi esa shakl va mohiyat orasidagi yashirin turgan birlikning ochilishi, xolos. Boshqacha qilib aytganda, mohiyatning bizga ochilayotgan harakati uning shaklidir, bu shakl uning o'zidadir, uning o'z harakatidir.

Til birliklariga nisbatan bu ta'rif qanday tadbqiq etiladi? UGSh qanday tushunilishi lozim?

XGShdan farqli o'laroq, UGSh faqat fonemalar tizimidangina iborat bo'la olmaydi. Chunki UGMning harakat va hayotini (zero UGSh aynan harakat va hayot ta'minotchisidir) faqat fonemalar tizimi bilan bog'lab bo'lmaydi. Lisoniy o'rin va sharoit ham UGSh tarkibiga kiradi. Masalan, “noaniq miqdoriy ko'plik va bo'linuvchan-bo'linmas sifat” UGMsi [-lar] bilangina ifodalanadi deb bo'ladimi? Yo'q, albatta. Bu UGMni “atov birliklarga egalik va kelishik qo'shimchalaridan oldin, sub'ektiv munosabat bildirilmaganda qo'shilgan [-lar]” ifodalaydi. Xuddi shu *o' r i n* (egalik va kelishik qo'shimchalaridan oldin), sharoit (sub'ektiv munosabat bildirilmaganda) va u fonemalar tizimi [-lar] yuqorida qayd qilingan UGMning UGShsidir.

Quyidagi misolga ham e'tibor qiling. Nutqda voqelanuvchi fe'lning tarkibini ko'rib chiqamiz. Buni jadvalda quyidagicha aks ettirish mumkin:

<b>№</b>	<b>leksema/atov birligi (o'rni o'zak, negiz)</b>	<b>nisbat ko'rsatkichlari o'rni</b>	<b>tasdiq-nkor morfemalari o'rni</b>	<b>funktional shakllar o'rni</b>
1	yoʻz	O	-ma	-gan/-y/-dim
2	koʻr	-sat	O	-ib/-aman/-ibman
3	ol	-dir	-ma	-bman/-gan
4	toʻl	-gʻaz	-ma	-y/-di
5	koʻr	-in	O	-adi/-gach
6	koʻr	-ish	-ma	-ydi/-gan

<sup>1</sup> Гегель. Наука логики. В 3-х т. Т.2. -М.: Мысль, 1971. -С.81.

7	ko'r	-il	-ma	-y/-gan
---	------	-----	-----	---------

Har bir ustunchada turgan moddiy jihatdan bir-biridan keskin farq qiluvchi nutqiy hosilalar (o'zak, qo'shimchalar) lisondagi muayyan umumiylikning birliklaridir. Masalan, nisbat qo'shimchalari faqat o'zak-negizdan keyin kela oladi. Shu o'rin ham nisbat kategoriyasining shakliga aloqadordir.

### 3-§. GRAMMATIK KATEGORIYA VA GRAMMATIK SHAKL

Grammatik shakl va grammatik kategoriya grammatikaning muhim tushunchalaridandir va bu tushunchalar o'zaro uzviy bog'langandir.<sup>1</sup> Morfemalarning umumiy ma'nosi morfemalar qatori (paradigmasi)da ochilishi haqida gapirib o'tdik.

Shakl va kategoriya tushunchalari mana shu morfemaning umumiy ma'nosi va uning paradigmasi bilan uzviy bog'langandir. Paradigma alohida morfemaga nisbatan butunlikni tashkil etib, morfemadan kattadir. Morfema paradigma ichiga butunlikning tarkibiy qismi sifatida kiradi. Kategoriya va shakl mana shunday butun-bo'lak munosabatlari bilan bog'langan. Alohida bir morfema paradigmasi butunlik sifatida kategoriya sanalib, shu butunlik tarkibidagi alohida morfema uning tarkibiy qismi, birligidir.

Kategoriyaning *t a b i a t i g a* ko'ra kategoriyalar so'z yasash kategoriyalari va so'zlarni nutq talablariga moslashtiruvchi, nutqda so'zlarning bir-biri bilan aloqaga kirishishini ta'minlovchi so'z o'zgartuvchi deb ataladigan kategoriyalarga bo'linadi. Bu ta'birda "so'z yasalishi" va "so'z o'zgartuvchi" atamalarida "so'z" atamasining turli ma'nolarda ishlatilganiga e'tibor berish kerak. Birinchi holatda "so'z yasalishi" atamasida morfema yoki qoliplar, darhaqiqat, yangi nutqiy yasama – atov birligi – yasama so'z hosil qiladi. Masalan, "o'qitmoq" bir atov birlik, ya'ni muayyan bir holat-harakat ifodalaydi, "o'qituvchi" esa yangi atov birligi. Shuningdek, "do'ppi" bosh kiyimining bir turini atovchi atov birligi, "do'ppili", "do'ppisiz" (kishi) tamoman boshqa-boshqa atov birliklaridir.

"O'qituvchi", "do'ppili", "do'ppisiz" kabi nutqiy hosilalarni – yasama so'zlarni beruvchi [fe'l + -uvchi q fe'l anglatgan ish- harakatni bajaruvchi], [ot + -li = ot anglatgan narsaga ega ekanlik belgisi], [ot + -siz = ot anglatgan narsaga ega emaslik belgisi] qoliplarda qo'shiluvchining ma'nosi va atalmish hosilaning ma'nosi bir-biridan farq qiladi, ya'ni yangi so'z yasaladi. Bunday qoliplar so'z yasash qoliplari, ularning paradigmalari esa so'z yasash kategoriyalari deb yuritiladi. Har bir so'z yasash qolipining bu qolipning o'zida aks ettirilgan umumiy ma'nosi mana shu paradigmalarda ochilishi lozim. Shuni alohida ta'kidlash kerakki,

<sup>1</sup> Хожиев А. Хозирги ўзбек тилида форма ясалиши. -Тошкент: Ўқитувчи, 1979. -Б.6.

o'zbek tilida so'z yasovchi kategoriyalarni kategoriyalar, ya'ni butunliklar – paradigmalar sifatida o'rganish ishiga kirishilganiga uzoq bo'lgan emas.<sup>1</sup>

Zeroki so'z yasashni sistema, tizim sifatida o'rganishning ibtidosi unumli va unumsiz so'z yasash qoliplarini farqlash, unumli so'z yasash qoliplarinigina so'z yasash tarkibiga kiritib, unumsiz so'z yasash qoliplarini to'la-to'kis leksika tarkibiga kiritishdan iborat. Shu izlanishlar amalga oshirilmas ekan, so'z yasash kategoriyalarini ajratish va ularni o'rganish mumkin emas.

Unumli so'z yasash qoliplari alohida ajratilgandan keyingina qoliplar orasidagi o'xshashlik va farqlar asosida ularni paradigmalariga, ya'ni kategoriyalarga birlashtirish va shu kategoriyalar doirasida har bir qolipning umumiy shakl va umumiy ma'nosini, ya'ni uning mohiyatini ochish mumkin. Hozirgi kunda bunday ishni amalga oshirish mumkin emas, buning uchun etarli fahmiy-empirik asos, zamin yo'q. Shu tufayli bu ish bilan shug'ullana olmaymiz. Shuni ta'kidlash bilan chegaralanamizki, so'z yasash qoliplari bu qoliplardagi qo'shiluvchining atalmishini hosilada uzgartiruvchi qolipdir.

Bunday qoliplarning o'xshash, monand siralari esa ma'lum turdagi so'z yasovchi kategoriyalardir. Bu bizga so'z yasovchi kategoriyalarni so'z o'zgartuvchilardan farqlashga yordam beradi.

So'z o'zgartuvchi kategoriyalar ham qoliplardan tashkil topadi. Ularning so'z yasovchi kategoriyalardan farqi shundaki, qoliplardagi qo'shiluvchi va hosilaning lug'aviy atash-nomlash ma'nolari bir-biridan farq qilmaydi. So'z o'zgartuvchi kategoriyalar atov birliklarni nutq sharoitiga moslashtirib, so'z birikmalari va gaplar tuzishga xizmat qiladi. Shuning uchun "so'z o'zgartuvchi" atamasida "so'z" "atov birligi" degan ma'noni bildiradi. Har qanday qolipning qo'shiluvchi qismi atov birliklari bo'lgani kabi so'z o'zgartuvchi qoliplarning ham qo'shiluvchi qismi atov birliklari – leksema va yasama so'zlardir... Lekin ularning hosilalarining atov ma'nosi qo'shiluvchining atov ma'nosidan farq qilmaydi. Bunday qoliplar lisoniy va nolisoniy munosabatlarning ma'lum bir morfema yoki qolipda mujassamlashgan mavhum in'ikosini aks ettirib, atov birliklarni nutq ehtiyojlariga moslashtirish uchun xizmat qiladi.

So'z o'zgartuvchi kategoriyalar grammatik kategoriyalar jumlasiga kiradi.

Grammatik kategoriya esa yana ikki tushuncha – grammatik ma'no va grammatik forma tushunchalari bilan bog'langan.<sup>2</sup> Shuning uchun grammatik ma'no, grammatik

---

<sup>1</sup> Қаранг: Салоев Р. Ўзбек тилида исми фоиллар. Филол. фанлари номзоди ...дис. - Самарқанд, 1993.

<sup>2</sup> Ҳожиёв А. Ҳозирги ўзбек тилида форма ясашиши. -Тошкент: Ўқитувчи, 1979. -Б.6-7.

kategoriya va grammatik shakl talqinlari o'zaro uyg'un bo'lishi kerak. Biz ularga quyidagicha ta'rif beramiz:

Grammatik ma'no – lisoniy va nolisoniy munosabatlarning muayyan shakl (qolip)da mujassamlangan mavhum in'ikosidir.

Bu ta'rifimizda lisoniy va nolisoniy munosabatlar masalasini biroz izohlash lozim. Bir necha misolni olib ko'raylik:

1.) (*Kitobi*) so'zshakliga e'tibor bersak. Bu shakldagi (-i) qo'shimchasi kitobning qandaydir uchinchi bir shaxsga tegishlilikini bildirib kelgan. Kitob, albatta, biror shaxsga tegishli bo'ladi va bu xil munosabat nolisoniydir. (*Muborakning kitobi*) birikmasida bu shaxsning kimligi ham aniq ko'rsatilgan.

Ammo ("*O'tgan kunlar*" *kitobi*) birikmasida (-i) egalik, tegishlilik ifodalamayapti, tur va jins nomini o'zaro bog'lab, birikma hosil qilyapti. Bu esa lisoniy munosabatdir.

2.) (*Javondagi kitoblardan oldi*) gapida (-dan) qo'shimchasi bilan kelgan (kitoblar) so'zshakli ma'lum bir manbani – kitoblar majmuasini – ifodalab kelyapti. (-dan) qo'shimchasi shu manbadan biror narsa ajralayotganligini ko'rsatib kelmoqda. Albatta, manba bo'lgach, undan biror narsa ajralishi mumkin va bu nolisoniy munosabatdir. Nolisoniy tushuncha bo'lgan manbani kiritish (-dan) qo'shimchasining nolisoniy ma'nosi sifatida qaralishi mumkin.

Lekin ayni zamonda "*Vijdondan qo'rqing!*" gapida (-dan) qo'shimchasi (vijdon) va (qo'rqmoq) so'zlarini bir-biriga bog'lashga xizmat qilmoqda. Bu esa sof lisoniy munosabatdir.

Mana shunday lisoniy va nolisoniy munosabatlarni ifodalash morfema va qoliplarda mujassamlangan bo'ladi. Shuning uchun grammatik ma'no tarkiban murakkab bo'lib, lisoniy va nolisoniy munosabatlar in'ikosining birikishidan iboratdir. Grammatik ma'noning bunday murakkabligi tilning o'zining alohida tizim-sistema ekanligidan va ayni zamonda borliqni aks ettiruvchi ongning bevosita aksiligidan kelib chiqadi.

Lisoniy va nolisoniy munosabatlar bilan aloqadorlik grammatik ma'noning ichdan ziddiyatli dialektik tabiatga molikligini ta'minlovchi umumiy qonuniyat sifatida qaralishi lozim. Shunday yondashilgandagina grammatik ma'noning dialektik butunlik tabiati ochiladi. Shuning uchun grammatik ma'no ta'rifidagi "lisoniy va nolisoniy" ziddiyatli aniqlovchilar talqinning dialektik mohiyatini ochib beradi.

Grammatik ma'no tilda rang-barang usullar (fonetik, morfemik/sintetik), yordamchi so'zlar (analitik), so'z tartibi, kompozistiya, so'z juftlash, to'liq va qisman takror va boshqalar bilan ifodalanadi. Grammatik ma'noning tashuvchisi va ifodalovchisi grammatik shakldir. Grammatik shaklning hosil bo'lishiga ko'ra leksik (takror, juftlash), morfologik (sintetik), sintaktik (tartib, kompozistiya), fonetik (urg'u, ohang, ton) kabi turlar ajratiladi.

Tabiatan agglyutinativ va sintetik bo'lgan o'zbek tilida grammatik ma'no

ifodalashning asosiy usullaridan biri affiksastiya bo'lganligi sababli, grammatik ma'noning tashuvchisi asosan morfologik-grammatik shakl bo'ladi.

Bundan buyon bizning tadqiq manbaimiz morfologiya bo'lganligi sababli, biz fonetik, leksik, sintaktik grammatik kategoriyalar muhokamasini alohida bir mavzuga qoldirib, asosiy diqqatni morfologik-grammatik kategoriyalarga qaratamiz.

Morfologik-grammatik shakl – bu morfemalar vositasida leksemalar (atov birliklar) ni lisoniy va nolisoniy munosabat ma'nolari bilan murakkablashtirib nutqqa kiritish omilidir.

Morfologik shakllar qoliplar asosida hosil bo'ladi. Masalan, [ot + *-lar* = otning ko'plik morfologik formasi]. Otning ko'plik morfologik formasida qanday lisoniy va nolisoniy munosabatlar mujassamlanganligi masalasi [-lar] ko'plik morfemasining o'zi bilan munosabatdosh morfemalar sirasi (paradigmasi)da ochilishi mumkin. Bu masala o'zbek tilidagi har bir morfologik shakl uchun alohida ravishda tadqiqotimizning keyingi qismlarida ochiladi. Bu erda esa shuni takrorlab o'tish joizki, morfologik shakl nutqda muayyan otlarning ko'plik formasi sifatida voqelanadi va muayyan matnda, muayyan holatda voqelangan va fahm bilan qabul qilinadigan nutqiy ma'nolarga, ya'ni xususiy grammatik ma'nolar (XGM)ga va morfemalar paradigmasida idrokiy tahlil usuli bilan ochiladigan umumiy grammatik ma'no (UGM)ga egadir.

Har bir morfologik formaning XGM va UGMlari umumiy va xususiy ma'nolar oldiga qo'ygan talablarga javob beradigan tabiatga ega bo'lishi kerak.

Morfemalarning mohiyati, ularning UGMlari morfemalar sirasidagina ochilishi mumkinligini bir necha marta takrorlab o'tdik. O'zaro munosabatdosh morfemalar paradigmasi morfologik-grammatik kategoriya deb ataladi.

Morfologik-grammatik kategoriya va morfologik-grammatik shakl o'zaro dialektik butun-bo'lak munosabatlari bilan bog'langan hodisalardir. Morfologik-grammatik shakllar o'zaro barqaror munosabatlar bilan morfologik-grammatik kategoriyalarda birlashadi.

Grammatik kategoriya grammatik shakllarning oddiy arifmetik yig'indisi emas, balki ma'lum turdagi shakllarning barqaror munosabatlari tizmasidan iborat bo'lgan yangi bir butunlikdir, shuning uchun grammatik kategoriya o'zi uchun xos bo'lgan umumiy ma'no (funkstiya)ga ega va bu ma'no shu kategoriya shakllarida ma'lum ko'rinishlarda, turlarda parchalanib, aniqlanib voqelashadi. Shuning uchun kategoriya UGMsi bilan shu kategoriya birliklari formalari UGMlari o'zaro tur-jins munosabatlarida turadi. Agar kategoriya ma'nosi bilan shaklning ma'nosi o'zaro tur-jins munosabatlari bilan bog'lanmasa, har bir holat alohida tadqiq etilishi kerak.<sup>1</sup> \*

---

<sup>1</sup> Менглиев Б. Морфологик воситаларнинг маъновий хусусиятлари ва синтактик имкониятлари: Филол. фанлари номзоди ... дис. автореф. -Тошкент, 1996.

Misol uchun, son kategoriyasining UGMsi atalmishning miqdoriy va va sifatiy tavsifini berishdan iborat. Bu umumiy kategorial ma'no [O] shaklda miqdoriy aniqlik-noaniqlik, sifatiy bo'linmaslikni, [-lar] shaklida miqdoriy noaniq ko'plik va sifatiy bo'linuvchan-bo'linmaslikni ifodalash kabi ixtisoslashgan ko'rinishlarda voqelashadi.

Shuningdek, [-lar]da hurmat ma'nosi ham mavjuddir. [-lar] morfemasidagi hurmat ma'nosi son kategoriyasi UGMsi bilan tur-jins munosabatlarida turmaydi. Shuning uchun [-lar] dagi hurmat ma'nosi son kategoriyasiga mansub bo'la olmaydi. Bu ma'noni ifodalovchi [-lar] morfemasi hurmat yoki sub'ektiv baho paradigmasiga kiradi.

Shakl va kategoriyalar orasida bundagidan ham ko'ra murakkabroq munosabatlar ham bo'lishi mumkin. Masalan, o'zbek tilida ravishdoshlarning UGMsi "fe'lni fe'l bilan aloqaga kiritish" sifatida tavsiflanadi va o'zbek tilidagi ravishdoshlarning barchasi uchun bu UGM umumiydir. Lekin ravishdoshlarning xususiy ko'rinishlari quyidagi paradigmani hosil qiladi:

I. 1. *-gach* – boshqa bir harakatning boshlanish chegarasini ko'rsatish.

2. *-guncha* – boshqa bir harakatning tugallanish chegarasini ifodalash.

3. *-ganda* – boshqa bir harakat sodir bo'lish **fonini** ifodalash.

II. 4. *-b/-ib* – davomli va davomsiz harakatni fe'l bilan bog'lash.

5. *-a/-y* – davomli harakatni fe'l bilan bog'lash.

III. 6. *-gani/-gali* – maqsad ma'noli harakatni boshqa harakat bilan bog'lash.

Barcha ravishdoshlarda ravishdoshning umumiy ma'nosi mavjud: fe'lni fe'lga bog'laydi. Lekin bu UGM birinchi – oltinchi formalarda parchalanmaydi, bo'linmaydi va birinchi – ikkinchi – uchinchi qatorlardagi formalarning o'zaro zidlanish ravishdosh ma'nolari emas, balki payt, zamon (birinchi qatorda), davomli-davomsizlik (ikkinchi qatorda), sabab-maqsad (uchinchi qatorda) kabi ravishdoshlarga aloqador bo'lmagan kategorial ma'nolar asosida tuziladi. Shuning uchun yuqorida sanalgan olti formani ravishdosh kategoriyasining turli shakllari deb baholash mumkin emas. Ravishdoshlik nuqtai nazaridan bu shakllarning barchasi bir xil ma'noga ega. Bu shakllar orasidagi zidlanish ravishdoshlik emas, zamon, tarz, sabab, maqsad ma'nolari asosidadir. Shuning uchun ular ravishdoshlarning turli zamon yoki tarz shakllari emas, har xil zamon va tarz kategoriyalarining ravishdoshlarda ko'rinishi sifatida qaralishi lozim.<sup>1</sup>

---

<sup>1</sup> Менглиев Б. Морфологик воситаларнинг маъновий хусусиятлари ва синтактик имкониятлари: Филол.

Shuning uchun morfologik formani tahlil qilar ekanmiz, undagi kategorial va nokategorial ma'nolarni izchillik bilan farqlab berishimiz lozim. Hurmat funktsional-semantik kategoriyasini o'rganish jarayonida [-lar] morfemasidagi ko'plik ma'nosi ushbu kategoriyaga tegishli emas deb qaralishi kerak va, aksincha, son kategoriyasi ma'nolarini o'rganilayotganda [-lar] morfemasidagi hurmat ma'nosiga shunday qarash lozim. Morfemalarning bunday ma'nolari shakldoshlikni, omonimiyani tashkil qiladi va alohida-alohida o'rganilishi lozim. Lekin omonimiya chizig'ini o'tkazish juda murakkab masala. Masalan, [-gach], [-guncha], [-ganda] shakllarida ravishdoshlik ma'no va vazifasi, hozirgi zamon, kelasi zamon, o'tgan zamon ma'nolari o'ziga xos tarzda mujassamlangan. Bu shakllar barchasi ravishdoshlar va ayni zamonda ravishdoshlar uchun nokategorial bo'lgan ma'nolar bilan murakkablashtirilgan va, aksincha, o'ziga xos zamon ma'nolari [-gach], [-gan- da], [-guncha] qo'shimchalarida zamon kategoriyasi uchun nokategorial bo'lgan "fe'lni fe'lga bog'lash" ravishdoshlik ma'nosi nokategorial bo'lgan "fe'lni fe'lga bog'lash" ravishdoshlik ma'nosi bilan murakkablashtirilgan. Bu ma'nolar shunchalik singishib ketganki, ular orasida omonimiya chizig'ini o'tkazib bo'lmaydi.

Shuning uchun morfologik formalarni kategoriyalar ichida tahlil qilar ekanmiz, biz:

- a) omonimik morfemalarni;
- b) hamroh ma'noli morfemalarni;
- v) qorishiq ma'noli morfemalarni

farqlashimiz lozim.

Omonimik morfemalar turli kategoriya doirasida turli morfema sifatida o'rganiladi. Masalan, [-lar] son kategoriyasi va hurmat kategoriyasining formasidir. Hamroh ma'noli morfemalarda (chunonchi, [-gach], [-guncha], [-ganda] ...) hamroh ma'nolar bir kategorial ma'no ustiga qo'yilgan ustama ma'no sifatida tahlil etiladi va tilda turli kategoriyalarning o'zaro kesishishini ko'rsatadi. Zamon ma'nolari ravishdoshlarga, ravishdoshlik vazifasi zamon ichiga singib ketadi. Boshqacha qilib aytganda, bir kategoriya ma'nosi ikkinchi bir kategoriya formasida shu kategoriyaga mansub bo'lgan kategorial ma'noga ustama, hamroh yoki qorishiq sifatida tajallilanadi, yuzaga chiqadi. Bunday tajallilanuvchi ma'nolarning kategorial sifatida voqelanuvchi ma'nolarga munosabati tilshunoslik fanida hali o'rganilmagan. Masalan, zamon kategoriyasining UGMsi zamon formalari ma'nolarida bo'linib voqelanadi. Lekin ravishdoshlarda tajallilanadigan zamon ma'nolarining zamon kategoriyasi UGM sigamunhosabati qanday? Bu savol ochiq qolib kelmoqda. Shuningdek, (kitobim) so'zshaklida (-im) qo'shimchasida uch turli ma'no bor:

- a) egalik *kategorial* ma'nosi;
- b) birinchi shaxs *nokategorial* ma'nosi;
- v) birlik son *nokategorial* ma'nosi.

Keyingi ikki ma'no "birinchi shaxs" va "birlik son" UGMlarining (-im) tarkibida tajallilaridir. Lekin "birinchi shaxs" UGMsi

*men : biz*

:

*sen : siz*

:

*u : ular*

paradigmasida, "birlik son" UGMsi esa [O] : [-lar] paradigmasida ochiladi. Odatda biz "birinchi shaxs" UGMsini "men" olmoshining nutqiy voqelanishidagi XGMLari bilan munosabatlarini o'rganamiz-u, shu UGM [-im], [-m/-man], [-miz], [-q] ... kabi o'nlab boshqa morfemalarda tajallilanuvchi holatlarni nazardan chetda qoldiramiz.

Hamrohlikning oliy ko'rinishi qorishiq ma'noli morfemalarda bilinadiki, bu morfemalar bir necha kategoriyalar doirasida o'rganilishi lozim. Masalan, "o'qiy" so'zidagi [-y] istak mayli, kelasi zamon, shaxs-son kategoriyalariga birday mansubdir. Uning mohiyati shu uch kategoriya doirasidagina ochilishi lozim.

#### 4-§. O'ZBEK TILI GRAMMATIK KATEGORIYA VA SHAKLLARINING TASNIFI

Biz grammatik kategoriyalardan asosan morfologik kategoriyalar bilan shug'ullanishimiz sababli bu bo'limda morfologik kategoriyalar haqida gap boradi. Dastlab shuni ta'kidlashimiz lozimki, shakl va kategoriya tushunchalari ierarxik (pog'onali) butun-bo'laklik, katta-kichiklik munosabatlari bilan bog'langanligi sababli biror kategoriyaga mansub bo'lmaydigan morfologik shakl<sup>1</sup> bo'lishi mumkin emas. Moddiy ko'rsatkichi bitta bo'lgan kategoriyalarda muayyan morfologik shakl yasovchi asosning o'zi nol ko'rsatkichli – [O] ikkinchi morfologik shaklni tashkil qiladi. Chunonchi, (kitob) – birlik son, (kitoblar) – ko'plik son. Yoki (qizil) – oddiy daraja, (qizilroq) – qiyosiy daraja. Odatda nokategorial deb ataluvchi [-niki], [-dagi], [-dek] morfemalari mohiyatan so'z yasovchi yoki ko'makchidir. Faqat o'zbek tilshunosligida qolip tushunchasi keng ommalashmaganligi sababli o'ta serunum qoliplarda qo'shuvchi faqat so'z emas, balki istagan turdagi atov birligi (ya'ni tub so'z, yasama so'z, so'z birikmasi ...) bo'la olishi hisobga olinmagan. O'zbek tili qoliplarining o'ziga xos tabiati shundan iboratki,

<sup>1</sup> Турсунов У., Мухторов Е. Хозирги замон ўзбек адабий тили. Т. 1992. - 274-280 б.

qo'shuvchi doirasi so'z bilan cheklanmaydi, balki atov birliklarni o'z ichiga oladi. Struktur sintaksis bo'yicha qo'lga kiritilgan o'zbek tilshunosligining eng so'nggi yutuqlari ham shu omilga tayanadi.

Demak, kategoriyaga tegishli bo'lmagan shakl bizning talqinimizda bo'lishi mumkin emas va "morfologik shakl va kategoriyalar" birikmasida "shakl" so'zi ortiqcha, chunki kategoriyaning o'zi har qanday shaklni qamrab oladi.

O'zbek tilida shunday qo'shimchalar mavjudki, ularning tildagi mavqei masalasi hamon uzil-kesil aniqlanmagan: *-jon (oyijon, Hakimjon), -xon (otaxon, Nozimaxon), -oy (Yulduzoy), -cha (uy-cha), -chak (kelinchak), -(a)loq (qizaloq, bo'taloq), -choq (toy-choq, babachoq)*. Yana shunday qo'shimchalar mavjudki, ularning mavqei haqidagi fikrlar zamonaviy tilshunoslikni qondirolmay qoldi: *-u(yu), -da, -oq, -mi, -chi, -gina, -dir, -alla kabi*.

"Adabiyotlarda so'zga ajratishning asosiy tamoyillari sifatida tushuncha ifodalash, shakliy yaxlitlik, fonetik bir butunlik belgilari ko'rsatiladi. Agar bu belgilarga jiddiy e'tibor beradigan bo'lsak, ularning hammasi mustaqil so'zlarni ajratishga yordam beradi. Yordamchi so'zlar esa bunday xususiyatga ega emas. Shunday ekan, yordamchi so'zlarni, masalan, -u, -yu, -da singarilarni "so'z" atamasi ostida birlashtirish mumkinmi? Tabiiyki, yo'q, chunki ular "so'z" (morfologik so'z) tamoyillarining birontasiga ham javob bermaydi".<sup>1</sup>

Bu fikrlar biz ikkinchi guruhda ko'rsatgan qo'shimchalarga oid bo'lsa-da, uni bemalol birinchi guruhdagilarga ham tadbiiq etish mumkin.

Xo'sh, ularning so'z emasligi shubha tug'diradimi? Bir qarashda bu savolga javob berish juda osondek tuyuladi. Sababi, yuqorida aytib o'tilganidek, ularning shaklan va mazmunan so'zga yaqin kelmasligi aniq. Biroq ularning qo'shimchalar emasligini ham ko'rsatuvchi omillar ham yo'q emas. Bu omillardan asosiysi sifatida doimo so'z oxiriga ko'chuvchi so'z urg'usining bu birliklarga ko'chmasligini ko'rsatish mumkin.

Ammo bu omilni kuchsizlantiruvchi keyingi jihat mavjud bo'lib, ularning "o'z" urg'usi ham yo'q. Demak, ular qo'shimchalardan urg'u olmasligi, so'zlardan esa urg'usi yo'qligi bilan farqlanadi.

Ularining morfologik qo'shimcha emasligi, shundan kelib chiqib morfologik kategoriyalarga birlasha olmasligi ham aniq. Morfologik kategoriyalar til sistemasining eng zich, eng uyushgan a'zolaridir. Ifodali qilib aytganda, tabiat jismlari suyuq, gazzsimon, amorf, qattiq (qattqlikning bir necha darajasida) bo'lgani kabi, til kategoriyalari ham uyushuv darajasiga ko'ra bir-biridan farq qiladi: lug'aviy, sintaktik, turkumiy kategoriyalardan morfologik kategoriyalar bu jihatdan ancha ustun turadi. Tilning sistem tabiati aynan morfologik

---

<sup>1</sup> Нурмонов А., Саримсоқов Б. Тил системасида сўзнинг ўрни ва сўзларни туркумларга ажратиш муаммолари // Ўзбек тили ва адабиёти, 1999, 5-сон, -Б.20.

kategoriyalarda yaqqol namoyon bo'ladi. Morfologik kategoriya a'zolari o'zaro izchil ziddiyatlar tizimi hosil qiladi, bir umumiy grammatik ma'noni parchalaydi. Yuqoridagi birliklarda esa bu xususiyat yo'q.

N.D. Arutyunova shu tipdagi birliklar mavqei borasida so'z yuritib yozadi: "...qandaydir X so'zini shakllantiruvchi n "yordamchi elementi", agar X dan kelib chiquvchi qandaydir ZX birikmasi mavjud bo'lsa va unda Z, albatta, o'sha n yoki n ga bog'liq boshqa yordamchi element bilan shakllansagina va faqat shunda, affikslar sirasiga kiradi. Aks holatda, ya'ni bunday birikma tilda bo'lmasa, n elementi yuklamalar sirasiga kiradi".<sup>1</sup>

Ya'ni, "*baxti*" so'zi tarkibidagi *-i* shuning uchun ham qo'shimchaki, "insonning baxti" birikmasi mavjud bo'lib, unda "inson" so'zi -ning qo'shimchasi bilan shakllanadi.

Bu qo'shimcha *-i* ga bog'liqligini shu qolipda yasalgan boshqa ko'plab birikmalar ko'rsatadi: uying tomi, ko'chaning boshi, oying boshi...

"*Qachondir*" so'zidagi *-dir* shuning uchun yuklamaki, *-dir* bilan shakllanuv "*qachon*" so'zini *-dir* ga bog'liq biron bir yordamchi element bilan shakllangan so'z bilan bog'lamaydi.

Bu qoida bir qarashda mukammaldek tuyulsada, ammo aslida muayyan kamchiliklardan holi emas. Aftidan, bu kamchiliklar turkiy tillarning o'ziga xos xususiyatlari, tabiiyki, bu qoidada aks etmaganidan kelib chiqadi.

Birinchiidan, turkiy tillarda birikma tarkibida muayyan o'zaro bog'liq elementlar bilan shakllanuvni majburiy holat deb belgilab bo'lmaydi. Masalan, inson baxti birikmasi ham birdek qonuniydir. Bu o'rinda o'zaro bog'liq elementlar bilan shakllanuv emas, shakllanuv imkoniyati xususida gapirgan ma'qulroq.

Ikkinchiidan, ushbu qoidaga to'la amal qilish, turkiy tillar uchun tabiiy bo'lgan ayrim morfologik kategoriyalarni parchalab yuboradi.

Xususan, son kategoriyasi a'zosi -lar muayyan birikmada birikma a'zolaridan birining tarkibida turib, ikkinchisining shakllanuviga bevosita ta'sir ko'rsatmaydi.

Turkiy tillar uchun, hatto, kesimning ega bilan sonda moslashuvi shart emas: *Daraxtlar gulladi. Yillar o'tdi. Odamlar yig'ildi.* Bundan *-lar* yuklama degan xulosaga kelish mumkin.

Biroq *-lar* ning umumiy grammatik ma'nosi (noaniq miqdoriy ko'plik ifodalash) unga sintaktik-sintagmatik xususiyatlar beradi.

*-lar* bilan shakllangan so'z faqat noaniq miqdor ifodalash zarur bo'lgan matndagina yuzaga chiqadi va faqat noaniq miqdor ifodalovchi so'z bilan bog'lana oladi. Bu xususiyat ancha kuchli bo'lib, hatto aniq miqdor ifodalovchi so'z bilan bog'langanda, undagi aniqlikni susaytiradi:

---

<sup>1</sup> Общее языкознание. Внутренняя структура языка. М., 1972. -С.223.

*Etti yillardan beri oyog`i shol bo`lib yotgan ekan* (Sirli olam).

“Yillar” bilan munosabatga kirishuv natijasida aniq miqdor ifodalovchi son – “etti” ham noaniq – “ettiga yaqin” miqdorni ifodalamoqda.

Bundan tashqari, -lar matn butunligini ta`minlashda son kategoriyasining ikkinchi ko`rsatkichi O – nol ko`rsatkich bilan birgalikda ishtirok etadi. Ularning sistemali o`rin almashuvi matn strukturasi izchil ta`sir etadi:

*Ikkita qovoq idish osig`liq turibdi.*

*Ularda qatig bo`lsa kerak*

(G`.G`ulom).

Bu mikromatnni tashkil etuvchi birinchi gapdagi O – nol ko`rsatkichli birikma (*ikkita qovoq idish*) ni ikkinchi gapda *-lar* li so`zshakl (*ular*)ga almashtirish imkonini O va *-lar* orasidagi paradigmatic munosabatlar bermoqda: ular birdan ortiq miqdorni birday ifodalay oladi, shunday miqdor ifodalangan o`rinlarda bir-birini bemalol almashtiradi. Aytilganlarni hisobga olgan holda, *-lar* ni yuklama qatoriga o`tkazishga aslo qo`shilib bo`lmaydi. Demak, turkiy tillarda, xususan o`zbek tilida muayyan birliklarning lisoniy mavqeini aniqlashda, tilning o`ziga xos grammatik va hatto pragmatik xususiyatlarini ham hisobga olishga to`g`ri keladi.

N.D. Arutyunova taklif etgan qoidadan turkiy tillar tabiatini hisobga olgan holda quyidagicha qoidani keltirib chiqarish mumkin. Muayyan ko`rsatkich -n, agar birikma, gap, matn qurilishiga muayyan grammatik ta`sir ko`rsatsa, o`ziga o`xshashlari bilan izchil ziddiyatli bog`lanishlar asosida distributiv munosabatlarda tursa, qo`shimcha, aks holda yuklamadir.

Endi ko`rsatib o`tilgan birinchi guruh qo`shimchalarga qaytsak (ikkinchi guruhdagi qo`shimchalarning yuklama ekanligi keng tan olingan fakt bo`lganligi tufayli ularni tahlil etmadik).

Ular birikma, gap, matn qurilishiga emas, uslubiga oiddir. O`rin almashuvlari nihoyatda cheklangan bo`lib, almashuv natijasida yuzaga kelgan o`zgarishlar grammatik emas, mazmun planiga (presuppozitiv planga) oid bo`ladi.

Qiyoslang: *Otaxon, biroz dam oling – Otajon, biroz dam oling.*

Birinchi gapda begona, ulug` yoshli erkak, ikkinchi gapda yoshidan qat`iy nazar o`z otasi haqida gap boryapti.

Ushbu qo`shimchalarning matndan chiqib ketishi matn qurilishiga ta`sir qilmaydi, faqat ko`rsatib o`tilgan ma`no turlari yo`qoladi: *Ota, biroz dam oling.*

Demak, ularni yuklamalar sirasiga qo`shish mumkin. Yuklamalar so`z va qo`shimchalar oraliq`idagi bosqich – oraliq uchinchi bo`lib, til morfologik sistemasi butunligini ta`minlashda o`ziga xos o`ringa ega.

O`zbek tilida quyidagi morfologik kategoriyalar ajratiladi:

1. Son kategoriyasi - [O] : [-lar]

2. Kelishik kategoriyasi - [O] : [-ning] : [-ni] ...
3. Kesimlik kategoriyasi - [O] : aniqlik, buyruq, shart mayli
4. O'zgalovchi kategoriyasi - [O] : [-ish], [-i/b], [-gan]...
5. Nisbat kategoriyasi - [O] : [-t/-dir], [-il] ...
6. Egalik kategoriyasi - [O] : [-i/m], [-i/ng] ...
7. Qiyoslash kategoriyasi - [O] : [-roq] ...

Yuqorida taqdim etilgan grammatik kategoriyalar tilshunosligimizda bir necha jihatdan tasnif etilgan.

Biz bu grammatik kategoriyalarni tasnif etishda istagan lisoniy birlikning serqirraligi va shu asosda ularning tasniflari ham turli-tuman bo'la olishi metodologiyasiga tayanamiz.<sup>2</sup>

Shuning uchun bu morfologik kategoriyalarning bir necha jihatdan tasniflarini beramiz.

I. Kategoriyadagi formalarning ma'noviy tarkibiga ko'ra grammatik kategoriyalar sodda va murakkab kategoriyalarga ajratilishi mumkin. Sodda kategoriyalar formalari o'zlari mansub bo'lgan ma'lum bir kategoriya ma'nolarini va ularga hamroh bo'lgan yondosh ma'nolarni ifodalashga xizmat qilib, butun mohiyati bilan bitta kategoriyaga mansub bo'ladi. Son, qiyoslash kabilar.

Soddalikni bu o'rinda dialektik tushunish lozim. Soddalik bu kategoriyalarni ichki dialektik qarama-qarshilikdan mutlaqo ozod etmagan. Ammo bu qarama-qarshi tomonlar o'zaro bir-birini taqozo etadi, bir-biridan kelib chiqadi, bir-biridan ozod bo'lolmaydi. Masalan, son kategoriyasining ma'nosi miqdoriy va sifatiy belgilarning ma'lum yig'indisidan iborat. Bu ikki ma'noni bir-biridan ajratish imkoni yo'q. Shuningdek, faqat sifatiy, faqat miqdoriy ma'no ifodalovchi boshqa mustaqil kategoriya ham mavjud emas.

Kelishik kategoriyasi sintaktik jihatdan so'z birikmasidagi oldingi so'zni keyingisi bilan bog'laydi. Shundan kelib chiqib, kelishik doim tobelikni ifodalaydi (so'z birikmasida oldingi so'z doim tobe).

Qiyoslash kategoriyasi belgining qiyosan ekanligini ko'rsatadi.

Nisbat kategoriyasi fe'lni xarakterlovchi kategoriyadir.

Murakkab kategoriyalarning formalarida ma'no murakkab bo'lib, ularda bir necha kategoriyalarga mansub bo'lgan ma'nolarni ajratish mumkin. Qorishiq ma'noli morfologik formalar murakkab kategoriyalarning birliklaridir. Murakkab kategoriyalar sifatida egalik, o'zgalovchi, kesimlik kategoriyalari ko'rsatilishi mumkin.

Egalik kategoriyasi formalarida uch xil ma'no mujassamlangan bo'ladi:

1. Lisoniy va nolisoniy egalik munosabatlarini ifodalash (egalik kategoriyasi uchun

<sup>2</sup> Мадраҳимов И. Ўзбек тилида сўзнинг серқирралиги ва уни тасниф этиш асослари: Филол. фанлари номзоди ... дис. -Тошкент, 1994.

kategorial ma'no).

2. Shaxs ma'nosi (egalik kategoriyasi uchun nokategorial ma'no).

3. Son ma'nosi (egalik kategoriyasi uchun nokategorial ma'no).

Kesimlik kategoriyasi formalari uchun tasdiq-inkor, mayl-zamon, shaxs-son ma'nolarining birikkan holda ifodalanishi xos bo'lib, bu ma'nolar so'zshakl tarkibida bitta qo'shimcha bilan ham, bir necha qo'shimcha bilan ham ifodalanishi mumkin. Masalan, "*kitobni ber*" gapida "*ber*" so'zshakli tasdiq, buyruq mayli, ikkinchi shaxs, birlik son ma'nolarini voqelashtirib kelmoqda va bu ma'nolar bitta [O] bilan ifodalanmoqda. Xuddi shunday, "*Otam – o'qituvchi*" so'zshaklida tasdiq, aniq mayl, hozirgi kelasi zamon, uchinchi shaxs, birlik ma'nosi [O] bilan ifodalanmoqda.

"*Kitobni olmadingiz*" gapida inkor ma'nosi [-ma] qo'shimchasi bilan, mayl-zamon ma'nosi [-di] bilan, shaxs ma'nosi [-ng] bilan, ko'plik ma'nosi [-iz] bilan ifodalanmoqda. "*Kitobni olma*" gapida inkor ma'nosi [-ma] bilan, mayl-zamon, shaxs-son ma'nolari [O] bilan berilmoqda. (*Olmadingiz*) so'zshaklida to'rtta qo'shimchani bo'lishi bu so'zda to'rt morfologik ko'rsatkichning borligidan darak bermaydi. (*Olmadingiz*) (*ol*) so'zining ma'lum bir turdagi kesimlik formasini tashkil qiladi.

Murakkab kategoriyalarning formalari sirasida ayrim ma'nolar ichki paradigmalarni tashkil etishi mumkin. Bu paradigmalar to'liq yoki noto'liq bo'la oladi. Chunonchi, egalik formalari shaxslar bo'yicha zidlangan to'liq paradigmani beradi:

I shaxs. -m

II shaxs. -ng

III shaxs. -i, -si

Son bo'yicha bu paradigma noto'liq:

Birlik son - [O]

Ko'plik son - [-iz/-lar]

Paradigmaning noto'liqligi shundan iboratki, III shaxsda [-lar] qo'llanishi qat'iy emas va (kitoblar) so'zshakli moliklarning ko'pligini emas, mamluklarning ko'pligini ifodalaydi. Paradigma to'liq bo'lganda, (kitoblar) so'zshakli faqat bir ma'noni – "kitob" mamlukining moliklari ko'pligini ifodalashi lozim edi. [-lari] ba'zi hollarda mamlukning emas, balki moliklarning ham ko'pligini ifodalaydi va shunda birlik son egalik qo'shimchasi [-i/-si] bo'lsa, ko'plik son [-lari] bo'ladi.

O'zgalovchi kategoriyasining sifatdosh va ravishdosh shakllarida zamon bo'yicha zidlanish deyarli to'liq, harakat nomlarida esa bu zidlanish to'liq paradigma bermaydi (quyidagi

jadvalga qarang).<sup>1</sup>

<b>o'zgalovchi formalari zamonlar</b>	<b>sifatdosh</b>	<b>ravishdosh</b>	<b>harakat nomi</b>
<b>h o z i r g i</b>	<i>-yotgan</i>	<i>-ganda</i>	<i>/-ish/</i>
<b>o' t g a n</b>	<i>-gan</i>	<i>-gach</i>	<i>/-ganlik/</i>
<b>k e l a s i</b>	<i>-digan</i>	<i>-guncha</i>	-

Jadvaldan ko'rinib turibdiki, sifatdosh va ravishdoshlarda o'ziga xos to'liq zamon paradigmasi mavjud bo'lsa, harakat nomlarida bunday paradigma mavjud emas.

Murakkab kategoriyalarning ichki paradigmalari, murakkab kategoriya formalarining ma'no xususiyatlari quyida alohida- alohida ko'rib o'tiladi. Hozircha bizga kategoriya shakllarining **soddalik va murakkablik** tabiatini anglab olish kifoya.

Morfologik kategoriyalarning boshqa tasniflariga o'taylik.

II. Morfologik kategoriyalarning so'z turkumlari yoki gap bo'laklariga xosligi jihatidan tasnifi. Bu tasnif asosiga ko'ra morfologik kategoriyalar leksik-morfologik va funkstional-morfologik turlarga bo'linadi.

Leksik-morfologik kategoriyalar shunday morfologik kategoriyalarki, ular so'zlarning ayrim guruhlari – turkumlariga xos. Bunday kategoriyalar sirasiga son, qiyoslash, nisbat, o'zgalovchi kategoriyalari kiradi.

Son kategoriyasi asosan predmetlik tushunchasini ifodalovchi otlar, ot-olmoshlarga, qiyoslash kategoriyasi sifatlarga, nisbat, o'zgalovchi kategoriyalari fe'llarga xos leksik-morfologik kategoriyalar sifatida ajratilishi lozim.

Funkstional-grammatik kategoriyalarga kelishik, kesimlik kategoriyalari kiradi.

Kesimlik kategoriyasi gap markazini – kesimni shakllantirsa, kelishik kategoriyasi uning boshqa bo'laklarini shakllantiradi. Odatda bu tasnif asosiga befarq deb qaraluvchi egalik

---

<sup>1</sup> Менглиев Б. Морфологик воситаларнинг маъновий хусусиятлари ва синтактик имкониятлари: Филол. фанлари номзоди ... дис. автореф. -Тошкент, 1996.

kategorisini ham funkstional kategoriyalar jumlasiga kiritish mumkin. Faqat egalik kategoriyasining sintaktik mavqei qolgan funkstional-morfologik kategoriyalardan biroz farq qiladi. Ya'ni bu kategoriya formalari biror gap bo'lagini shakllantirish uchun emas, so'z birikmasi qurilishini ta'minlash uchun xizmat qiladi. Egalik kategoriyasi otli so'z birikmalarida tobelantiruvchi, ya'ni hokimni shakllantiruvchi omildir.

III. Morfologik kategoriyalar sintaktik qobiliyatlarining yo'nalishlariga ko'ra ham tasnif etilishi mumkin. Nutq chiziq tabiatiga ega bo'lganligi uchun, undagi barcha xususiyliklar birin-ketinlikda joylashadi. Istagan birlikdan keyin ham, oldin ham nimadir (bo'shliq ham shu jumladan) turadi. Shunga ko'ra grammatik kategoriyalarning sintaktik qobiliyatlari "oldingisi bilan" va "keyingisi bilan" sifatida belgilanishi mumkin. Masalan, (*kitobni*) so'zshaklidagi (-ni) bu so'zshaklidan keyin o'timli fe'l kelishi shartligini, ya'ni bu so'zshaklning keyingiga aloqadorligini ko'rsatyapti.

Aksincha, (*kitobi*) so'zidagi (-i) bu so'zshaklning o'zidan oldin turgan qandaydir qaratqich aniqlovchi bilan aloqasi borligini ko'rsatib turibdi.

O'zbek tilida egalik, nisbat, kesimlik, qiyoslash, son kategoriyalari so'zshakllarining "oldingisi bilan" aloqalarini ko'rsatadi. Kelishik kategoriyasi so'zshaklning "keyingisi bilan" aloqasi borligini ko'rsatadi.

Turkiy tillarda tobe-hokimlik munosabati "tobe + hokim" kabi qat'iy bo'lganligi sababli "oldingisi bilan" belgili morfologik kategoriyalar ayni zamonda "hokimlik" belgili, "keyingisi bilan" belgili kategoriyalar esa "tobelik" belgilidir. Shunday qilib biz morfologik kategoriyalarning uch xil tasnifini bera olamiz va bularni quyidagicha umumlashtirish mumkin:

sintaktik qobiliyat yo'nalishiga ko'ra ixtisoslashganligi		oldingisi bilan		keyingisi bilan
Leksik	Otlarda	(son)		–
	sifatlarda	qiyoslash		–
	fe'llarda	nisbat		o'zgalovchi
Funkstional	Gap doirasida	gap markazi shakli	kesimlik	–
		gap kengay- tiruvchilari ri	–	kelishik
	So'z birikmasida		Egalik	Kelishik

5-§. GRAMMATIK MORFOLOGIK KATEGORIYALAR  
TAHLILI. EGALIK KATEGORIYASI

Bu morfologik kategoriyaning asosiy ko'rsatkichlari sifatida quyidagilar sanaladi: *-m, -miz; -ng, -ngiz, -nglar, -laring; -i, -lari*.<sup>1</sup> Boshqacha qarashlar ham mavjud bo'lib, asosiy farq o'zak unli yoki undosh bilan tugaganda yuzaga keluvchi variantlar va yuqoridagi qo'shimchalar tarkibidagi *-lar* ga munosabat bilan bog'liq ravishda yuzaga keladi.<sup>2</sup>

O'zakning fonetik qurilishi tabiatidan kelib chiquvchi ko'rinishlarni alohida-alohida affiks emas, bir invariant variantlari sifatida baholab, quyida shartli ravishda u invariantni [(i)m], [(i)miz], [(i)ng], [(i)ngiz], [(s)i] tarzida belgilaymiz.

Egalik affiksi tarkibida ko'rsatiluvchi *-lar* esa ega shaxs haqida emas, balki egalik qilinayotgan narsa haqida ma'lumot tashigani, shu narsalarning ko'pligiga ishora qilganligi tufayli ham uni bu kategoriya bilan bog'lab bo'lmaydi.<sup>3</sup> Masalan:

*...Antey kuchni erdan oladi, Said Ahmad... ularning maqtovlaridan*

(N. Fozilov).

(Maqtovlari) so'zshaklidagi *-lar* maqtovning ko'pligini ko'rsatmoqda.

Demak, bu kategoriya ko'rsatkichlari sifatida quyidagilarni olamiz: [(i)m], [(i)miz]; [(i)ng], [(i)ngiz]; [(s)i].

Bu qo'shimchalarni quyidagicha holatlarda kuzatish mumkin:

I. *mening uyim, bizning uyimiz;*

*sening uying, sizning uyingiz...*

*gulning bargi, tomning labi.*

II. *olma guli, yo'l cheti.*

III. *Andijon shahri, matematika darsligi, mart oyi.*

IV. *Men aytganim yo'q. U borgani yo'q.*

V. *ulardan biri, talabalardan to'rttasi.*

VI. *ko'zi qora qiz.*

Ushbu ko'rinishlar ichida IV xil qo'llanish fe'l guruhiga mansub so'zning egalik qo'shimchasi olib shakllanishiga ko'ra boshqalaridan farq qiladi. Boshqa xil qo'llanishlarda egalik qo'shimchalari ism guruhiga oid so'zlar bilan qo'llanilgan.

Bu xil qo'llanishdagi egalik qo'shimchasi semantikasiga nazar tashlash unda egalik-nisbatlash ma'nosi yo'qolib, shaxs-son ma'nosi kuchayganini ko'rsatadi. Aftidan, egalik

<sup>1</sup> Ўзбек тили грамматикаси. I т. -Тошкент: Фан,1975. -Б.144.

<sup>2</sup> Иванов С.Н. К истолкованию категории принадлежности // Советская тюркология. 1973. N 1. -С.26-36. Нурмонов А. ва бошқ. Ҳозирги замон ўзбек адабий тилидан таблицалар. -Андижон. 1985. -Б.44. Нигматов Х.Г. Функциональная морфология тюркоязычных памятников XI-XII вв. -Ташкент:Фан,1989.-С.68 80. Шоабдурахмонов Ш. -(и)н эгалик қўшимчиси // Ўзбек тили ва адабиёти. -1993. N 2. -Б.36-38. Дмитриев Н.К. Категория принадлежности // ИСГТЯ II. -М., 1956.

<sup>3</sup> Иванов С.Н. К истолкованию категории принадлежности // Советская тюркология. 1973.N 1. -С.28. Рахматуллаев Ш. Ўзбек тилида тобе боғланишининг турлари. Тошкент., 1993. -Б.37.

qo'shimchalari bu o'rinda "yo'q" so'zi, pozitsiya kabilar bilan birlashib kesimni shakllantiruvchi vosita bo'lib qolgan.

Shuning uchun, bu xil qo'llanishni egalik kategoriyasi sirasida o'rganmaymiz.

I xil qo'llanish eng ko'p uchrovchi holat bo'lib, egalik nuqtai nazaridan II holat undan farq qilmaydi. Bu ikki qo'llanish orasidagi farq kelishik mohiyatiga bog'liq. Egalik qo'shimchalarining asosiy sintaktik vazifasi hisoblanuvchi turkiy izofa hosil qilish turkiyshunoslar e'tiborini uning semantik jihatiga nisbatan ko'proq jalb qilib keladi.<sup>1</sup> Xususan, an'anaviy o'zbekshunoslikda bu masalaga qarashlarni yirik uch guruhga jamlash mumkin:

Birinchi guruhdagilar boshqaruv va moslashuv haqida (A.G`ulomov, F. Abdullaev).

Ikkinchi guruhdagilar bitishuv va kombinastiyali moslashuv haqida (A.S. Safoev).

Uchinchi guruhdagilar boshqaruv haqida (A.A. Azizov) fikr yuritadilar.

Bizningcha, bu hodisaning sintaktik mohiyatini belgilashda Sh. Rahmatullaevning keyingi tadqiqotlari alohida o'rin tutadi. U bu xil holatlarni muvofiqlashuv (koordinastiya) deb ataydi. Yuqorida ko'rsatib o'tilgan I-VI holatlarning asosiy ko'pchiligida muvofiqlashuvning qanday asosda va qanday nisbatda hosil bo'lishini ko'rsatadi.

Shu bilan birga u moslashuvning turkiy tillardagi o'rni borasida ham fikr bildiradi: "...o'zbek tilida rus tilidagi sifatlovchi bilan sifatlanmish aloqasiga teng keladigan moslashuv yo'q ...".<sup>2</sup>

Shuningdek, "qaratuvchilik bog'lanmada alohida e'tibor talab qiladigan hodisa – nisbatlovchilar" ekanligi va "...tuslovchilar bilan nisbatlovchilar orasida o'xshashlik juda kuchli"ligini ta'kidlab o'tgan.<sup>3</sup>

Darhaqiqat, egalik ko'rsatkichlari – nisbatlovchilar shaxs-son, modallik ma'nosini ifodalashiga ko'ra tuslovchilarga yaqin keladi. Shu bilan birga, harakat doirasi (gap va so'z birikmasi)ga ko'ra, muayyan ma'no xususiyatiga ko'ra (xususan, nisbatlovchilarda qarashlilik ifodalash) bir-biridan farq qiladi. Nisbatlovchilar ifodalovchi ma'nolar quyidagicha paradigma hosil qiladi:

---

<sup>1</sup> А. Фуломов, М. Асқарова. Ҳозирги ўзбек адабий тили. -Тошкент: Ўқитувчи, 1987. Ф. Абдуллаев. Сўз бирикмаси синтаксисининг айрим масалалари // Ўзбек тили ва адабиёти. 1969. N 3. Сафаев А.С. Исследования по синтаксису узбекского языка. -Ташкент: Фан, 1968. Боровков А.К. Природа турецкого изафета // Академику Н.Я. Марру. -М.-Л., 1935. Гаджиева Н.З. **Природа изафета в тюркских языках** // Советская тюркология. -1970. N 2. Фуломов А. Ўзбек тилида аниқловчилар. - Тошкент, 1941. Раҳматуллаев Ш. Ўзбек тилида тобе боғланишнинг турлари. -Тошкент, 1993. Чариев А. К изучению синтаксической связи в притяжательно-определяющей конструкции в тюркских языках //Советская тюркология, 1974. N 2. ва бошқ.

<sup>2</sup> Раҳматуллаев Ш. Ўзбек тилида тобе боғланишнинг турлари.-Тошкент, 1993. -Б.20.

<sup>3</sup> Раҳматуллаев Ш. Ўзбек тилида тобе боғланишнинг турлари. -Тошкент, 1993. -Б.35.

- (i)m* – birlikdagi I shaxsga qarashlilik + betaraf modal ma’no.
- (i)miz* – ko’plikdagi I shaxsga qarashlilik + (nomuntazam) modal ma’no (kamtarlik).
- (i)ng* – birlikdagi II shaxsga qarashlilik + modal ma’no (sensirash).
- (i)ngiz* – ko’plikdagi II shaxsga qarashlilik + modal ma’no (sizsirash).
- (s)i* – birlik va III shaxsga qarashlilik + betaraf modal munosabat.<sup>1</sup>

Sintaktik jihatdan esa nisbatlovchilar "oldingiga" ya’ni tobega bog`liqlikni ifodalaydilar. Turkiy tillarda so’z birik masida “oldingi” ning tobe, “keyingi” ning hokim ekanligini hisobga olib, nisbatlovchili so’zshakl doimo hokim pozistiya egallaydi deyish mumkin.

Shu bilan birga, “oldingi” ifodalangan ham (a), ifodalanmagan ham (b) bo’lishi mumkinligini hisobga olib, ikkinchi holatda uning hokimlik pozistiyasi sezilarsizligini ham eslatib o’tish joiz:

a) *Bahorda martning oxirlariyu aprelning boshlarida Farg`ona safariga otlandik. Tog` havosi.* (N.Fozilov)

b) *Ukasiga o`xshab akamizning o`zi ham beva. Mabodo bolasi kerak bo`lsa, teatralniy institutga borasiz.* (N.Fozilov)

Nisbatlovchilarning semantik va sintaktik tabiatiga qisman nazar tashlash V xil qo’llanishning I va II xil qo’llanishlardan mohiyatan farq qilmasligini ko’rsatadi. Ushbu qo’llanishlar orasidagi farq nisbatlovchilar emas, kelishiklar mohiyatidan kelib chiqadi.

Ammo III xil qo’llanish shaklan II xil qo’llanishga yaqin kelsa-da, mohiyatan undan tubdan farq qiladi. Bu xil birliklarga tilshunoslar alohida e’tibor bilan qarab kelishgan.<sup>2</sup> Xususan, A. G`ulomov bunday qo’llanishda oldingi a’zo belgisiz qaratqichda turibdi, deb hisoblaydi. Shu bilan birga, “Ba’zi belgisiz qaratqichlar ma’no va grammatik xususiyatlariga ko’ra hech vaqt belgili holatda qo’llanmaydilar”,<sup>3</sup> – deb hisoblaydi.

Sh. Rahmatullaev A. G`ulomov fikrini davom ettirib, modomiki, hech qachon belgili qo’llash imkoni yo’q ekan, demak, “...bunday bog`lanmalarning birinchi a’zosini belgisiz qaratqich kelishigida deb emas, balki bosh kelishikda deb qarash lozim, bunda bosh kelishik tobelik ko’rsatkichi bo’ladi”<sup>4</sup> degan xulosaga keladi.

Bu o’rinda ham, ko’pincha kuzatilganidek, egalik kategoriyasi ko’rsatkichining

<sup>1</sup> -(с)и нинг кўплик ёки “сизлаш” маъносини ифодаловчи деб кўрсатилувчи -лари шаклини (М., каранг: Раҳматуллаев Ш. Ўзбек тилида тобе боғланиш турлари. -Тошкент, 1993. -Б.36. Ўзбек тили грамматикаси. I т. -Тошкент: Фан, 1975.-Б.145-150) бу шаклдаги “сизлаш” маъноси адабий тил учун меъёрий эмаслиги ва кўпликни ифодалашдаги ўзига хос жиҳатлари (юкорига каранг) туфайли бу парадигмага киритмадик.

<sup>2</sup> Гуломов А. Ўзбек тилида аниқловчилар. -Тошкент, 1941. -Б.25-29. Ўзбек тили грамматикаси. I т. -Тошкент:Фан,1975. -Б.196-199. Раҳматуллаев Ш. Ўзбек тилида тобе боғланишнинг турлари. -Тошкент, 1993. -Б.41-42.

<sup>3</sup> А. Гуломов.Ўзбек тилида аниқловчилар. -Тошкент,1991.-Б.27.

<sup>4</sup>Раҳматуллаев Ш.Ўзбек тилида тобе боғланишнинг турлари.Тошкент, 1993. -Б.49.

mohiyatiga deyarli e'tibor berilmaydi. Faqat

Sh. Rahmatullaev" ...izofa bog`lanmasida muvofiqlashuv voqea bo`ladi, buning dalili bo`lib, birinchidan, shaxs ma'nosining ifoda vositalari ( birinchi a'zoda so'zshaklning asosi, ikkinchi a'zoda morfema) va mutanosiblikda qatnashmaydigan kelishik (birinchi a'zoning bosh kelishigi) xizmat qiladi"<sup>1</sup> deb o'tadi.

Bu xil qo'llanishda aynan egalik qo'shimchalarining alohida rol o'ynashiga e'tibor berilgan qarashlar ham mavjud. Jumladan,

S.N. Ivanov bu xil birikmalar yuzaga kelishini III shaxs egalik qo'shimchasining o'ziga xos xususiyatlari bilan bog`laydi: "Egalik kategoriyasida III shaxsning alohida tabiatliligiga III shaxs boshqa shaxslar bilan munosabatda turmaydigan so'z birikmalari mavjudligi qat'iy ishora qiladi".<sup>2</sup> Bu o'rinda S.N. Ivanov *Toshkent shahri, o'qish kitobi* kabi birikmalarni "II izofa" deb nomlaydi.

Ko'rinadiki, birikmaga qanday munosabat bildirishidan qat'iy nazar, ikkinchi komponent tarkibidagi egalik ko'rsatkichini egalik kategoriyasi sirasidan chiqarilmaydi. Holbuki, bu o'rinda egalik kategoriyasiga xos bo'lgan nisbatlash, partonimik ma'nolar sezilmasligi ana shu xil xulosaga kelishga asos bo'lishi mumkin edi. Ammo shu bilan birga egalik kategoriyasi sirasidan chiqarib yubormaslik zaruriyati ham sezilib turadi. Biroq bu zaruriyatni egalik kategoriyasiga berilgan an'anaviy baholar bilan nazariy isbotlab bo'lmaydi. Egalik kategoriyasi bilan bog`liq ravishda tilga olinadigan yana bir qiziq holat "*bizning ko'cha*", "*sizning uy*" kabi birikmalarda ro'yobga chiqadi. Qaratqich kelishigi va egalik kategoriyasi orasidagi zich funkstional aloqa shu xil birikmalarni ham egalik kategoriyasi bilan bog`lashga olib kelgan. Xususan, Sh. Rahmatullaev shunday yozadi: "Avvalo shuni ta'kidlash kerakki, qaratqich kelishigining shakli deb faqat *-ning* affiksini ko'rsatish etarli emas, qaralmishdagi nisbatlovchini ham qo'shib aytish kerak. Shu jihatdan yondashsak, bunday bog`lamaning ikkinchi a'zosida nisbatlovchining qatnashmasligi elliptik holat".<sup>3</sup> Ushbu fikrning birinchi qismiga (shu bilan birga, kelishik va egalik alohida-alohida kategoriyalar ekanligini unutmaslik kerakligini qayd qilib) qo'shilgan holda, ikkinchi qismiga biroz boshqacharoq munosabat bildiramiz. Bu xil qo'llanishlarda qaratqich kelishigida sintaktik imkoniyat (so'zni so'zga bog`lash) susayib, semantik imkoniyat (qarashlilik) kuchayishi borasida ushbu ishning "Kelishik kategoriyasi" qismida to'xtalganmiz. Aftidan, bu o'rinda kishilik olmoshlari (asosan "siz" va "biz") va qaratqich kelishigining qo'shilishi egalik affiksi tomonidan ifodalanuvchi

---

<sup>1</sup> Раҳматуллаев Ш. Ўзбек тилида тобе боғланишнинг турлари. - Тошкент, 1993. -Б.47.

<sup>2</sup> Иванов С.Н. К истолкованию категории принадлежности // Советская тюркология. -1973. N 1. -С.29.

<sup>3</sup> Ш. Раҳматуллаев. Ўзбек тилида тобе боғланишнинг турлари. -Тошкент, 1993. -Б.44.

semantik jihatga hojat qoldirmaydi. Shunga ko'ra, bu xil holatda egalik affiksini ellipsiyaga uchragan emas, balki umuman yo'q deb hisoblash lozim. Shu tufayli ham, biz bu xil qo'llanishlarni egalik kategoriyasi shakllari qo'llanishlari sirasida ko'rsatmadik.

Egalik kategoriyasi bilan bog'liq yana bir qiziqarli holat nisbatlovchilarning birikma hosil qilmay reallashuvidir. Masalan,

*Sochi uzun turkman qizga uylanaman ...* (M.Yusuf)

*Parvozingni ko'rib boshi osmon bo'lay men g'arib.* (Laylo)

O'zbek tilshunosligida bu xil holatda egalik qo'shimchalarini baholash turlicha. Masalan: "Egalik affiksi o'zi qo'shilgan negiz doirasida o'z grammatik mohiyatini saqlab ishlatilganda bunday negizga tobe va shu egalikaffiksiga shaxs-sonda mos biror negizni keltirish (tiklash) imkoniyati mavjud bo'ladi. Bunday imkoniyat ma'lum bir sintaktik shart-sharoitdagina yo'qoladi. Aytib o'tilgan ikki holatni tiklanuvchi negizli holat va tiklanuvchi negizsiz holat deb nomlash mumkin.

Tiklanuvchi negizsiz holat quyidagicha o'rinlarda voqe bo'ladi: egalik affiksi yaxlitligicha bir sintaktik vazifada kelayotgan predikativ sintagmaning ega qismiga qo'shiladi, bunday ega ichki bo'ladi, shu sababli doim III shaxs egalik affiksi ishlatiladi, uni boshqa shaxs-son egalik affiksiga almashtirib bo'lmaydi.

Ana shunday "ichki" egalik asosida biror negizni tiklash imkoniyati bo'lmaydi"<sup>1</sup>.

Shuningdek, quyidagicha qarash ham bor: "Egalik affikslari "oldingi" ga bog'lash sintaktik funkstiyasi bilan bir qatorda qarama-qarshi – "keyingi" ga bog'lash funkstiyasiga ham ega... Bu xil oborotlarda egalik affikslarining oldingiga bog'liqlikni ifodalash vositasi sifatidagi sintaktik mohiyati neytrallashadi va partitiv munosabatlarni ifodalash xususiyati yorqinlashadi"<sup>2</sup>.

Oborotlarda egalik qo'shimchalarining mohiyati masalasiga keyinroq to'xtalamiz.

Egalik qo'shimchalarining qo'llanish doirasini tekshirish quyidagicha xulosaga olib keladi.

Egalik qo'shimchalari asosiy egalik, butun-qismlik va hokazo ma'nolardan tashqari shaxs-son va modal ma'nolar ham tashiydi.

Yuqorida ko'rib o'tganimizdek, ayrim egalik qo'shimchalarining xususiy qo'llanishlari bir qarashda modal ma'no ifodalashda muntazamdek tuyulsa-da, aslida bunday emas.

I shaxs birlik va III shaxs qo'shimchalari umuman modal ma'no ifodalamaydi. I shaxs ko'plik nomuntazam modal ma'nolar ifodalash imkoniga ega. Modal ma'no ifodalash faqat II

<sup>1</sup> Ўзбек тили грамматикаси. I т. -Тошкент: Фан, 1975. -Б.181.

<sup>2</sup> Нигматов Х.Г. Функциональная морфология тюркоязычных памятников XI-XII вв. -Ташкент: Фан, 1989. - С.71-72.

shaxs birlik va ko'plik shakllarida nisbatan izchil bo'lib, bu ayniqsa II shaxs ko'plikda yaqqolroq seziladi. "Sizlash" va "ko'plik" ma'nolari ifodalangan holatlarda farqli shakllarni qo'llashga intilish (uyingiz – uyinglar) shundan darak beradi. “Sizlash”, “sensirash” ular bilan bog`liq yana bir qator modal ma'nolar ("kesatish", “mensimaslik” va hkz.) ijtimoiy omil bilan zich bog`liq bo'lib, o'zbek tilida bu ma'nolarni ifodalash uchun turlicha vositalar ishlatiladi.

Xususan, “hurmat” ma'nosini ifodalash uchun uch xil usul – morfologik (-siz, -sizlar, -ngiz, -ngizlar, -laringiz, -(i)ng, -(i)nglar, -(i)ngiz, -(i)ngizlar, lug`aviy ( siz, sizlar, o'zingiz, o'z'laringiz), birikma bilan (*Karim aka, Ahmad amaki, Haydar ota, hurmatli mehmon, muhtaram ustoz* va hokazo) qo'llanishini G`N. Zikrillaev<sup>1</sup> ko'rsatadi.

Modal ma'nolar egalik kategoriyasi uchun hamroh<sup>2</sup> ma'no bo'lib, o'zining asos grammatik kategoriyasiga ega emas. Biroq o'zbek tilida “hurmat” funkstional-semantik maydoni mavjudligini rad etib bo'lmaydi. Modal ma'no ifodalash vazifasiga ko'ra, yuqorida qisman ko'rsatib o'tilgan shakllar bilan egalik qo'shimchalari orasida paradigmatic munosabat (maydon doirasida) bo'lishi mumkin, biroq morfologik egalik kategoriyasi ko'rsatib o'tilgan modal ma'nolar bo'yicha muntazam ziddiyatlar tizimi hosil qilmaydi. Demak, bu ma'nolar egalik qo'shimchalari uchun kategorial, ya'ni zotiy emas.

Egalik qo'shimchalarining xususiy qo'llanishlariga nazar tashlash ularda nisbatlash, butun-qism, shaxs, son (egadorning shaxsi va soni) kabi ma'nolar muntazam yuzaga chiqishini ko'rsatdi (III xil qo'llanishni mustasno qilganda), shuningdek, egalik qo'shimchalari doimo "oldingiga" aloqadorlikka ishora qiladi (VI xil qo'llanishni mustasno qilganda). Bu vazifa va ma'nolar ayrim qo'shimchalar uchun quyidagicha taqsimlanadi:

- (i)m* – birlikdagi I shaxsga nisbatlash, “oldingi” ga bog`liq
- (i)miz* – ko'plikdagi I shaxsga nisbatlash, “oldingi” ga bog`liq
- (i)ng* – birlikdagi II shaxsga nisbatlash, “oldingi” ga bog`liq
- (i)ngiz* – ko'plikdagi II shaxsga nisbatlash, “oldingi” ga bog`liq
- (s)i* ga baho berish yuqoridagi shakllarga nisbatan ancha mushkul.

Ivanov S.N. -*(s)i* (“III shaxs affiksi” atamasini ishlatgan) ning o'ziga xos tabiatli ekanligiga alohida e'tibor bergan va buning uch jihatini ko'rsatgan:

birinchidan, bu qo'shimcha shaxsga ham, predmetga ham birdek nisbatlayveradi; ikkinchidan, son ma'nosiga befarq (neytral);

uchinchidan, unda I shaxs va II shaxs bilan umuman boo'lanmay digan holat ham uchraydi

<sup>1</sup> Зикриллаев Ф.Н. Ўзбек тили морфологияси. -Бухоро,1994. -Б.94.

<sup>2</sup> Нигматов Х.Г. Функциональная морфология тюркоязычных памятников XI-XII вв. -Ташкент: Фан, 1989. -С.157-159.

(o'qish kitobi, mart oyi). Shuningdek, *-(s)i* da o'zi qo'shilgan so'z tarkibida qotib, yangi leksema hosil qilish imkoniyati boshqa egalik qo'shimchalariga nisbatan kuchliroq: *kechasi, mayli, chamasi, yaxshisi, nimasi* kabilar.<sup>1</sup>

Ushbu semantik o'ziga xos jihatlariga qo'shimcha ravishda *-(s)i* ning sintaktik imkoniyatlari ham kategoriyadoshlaridan farqli tomonlarga ega. Narsaga ham, shaxsga ham ishora qilish imkoni boshqa nisbatlovchilardan farqli o'laroq, nafaqat olmosh, balki boshqa nomlar bilan ham bog'lanish sharoitini tug'diradi:

*Yulduzlarning ko'zi yumilar ...*

*Tun mashshog'i charchadi chog'i ...* (Laylo)

*Qarg'alar uchsa qaraylik Marg'ilonning yo'liga,*

*Hidi kelsa, mast bo'laylik handalakning bo'yiga ...* (Qo'shiqdan)

*-(s)i* da nafaqat qaratqich, balki chiqish kelishigidagi so'z bilan ham bog'lanish imkoniyati ham, aftidan, olmosh bilan ot (keng ma'noda) nigina emas, ot (keng ma'noda) bilan ot (keng ma'noda) ni ham boo'lay olish xususiyatidan kelib chiqqan bo'lsa kerak.

Yuqorida ko'rib o'tilganidek, ikki xil pozistiya mavjudki, uni egalik qo'shimchalaridan faqat *-(s)i* egallay oladi. (III va IV xil qo'llanish).

Aytib o'tilganlarni jamlab *-(s)i* ga quyidagicha ma'noviy-sintaktik xususiyatlar xos deyishimiz mumkin:

*-(s)i* – birlik va ko'plikdagi III shaxsga nisbatlash-nisbatlamaslik, “oldingi” ga bog'lash-bog'lamaslik.

Demak, *-(s)i* ning boshqa egalik qo'shimchalariga nisbatan boy mazmuni unga nisbatlash ma'nosi bo'lmagan holatlarda, faqat “oldingi” ga bog'lash uchun (Andijon shahri), “oldingi” bo'lmasa ham, nisbatlash ma'nosini ifodalayverish uchun (ko'zi qora qizaloq) ishlatilish imkonini beradi.

Egalik qo'shimchalari o'zaro quyidagicha ziddiyatlar tizimiga kirishadi:

“Egadorning birlik yoki ko'pligiga ishora qilish” belgisiga ko'ra *-(s)i* barcha egalik qo'shimchalari bilan privativ munosabatga kirishadi.

*-(s)i* bu ziddiyatning ham birlik, ham ko'plikka ishora qila oluvchi kuchsiz a'zosi bo'lsa, qolgan qo'shimchalar kuchli a'zodir. "Muayyan shaxsga nisbatlash" belgisiga ko'ra ham privativ ziddiyat yuzaga keladi va *-(s)i* bu o'rinda ham kuchsiz a'zo sifatida qolgan egalik

---

<sup>1</sup> Иванов С.Н. К истолкованию категории принадлежности //Советская тюркология. 1973. N 1. -С.34-35. "Лексема таркибига ўтиб кетиш асосан III шахсинг -и аффиксида, қисмангина I шахсинг -м аффиксида содир бўлади. Масалан, расмий муомалада ишлатилувчи *хоним* сўзи, эркалаб мурожаат қилишда ишлатилувчи *жоним* сўзи таркибидаги -м аффиксида шундай грамматик-семантик ўзгариш юз берган"(Ўзбек тили грамматикаси. I т.-Тошкент:Фан,1975.-Б.177).

qo'shimchalariga qarama-qarshi turadi. Chunki unda nisbatlamaslik imkoni ham mavjud (*o'qish kitobi*).

“Oldingi”ga bog`lash belgisi ham *-(s)i* kuchsiz, qolgan egalik qo'shimchalari kuchli bo'lgan privativ ziddiyat uchun asos bo'ladi. Ko'rib o'tganimizdek, *-(s)i* da “oldingi” ga bog`lamaslik imkoni ham uchraydi (*ko'zi qora qizaloq*).

Ko'rinadiki, egalik kategoriyasi mohiyatini birlik yoki (va)ko'plikdagi I, II, III shaxslarga nisbatlash (nisbatlamaslik) “oldingi” ga bog`lash (bog`lamaslik) tashkil etadi. Bu kategorial umumiy grammatik ma'no muayyan qo'shimchalarda taqsimlanib (yuqoriga qarang) ro'yobga chiqadi.

## X U L O S A

1.Falsafiy asoslarda morfologiyani o'rganish tilning sistem tabiatidan kelib chiqib ob'ekt va metodologiyaning juda mos tushganini ko'rsatdi.

2.Xususan, umumiylik va xususiylik bir-biriga zid narsalar emas. Ularning qarama-qarshiligi dialektik, nisbiydir: xususiylikdan moddiy, shakliy, davriy, makoniy muayyanliklar chetlashtirilsa, u umumiylikka aylanadi va aksincha, umumiylikning moddiy, shakliy, davriy, makoniy voqelanishi xususiylikdir. Xususiyliklar qancha batafsil tavsif etilsa, xususiyliklar zamirida yotgan umumiylik mohiyatni ochish uchun shuncha mustahkam zamin yaratiladi.

3.Umumiyliklar aqliy tahlil, idrok usuli bilan ochiladi. Umumiylik jonli mushohadada berilgan xususiyliklarning juz'iy xususiyatlaridan holi etiladi va ongda tarkibiy qismlarning barqaror munosabatlaridan tashkil topgan butunlik tarxi (ramzi, timsoli, obrazi) sifatida mavjud bo'ladi va uni na fahm, na biror turdagi asbob-uskuna ilg'ab ololmaydi. Sistema va uning elementlari – unsurlari orasidagi munosabat (sistema sifatida morfema, morfologik kategoriya, morfologik sistema yoki umuman, til sistemasi olinishidan qat'iy nazar) da umumiy va xususiy munosabatlar dialektikasining tajallilashuvi ayon bo'ldi. Xususan, har qanday morfema o'zining xususiy qo'llanishlari uchun umumiydir (chunki har bir xususiy ko'rinish uning mohiyatidan bir zarra tashiydi), o'z navbatida u morfologik kategoriya – umumiylik uchun xususiydir (chunki har bir morfema morfologik kategoriya umumiy ma'nosidan bir zarra tashiydi), morfologik kategoriya esa morfologik sistema uchun xususiy hisoblanadi.

4.Morfemalar (umuman, har qanday til birligi kabi) shaklan va mazmunan turli xil ko'rinishlarga ega bo'ladi. Ammo variantlar qancha ko'p bo'lmasin, ularning barchasi bir umumiylikka birlashadi. Morfemaning lisoniy mohiyatini belgilashda morfemaning moddiy ko'rinishi haqidagi tasavvurdan ko'ra uning ma'no va vazifaviy mohiyati ko'proq ahamiyatlidir. Shuning uchun ma'no va vazifa jihatdan bir xil bo'lgan morfemaning nutqiy-moddiy shakllari mutloq o'xshash bo'lmasligi mumkin. Masalan, orttirma nisbat shakllari.

5.Morfologik kategoriyalar va tashkil etuvchilari tabiatiga nazar tashlash ularning qurilishi va amaliyotida o'ziga xosliklar bilan birga umumiy qonuniyatlar ham mavjudligini ko'rsatadi. Barcha morfologik kategoriyalar uchun xos bo'lgan, demakki, o'zbek tili morfologik tizimi mohiyatiga tegishli xususiyatlar qisman quyidagilardir.

6.Barcha kategoriyalar ziddiyatli ikkilangan tabiatga immanent ega bo'lib, bu ularda semantik-sintaktik xususiyatlar tajassum topganida ko'rinadi. Odatda faqat semantik xususiyatli deb hisoblanuvchi kategoriyalarda (masalan, "Son kategoriyasi" bahsiga qarang) ham, shuningdek, faqat sintaktik xususiyatli deb hisoblanuvchi kategoriyalarda (masalan, "Kelishik kategoriyasi" bahsiga qarang) ham har ikki jihat mavjudligi ko'rinib qoldi. Bu

ziddiyatli tomonlar kurashi morfologik birlikning hayoti va rivojini ta'minlaydi. To'g'ri, ayrim kategoriyalar u yoki bu jihatning ustunligi bilan farqlanib turadi. Lekin bu ularda ikkinchi jihat mavjud emas, degan xulosaga olib kelmasligi lozim. Shunday pozistiyalar mavjudki, ularda morfema strukturasi aynan yo'qdek tuyuluvchi jihat oldingi planga chiqib qolishi mumkin.

7.O'zbek tili morfologik tabiatida falsafaning uzviylik va butunlikni ta'minlab turuvchi "oraliq uchinchi" qonuni amalini tekshirish juda qiziqarli natijalar berdi. Deyarli har bir kategoriya tarkibida ikki qutbni tashkil etuvchi ziddiyatli tomonlar bilan bir qatorda ularni birlashtiruvchi, bog'lovchi uchinchi tomon ham mavjud bo'lishi ko'rindi. Bu uchinchi tomon turlicha shakllanuvchi mumkin.

8.Butun olam qurilishida amal qiluvchi qoidalardan biri barcha narsalarning muayyan kategoriyalarga jamlanishi zaruriyatidan kelib chiqib, nokategorial (funkstional) shakllar til sistemasida mavjud bo'lolmaydi. Odatda nokategoriallar sirasida ko'rsatiluvchi bunday shakllar (-niki, -dagi, -dek, -cha, -jon,-xon ...) mohiyatan yuklama, ko'makchi yoki so'z yasovchilardir.

9.O'zbek tili morfologik tizimining quyidagi jihatlariga alohida e'tibor bilan qarash lozim ekanligi ko'rinadi:

1) o'zbek tili morfologik tizimida grammatik ma'no ifodalashning sintetik usuli amal qiladi. Ayni grammatik ma'no ifodalashning qolgan usullari, aftidan, morfologik kategoriyalarga nisbatan yirikroq kategoriyada morfologik shakllar bilan paradigma hosil qiladi. Til sathlararo uzluksiz bog'liqlikni ta'minlovchi omil sifatida bu shakllar faqat morfologiyaning o'rganish ob'ekti bo'lolmaydi.

2) morfologik kategoriya a'zolari lisoniy va nolisoniy munosabatlarni aks ettiradi, semantik-sintaktik vazifa bajaradi.

3) o'zbek tili morfologik tizimini ko'p a'zoli morfologik kategoriyalar tashkil etib, bir a'zoli kategoriyalar ham, kategoriyadan tashqari shakllar ham uchramaydi.

10.Aytilganlardan kelib chiqib, o'zbek tili morfologik tizimi mohiyatini lisoniy-nolisoniy munosabatlarni sintetik usul bilan aks ettirish va sintaktik-semantik vazifalar bajarish, deb ko'rsatish mumkin.

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Абдуазизов А. Ўзбек тили фонологияси ва морфонологияси. Т. Ўқитувчи, 1992. 136.
2. Абдурахмонов. Ўзбек тили грамматикаси. Т. Ўқитувчи, 1996. -248 б.
3. Абузалова М. Ўзбек тилида содда гапнинг энг кичик қурилиш қолипи ва унинг нутқда вокеланиши: Филол. фанлари номзоди... дис.автореф. Т, 1994. -21 б.
4. Авоян Р.Г. Значение в языке: Философский анализ.М. Высшая школа, 1985. -103 с.
10. Агудов В.В. Категории структура и элементы // Филос. науки. -1974. -N3. -С. 112-122.
5. Ақромов Ш.Т. Ўзбек тилининг гап қурилишида тўлдирувчи ва ҳол: Филол.фанлари номзоди...дис.автореф. -Т., 1997. -22 б.
6. Аанус В.Ф. Античная философия. -М.: Высшая школа, 1976. -543 с.
7. Базаров О. Ўзбек тилида даражаланиш: филол. фанлари доктори... дис. автореф. - Т., 1997. -51 б.
8. Гегель. Наука логики Т.1. -М.: Мысль, 1970. -500 с.
9. Гегель. Наука логики Т.2. -М.: Мысль, 1971. -248 с.
10. Гегель. Философская пропедевтика // Работы разных лет. -М., 1971, т.2. -С. 7-209.
11. Головин И.В. К вопросу о сущности грамматической категории // Вопр. яз. - 1955. -N1. -С. 117-124.
12. Горский Д.П. О критериях истины // Вопр. филос. -1988. -N2. -С.28-40.
13. Диалектика единичного, особенного и всеобщего в науке о языке. -М.: МГУ, 1980. -222 с.
14. Каримов И.А. Ўзбекистон мустақилликка эришиш остонасида. Т.: 2011.
15. Каримов И.А. Ўзбекистон XXI аср бўсағасида: хавфсизликка таҳдид, барқарорлик шартлари ва тараққиёт кафолатлари.- Т.: Ўзбекистон, 1997. - 326 б.
16. Лазарев В.В. Философия и лингвистика. -Ростов на Дону: Ростовский ун-та. 1983. -134 с.
17. Мир философии: книга для чтения. В 2-х ч. Ч.1. -М.: Политиздат, 1991. -672 с.
18. Навоий Алишер. Лисонут тайр. -Т.: Адабиёт ва санъат,1991.

-255 с.

19. Нарский И.С. Западноевропейская философия XVII века. -М.: Высшая школа, 1974. - 383 с.

20. Насафи Азиз ад- Дин. Зубдат ал-хакаик // Суфизм в контексте мусульманской культуры. -М., 1989. -С. 98-111.

21. Нигматов Х.Г. Включенное третье в морфологической системе тюркских языков (к постановке вопроса) // Сов. тюрк. -1976. -N3. -С. 31-36.

22. Нурмонов А. ва бошқ. Ўзбек тилининг мазмуний синтаксиси.

-Т.: Фан, 1992. -222 б.

23. Нурмонов А., Шахобиддинова Ш. Грамматик категория муаммосига доир айрим мулоҳазалар // Ўзбек тили ва адабиёти. -1998.

-N6. -Б. 22-26.

24. Шаумян С.К. Философские вопросы теоретической лингвистики. -М.: Наука, 1971. -159 с.